$$\frac{dy}{dx}=f(x,y)\,(1)$$

bu tenglamaga hosilaga nisbatan yechilgan oddiy differensial tenglamadeyiladi. (1)tenglama (1`) tenglamaniy` ga nisbatan yechish natijasida hosil bo'lgan deb qaramasdan, balki (1) ga f(x,y) funksiya G sohada berilgan deb qaraymiz.

Izoh 1. Soha deyilganda faqat yopiq yoki faqat ochiq bog'langan to'plamni olamiz. Agar berilgan G to'plamning ixtiyoriy ikki nuqtasini tutashtiruvchi va shu to'plamga tegishli biror chiziq mavjud bo'lsa,u holda G to'plam bog'langan bo'ladi.

Izoh 2. Agar I intervalda yopiq bo'lsa u holda uning chap uchiga o'ng hosila, o'ng uchiga esa chap hosila nazarda tutiladi.

Tarif 1. (1) chi tenglama berilgan bo'lib, undaf(x,y) funktsiya R^2 tekislikning G sohasida aniqlangan bo'lsin. Agar I (ochiq,yopiq yoki yarim ochiq) intervalda aniqlangan $\varphi(x)$ funksiya uchun quyidagi uch shart

$$\left.\begin{array}{l} 1^\circ\ (\mathrm{x},\ \varphi(\mathrm{x}))\in \Gamma, \Gamma\subset R^2, x\in I \\ 2^\circ\ \varphi(\mathrm{x})\in C^1(I) \\ 3^\circ\ \dfrac{\alpha\varphi(\mathrm{x})}{\alpha x}=f(x,\varphi(x)), x\in I \end{array}\right\} \textbf{(2)}$$

bajarilsa, u holda bu funksiya I intervalda (1) diferensial tenglamaning yechimi deyiladi.

(1) differensial tenglamaning har bir $y=\varphi(x)$ yechimga mos kelgan egri chiziq (ya'ni $y=\varphi(x)$ funksiyaning grafigi) shu tenglamaning integral egri chizig'i deyiladi. (1) tenglamaning yechimi ba'zi hollarda oshkormas F(x,y)=0 ko'rinishda bo;lsa , ba'zi hollarda parametrik $x=x(t),\ \ y=y(t),\ \ t_\circ<t<t_1\ \ x'(t)\neq 0$ ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Koshi masalasining qo'yilishi.

(1) tenglama berilgan bo'lib unda f(x,y) funktsiya R^2 tekislikning Gsohasida aniqlangan, uzluksiz va I interval x o'qidagi interval bo'lsin, x_0 ni o'z ichiga oladigan I intervalni va shu I intervalda aniqlangan uzluksiz differensiallanuvchi hamda ushbu

`

$$\left.\begin{array}{l} 1^\circ\ \ (x,\ \varphi(x))\in\Gamma,\qquad x\in I \\ 2^\circ\ \ \varphi'(x)=f(x,\varphi(x))\qquad (\in I) \\ 3^\circ\ \ \varphi(x_\circ)=y_\circ\ ,\ (x_\circ,y_\circ)\in\Gamma \end{array}\right\}(3)$$

Shartlarni qanoatlantiruvchi $y=\varphi(x)$ funksiyani topish talab etiladi.

Bu masala qisqasha $y'=f(x,y),\ \ y(x_\circ)=y_\circ$ kabi yoziladi va (1) tenglama uchun koshi masalasi (yoki boshlang'ich masala) deyiladi.

(3)-shartni qanoatlantiruvchi $y=\varphi(x)$ funksiya I intervalda (k) Koshi masalasini yechimi deyiladi. Endi G sohaning (k) masala yagona yechimga ega bo'ladigan (x,y) nuqtalaridan tuzilgan kesmini $D_2^*\subset\Gamma$ $(D_2\equiv\Gamma)$ deb belgilaylik. Shunga ko'ra D_2^* to'plamning har bir (x,y) nuqtasida (1) tenglamaning yagona integral chizig'i o'tadi.

Tarif 2. (1) differensial tenglama x,c o'zgaruvchilarning biror o'zgarish sohasida aniqlangan hamda x bo'yicha uzluksiz differensiallanuvchi

$y=\varphi(x,c)$(4)

Funksiya berilgan bo'lsin. Agar $\forall\ (x,y)\in D_2^*$ nuqta uchun (4) munosabat c ning $c=\psi(x,y)$ (4`) qiymatini bir qiymatli aniqlasa va bu qiymatni ushbu $\dfrac{dy}{dx}=\varphi_x^`(x,c)$ (4``) tenglikka qo'yish natijasida (1) tenglama hosil bo'lsa, u holda (4) funksiya (1) tenglamaning D_2 to'plamda aniqlangan umumiy yechimi deyiladi.

Tarif 3. (1) tenglama va (4) chiziqlar oilasi berilgan bo'lsin.

Agar

1) f(x,c) funksiya I intervalda x bo'yicha uzluksiz hosilaga ega bo'lsa;

2) Har bir $(x,y)\in D_2^*$ nuqta uchun (4) munosabat c ning (4`) qiymatini bir qiymatli aniqlasa;

3) $y=\varphi(x,\psi(x,y))$ funksiya (1) tenglamaning yechimi bo'lsa, uholda (4) funksiya (1) tenglamaning umumiy yechimi deyiladi.

Har bir natijasida Koshi masalasi yagona yechimga ega bo'ladigan yechim xususiy techim deyiladi, (1) tenglamaning barcha yechimlarini topish asosiy masala hisoblanadi. Barcha yechimlarini topish jarayoni differensial tenglamani integrallash deyiladi. Agar (1) chi tenglamaning yechimini elementar funksiyalar va ularning integrallari yordamida yozish mumkin bo'lsa, u holda differensial tenglama kvadraturalarda integrallanadi deyiladi.

$D=D_2\cap D_2{}^*$ to'plamning har bir (x,y) nuqtasidan o'tadigan integral chiziqlar yagona emasligi kelib chiqadi. Har bir nuqtasidan yechimning yagonaligi buziladigan yechimlar maxsus yechimlar deyiladi. Umumiy yechish formulasi (4) maxsus yechimlarni o'z ichiga olmaydi. Agar F(x,y,c)=0 munosabat D_2^* to'plamda $y=\varphi(x,c)$ umumiy yechimni aniqlasa, u holda (4```) ni (1) differensial tenglamaning umumiy integrali deyiladi.

Masalan ; $y = ce^x$ chiziqlar oilasi berilgan bo'lsin. U holda $y' = ce^x$ izlangan differensial tenglama y`=y bo'ladi. Ravshanki, bu tenglamaning umumiy yechimi; $y = ce^x$

Agar umumiy yechim ma'lum bo'lmasa, Koshi masalasini yechish qiyinlashadi. Bunda differensiyal tenglama taqribiy integrallash metotlari yordamida yechiladi.

Masalaning qo'yilishi.

(1) differensial tenglama uchun Koshi masalasi ((1),(3)) ning yechimi bormi yoki yo'qmi ? Agar bunday yechim bor bo'lsa, ular nechta ? Qachon Koshi masalasi yechimga ega emas?

Bu savolga javob beradigan teoremalar mavjudlik va yagonalik teoremalari deb ataladi.

1–teorema. (Koshi teoremasi) Agar f(x,y) funksiya G sohada aniqlangan va uzluksiz bo'lib, uning y bo'yicha xususiy hosilasi $\frac{\partial f(x,y)}{\partial y}$ biror $\mathrm{Q}(\mathrm{Q} \subset \Gamma)$ sohada aniqlangan va uzluksiz bo'lsa , u holda.

1^0 (1) tenglamaning x_0 o'z ichiga oladigan biror intervalda aniqlangan va har bir berilgan $(x_0, y_0) \in Q$ nuqta uchun $y(x_0)= y_0$ boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi yechimi mavjud.

2^0 Agar (1) tenglamaning ikkita $y = \varphi(x)$ va $\mathrm{y} = \psi(\mathrm{x})$ yechimlari x_0 ga ustma – ust tushsa ya'ni $\varphi(x_0) = \psi(x_0) = y_0$ bo'lsa, u holda bu $\mathrm{y} = \varphi(\mathrm{x}),\ \mathrm{y} = \psi(\mathrm{x})$ yechimlar aniqlanish sohalarining umumiy qismiga ustma – ust tushadi.

Tarif 8. Agar f(x,y) funksiya Gsohada aniqlangan bo'lib, shu funksiya uchun shunday musbat L son mavjud bo'lsa bo'lsaki, $\forall(x, y_1) \in \Gamma, (x, y_2) \in \Gamma$ nuqtalar uchun $|f(x, y_1) - f(x, y_2)| \le L|y_1 - y_2| \quad (\mathrm{L})$ tengsizlik bajarilsa, u holda f(x,y) funksiya Gsohada y bo'yicha Lipshis shartini qanoatlantiradi deyiladi, L esa Lipshis o'zgarmasi deyiladi.

2-teorema. (Koshi – Pikar – Lindelef teoremasi).

Agar f(x,y) funksiya G sohada x va y bo'yicha aniqlangan va uzluksiz bo'lib, G sohada y bo'yicha Lipshist shartini qanoatlantirsa, u holda shunday o'zgarmas h>0 son topiladiki, natijada (1) tenglamaning $(x_0, y_0) \in \mathrm{G}$ bo'lgan (3) boshlang'ich shartni qanoatlantiradigan va $I = \{x : |\mathrm{x} - \mathrm{x}_0| \le h\}$ yopiq intervalda aniqlangan yagona yechim mavjud bo'ladi.

3-teorema. (Peano teoremasi)

Agar f(x,y) funksiya G sohada aniqlangan va uzluksiz bo'lsa, u holda G sohaning berilgan $(x_0, y_0) \in \mathrm{G}$ nuqtasidan (1) tenglamaning kamida bitta integral chizig'i o'tadi.

Yuqoridagi teoremalarning qo'llanilishiga doir misol ko'raylik.

Misol. $\begin{cases} y` = y^{2/3} \\ y(-2) = 1 \end{cases}$

Koshi masalasida $\Gamma = R^2,\ \frac{\partial \mathrm{f}(\mathrm{x}, \mathrm{y})}{\partial \mathrm{y}} = \frac{2}{3} y^{-1/3}$ ga ko'ra

$Q = Q_1 \bigcup Q_2,\ \mathrm{Q}_1 = R^1 \times R^1,\ \mathrm{Q}_2 = R^1 \times R^1,\ \mathrm{Q} \subset \Gamma$ ekani kelib ccchiqadi.

$\Gamma = Q \cup \{(x, y), y = 0\}$ **va** $(-2{,}1) \in \mathrm{Q} \subset \Gamma$ umumiy yechim

$y = \left(\frac{x + c}{3}\right)^2$ $\mathrm{x} = -2, \mathrm{y} = 1, \mathrm{c} = 5.$ Koshi masalasi yechimi $y = \left(\frac{x + c}{3}\right)^2$ bo'lib, bu yechim Q_2 ga yagonadir.

$$\begin{cases} y' = y^{2/3} \\ y(-2) = 0 \quad \Gamma = \mathrm{R}^2,\ (-2{,}0) \in \Gamma \quad \dfrac{\partial \mathrm{f}}{\partial \mathrm{y}} = \dfrac{2}{3} y^{-1/3} \end{cases}$$

(-2;0) nuqtada uzluksiz emas. Shuning uchun (-2;0) nuqtadan cheksiz ko'p integral chiziqlar o'tadi, (-2;0) nuqtadan $y = \left(\dfrac{x+2}{3}\right)^3$ y=0 integral chiziqlar o'tadi. Shuning uchun

$$(x) = \begin{cases} y = \left(\dfrac{x+2}{3}\right)^3, & \mathrm{x} < -2 \\ 0, & \mathrm{x} = 2 \\ y = \left(\dfrac{x+k}{3}\right)^3, & \mathrm{x} \geq -\mathrm{k},\ \mathrm{k} > -2 \end{cases}$$

Funksiya berilgan tenglamaning R^2 ga aniqlangan yechimi bo'ladi.

Agar $y = \varphi(x)$, $\mathrm{I_r} = \{x : r_1 < x < r_2\}$ ga $\psi(x)$ funksiya $\mathrm{I_S} = \{x : S_1 < x < S_2\}$ aniqlangan $x_0 \in I_r \cap I_S$ uchun $\varphi(x_0) = \psi(x_0)$ bo'lsa, u holda $\varphi(x) \equiv \psi(x)$, $\mathrm{x} \in \mathrm{I_r} \cap I_s$ bunda $\mathrm{I_r} \neq I_s$. Agar $\mathrm{I_r} \supset I_s$ bo'lsa, $\varphi(x)$, $\psi(x)$ ning davomi deyiladi.

3- mavzu.Koshi masalasi. Yechimning mavjudligi va yagonaligi haqida teorema. (2 soat)

Reja:

1.Koshi masalasi.
2.Yechimning mavjudligi va yagonaligi haqida teorema.

Agar

$$\frac{dy}{dx} = f(x, y) \qquad \textbf{(1)}$$

tenglamada $f(x,y)$ funksiya

1^0 $D = \{(x,y)\ \mathrm{x}_0 - a \leq x \leq x_0 + a,\ \ y_0 - b \leq y \leq y_0 + b\}$ to'g'ri to'rburchakda uzluksiz (demak unda chegaralangan, ya'ni $|f(x,y)| \leq M$, $\mathrm{M} > 0$) bo'lsa.

2^0 y bo'yicha Lipshist shartlarini qanoatlantirsa, u holda (9) tenglama

$$y(x_0) = y_0 \ \textbf{(6)}$$

shartni qanoatlantiradigan va $|x - x_0| \leq h$, $\mathrm{h} = \min\left(\mathrm{a}, \dfrac{\mathrm{b}}{\mathrm{m}}\right)$ intervalda aniqlangan yagona yechimga ega. Agar D to'plamning $\forall$ ikki (x ,y_1) va (x ,y_2) nuqtasi ushbu

$$|f(x, y_1) - f(x, y_2)| \leq L|y_1 - y_2| \ \textbf{(7)}$$

tengsizlik o'rinli bo'lsa f(x,y) funksiya D da y bo'yicha Lipshist shartini qanoatlantiradi deyiladi, L esa Lipshist o'zgarmasi deyiladi.

Pikart teoremasining isbotini keltirishdan avval zarur ikki tasdiqni keltiramiz.

Ekvivalentlik lemmasi

Agar $y = \varphi(x)$ funksiya x_0 nuqtani o'z ichiga olgan biror I intervalda aniqlangan bo'lib, (5) – (6) Koshi masalasining yechimi bo'lsa, u holda $y = \varphi(x)$ funksiya I intervalda

(8)

integral tenglamaning yechimi bo'ladi, aksincha agar $y = \varphi(x)$ funksiya I intervalda uzluksiz bo'lsa, u holda $y = \varphi(x)$ funksiya (9)-(10) Koshi masalasining ham yechimi bo'ladi.

Gronuoll lemmasi

Agar u(x) funksiya $[x_0, x_0 + h]$ intervalda manfiymas, uzluksiz bo'lib, shu intervalda ushbu

$$u(x) \leq A + B\int_{x_0}^{x} u(\tau)d\tau, \ \ \mathrm{A} \geq 0, \ \mathrm{B} \geq 0 \ (9)$$

integral tengsizlikka qanoatlantirsa, shu u(x) funksiya uchun quyidagi

$$u(x) \leq Ae^{B(x-x_0)}, \quad \mathrm{x}_0 \in [x_0, x_0 + h] (10)$$

tengsizlik o'rinli bo'ladi.

Pikar teoremasining isboti. Mavjudligi. Ekvivalentlik lemmasiga ko'ra Koshi masalasi (9)-(10) o'rniga ushbu

$$y = y_0 + \int_{x_0}^{x} f(\tau, y)d\tau \ (11)$$

integral tenglamani yechish masalasini ko'ramiz. Bu tenglamaning yechimini Pikarning ketma-ket yaqinlashish metodi bilan izlaymiz. $|x - x_0| \leq h$ intervalda yaqinlashgan funksiyalar ketma-ketligini quyidagicha ko'ramiz;

$$y_0(x) = y_0 \quad (\text{nolinchi yaqinlashish})$$

$$y_1(x) = y_0 + \int_{x_0}^{x} f(\tau, y_0)d\tau \ \ (1\text{ - yaqinlashish})$$

$$y_2(x) = y_0 + \int_{x_0}^{x} f(\tau, y(\tau))d\tau \ \ (2\text{ - yaqinlashish})$$

– –

$$y_n(x) = y_0 + \int_{x_0}^{x} f(\tau, y_{n-1}(\tau))d\tau \ \ (\text{n - yaqinlashish})$$

shu funksiyalarning grafigi $|x - x_0| < h,$ intervalda

$D_h = \{(x, y) : |x - x_0| \leq h, |y - y_0| \leq b,\}$

to'g'ri to'rtburchakdan chiqib ketmaydi, ya'ni $(x, y_n(x)) \in D_h$, $\mathrm{n} = 0,1,2,3...$ haqiqatdan.

$$(x_0, y_0) \in D_k$$

$$|y_1(x) - y_0| = \left|\int_{x_0}^{x} f(\tau, y_0)d\tau\right| \le \left|\int_{x_0}^{x} |f(\tau, y_0(\tau))|d\tau\right| \le M|x - x_0| \le Mh \le b_1$$

$$|y_2(x) - y_0| = \left|\int_{x_0}^{x} f(\tau, y_1(\tau))d\tau\right| \le \left|\int_{x_0}^{x} |f(\tau, y_1(\tau))|d\tau\right| \le M|x - x_0| \le Mh \le b$$

$$|y_n(x) - y_0| = \left|\int_{x_0}^{x} f(\tau, y_{n-1}(\tau))d\tau\right| \le \left|\int_{x_0}^{x} |f(\tau, y_{n-1}(\tau))|d\tau\right| \le M|x - x_0| \le Mh \le b$$

tasdiqlab o'tamizki, $\{y_n(x)\}$ ketma-ketlikning hadlari ko'rilayotgan $|x - x_0| \le h,$ intervalda uzluksiz, hatto differensiallanuvchidir.

Endi qurilgan $\{y_n(x)\}$ ketma-ketlik $|x - x_0| \le h,$ intervalda tekist yaqinlashuvchi ekanligini intervalda tekis yaqinlashuvchi ekanligini isbotlaymiz. Ushbu

$$y_0 + [y_1(x) - y_0] + [y_2(x) - y_1] + ... + [y_n(x) - y_{n-1}(x)] + ... \quad \textbf{(12)}$$

Funksional qatorni ko'ramiz. Uning **n-** xususiyyig'indisi $S_n(x) = y_n(x)$ bundan $\lim\limits_{n\to\infty} S_n(x) = \lim\limits_{n\to\infty} y_n(x)$. Shuning uchun (12) qatorning tekis yaqinlashuvchi ekanligi isbot qilish yetarli, (12) qatorning har bir hadini baholaymiz , (10) tengsizlikni hisobga olgan holda

$$|y_1(x) - y_0| = \left|\int_{x_0}^{x} f(\tau, y_0)d\tau\right| \le M|x - x_0|$$

$$|y_2(x) - y_1(x)| = \left|\int_{x_0}^{x} [f(\tau, y_1(\tau)) - f(\tau, y_0)]d\tau\right| \le \left|\int_{x_0}^{x} [f(\tau, y(\tau)) - f(\tau, y_0)]d\tau\right| \le L\left|\int_{x_0}^{x} |y_1(\tau) - y_0|d\tau\right| \le$$

$$\le LM\left|\int_{x_0}^{x} |\tau - x_0|d\tau\right| = LM\,\frac{(x - x_0)^2}{2!}$$

Induksiya usuli bilan:

$$|y_n(x) - y_{n-1}(x)| \le L^{n-1}M\,\frac{(x - x_0)^n}{n!} \quad (13)$$

Tengliksiz o'rinli bo'lsa, shu qonun **n** dan **n+1** ga o'tganda ham o'rinli ekanligini isbotlash mumkin:

$$|y_{n+1}(x) - y_n(x)| = \left|\int_{x_0}^{x} [f(\tau)y_n(\tau) - f(\tau, y_{n-1}(\tau))]d\tau\right| \le \int_{x_0}^{x} [f(\tau)y_n(\tau) - f(\tau, y_{n-1}(\tau))]d\tau \le$$

$$\le L\int_{x_0}^{x} [y_n(\tau) - y_{n-1}(\tau)]d\tau \le \frac{L^n M}{n!}\left|\int_{x_0}^{x} |\tau - x_0|^n d\tau\right| = \frac{L^n M}{(n+1)!}|x - x_0|^{n+1}$$

Shunday qilib (13) tengsizlik ixtiyoriy natural n lar uchun to'g'ri. Haqiqatdan (13) ga ko'ra

$$|y_n(x)-y_{n-1}(x)|\le L^{n-1}M\frac{h^n}{n!} \quad \text{va} \quad |y_0|+\sum_{n=1}^{\infty}L^{n-1}M\frac{h^n}{n!}$$

sonli qator yaqinlashuvchi, shunki Dalamber alomatiga ko'ra

$$\lim_{n\to\infty}\frac{L^nM\dfrac{h^{n+1}}{(n+1)!}}{L^{n-1}M\dfrac{h^n}{n!}}=\lim_{n\to\infty}\frac{h}{n+1}=0<1$$

Shunday qilib, matematik analiz kursidan ma'lum bo'lgan Veyershtrass teoremasiga ko'ra $\{S_n(x)=y_n(x)\}$ ketma – ketlik uzluksiz $\varphi(x)$ funksiyaga tekis yaqinlashadi $\varphi(x)$ funksiyaning uzluksizligi har bir $y_n(x)-y_{n-1}(x)$ ayirma yuqori limiti o'zgaruvchi bo'lgan integraldan iboratligidan ko'rinadi. Ma'lumki, bunday integral yuqori limitining uzluksiz funksiyasidan iboratdir.

Enditopilganshuy=$\varphi(x)$limitfunksiya (5) – (6masalasiningyechimiekanliginiisbotqilamiz, buninguchun $n\to\infty$ da $y_{n+1}(x)=y_0+\int\limits_{x_0}^{x}f(\tau,y_n(\tau))d\tau$ tenglikdan

$$\varphi(x)=y_0+\int\limits_{x_0}^{x}f(\tau,\varphi(\tau))d\tau \quad (14)$$

Tenglik kelib chiqishini isbotlash lozim, haqiqatdan ravshanki

$$\left|\int\limits_{x_0}^{x}f(\tau,\varphi(\tau))d\tau-\int\limits_{x_0}^{x}f(\tau,y_n(\tau))d\tau\right|\le\left|\int\limits_{x_0}^{x}|f(\tau,\varphi(\tau))-f(\tau,y_n(\tau))|d\tau\right|\le L\left|\int\limits_{x_0}^{x}|\varphi(\tau)-y_n(\tau)|d\tau\right|$$

$\{y_n\}$ ketma –ketlikning $\varphi(x)$ funksiyaga tekis yaqinlashuvidan $\forall\varepsilon>0$ uchun shunday N nomer topiladiki, n>N bo'lganda $|\varphi(x)-y_n(x)|\le\dfrac{\varepsilon}{Lh}$ tengsizlik o'rinli bo'ladi shuning uchun

$$L\left|\int\limits_{x_0}^{x}|\varphi(\tau)-y_n(\tau)|d\tau\right|\le L\frac{\varepsilon}{Lh}\left|\int\limits_{x_0}^{x}d\tau\right|=\frac{\varepsilon}{h}|x-x_0|\le\frac{\varepsilon}{h}\cdot h=\varepsilon$$ bo'ladi. Bunda

$$\lim_{n\to\infty}\int\limits_{x_0}^{x}f(\tau,y_n(\tau))d\tau=\int\limits_{x_0}^{x}f\left(\tau,\lim_{n\to\infty}y_n(\tau)\right)d\tau=\int\limits_{x_0}^{x}f(\tau,\varphi(\tau))d\tau$$ shunday qilib

$$\lim_{n\to\infty}y_{n+1}=\lim_{n\to\infty}(y_0+\int\limits_{x_0}^{x}f(\tau,\varphi(\tau))d\tau)$$ dan (18) ning o'rinli ekanligini kelib chiqadi.

Yagonaligi

(5) tenglamaning (6) shartni qanoatlantiradigan yana bitta $y=\psi(x)$ yechim bo'lsin. Uning aniqlanish intervali $|x-x_0|\le h$ bo'lib $\varphi(x)$ va $\psi(x)$ funksiyalaning aniqlanish intervallarining umumiy qismi $|x-x_0|\le h_0$ dan iborat bo'lsin. U holda $|x-x_0|\le h_0$ da $\varphi(x)\equiv\psi(x)$ ekanligini isbotlaemiz

Shartga ko'ra $\varphi(x)=y_o+\int\limits_{x_o}^{x}f(\tau,\varphi(\tau))d\tau,\quad \psi(x)=y_0+\int\limits_{x_0}^{x}f(\tau,\psi(\tau))d\tau)$

ayniyatlarga egamiz.

Bundan $[x_0,x_0+h]$ uchun

$$|\varphi(x)-\psi(x)|=\left|\int\limits_{x_o}^{x}f(\tau,\varphi(\tau))d\tau-\int\limits_{x_0}^{x}f(\tau,\psi(\tau))d\tau\right|\le L\int\limits_{x_0}^{x}|\varphi(\tau)-\psi(\tau)|d\tau$$, yani

$|\varphi(x)-\psi(x)| \le L\int_{x_0}^{x}|\varphi(\tau)-\psi(\tau)|d\tau$ ga egamiz. Bu yerdan Gronuall lemmasining natijasiga ko'ra $\varphi(x) \equiv \psi(x)$, $x \in [x_0, x_0+h]$ kelib chiqadi $x \in [x_0-h,\ x_0]$ uchun ham mulohazalar shunga o'xshashdir. Yagonaligi isbot etiladi. Pikar teoremasi isbotlanadi.

4- mavzu.O`zgaruvchilari ajralgan va unga keltiriladigan differentsial tenglamalar. O`zgaruvchilarigi nisbatan bir jinsli va umumlashgan bir jinsli tenglamalar. (2 soat)

Reja:

1.O`zgaruvchilari ajralgan differentsial tenglamalar.

2.O`zgaruvchilari ajralgan tenglamalarga keltiriladigan differentsial tenglamalar.

3.O`zgaruvchilarigi nisbatan bir jinsli tenglamalar.

4.O`zgaruvchilarigi nisbatan umumlashgan bir jinsli tenglamalar.

1. y'**=f(x) ko'rinishidagi tenglama.**

Bu tenglamani $\frac{dy}{dx} = f(x)$ ko'rinishida yozib olamiz va $dy = f(x)dx$. Ikkala tomonini integrallab $y = \int f(x)dx + C$ ko'rinishidagi umumiy yechimni yozamiz.

Misol: $y'=x^2$

Yechish: $\frac{dy}{dx} = x^2$, bundan $dy = x^2dx$ va $y = \int x^2dx$.

Demak, umumiy yechim $y = \frac{x^3}{3} + C$ ko'rinishida bo'ladi.

2. $y' = \varphi(y)$ **ko'rinishidagi tenglama**.

$\frac{dy}{dx} = \varphi(y)$ va bundan $\frac{dy}{\varphi(y)} = dx$ yoki umumiy yechim $x = \int \frac{dy}{\varphi(y)} + C$ ko'rinishida bo'ladi.

Misol: $y'=y$

Yechish: $\frac{dy}{dx} = y$ bundan $\frac{dy}{y} = dx$. Ikkala tomonini integrallab, $\int \frac{dy}{y} = x + \ln C$ yoki $y = C \cdot e^x$ ko'rinishidagi umumiy yechimni topamiz.

3. $y' = f(x)\cdot\varphi(y)$ **ko'rinishidagi tenglama.** Bu tenglama o'zgaruvchilari ajraladigan tenglama deb aytiladi. Tenglamaning o'zgaruvchilarini ajratamiz:

$\frac{dy}{dx} = f(x)\cdot\varphi(y)$ va bundan $\frac{dy}{\varphi(y)} = f(x)dx$. Ikkala tomonini integrallab (agar integrallash mumkin bo'lsa) $\int \frac{dy}{\varphi(y)} = \int f(x)dx + C$ ko'rinishidagi umumiy yechimni topamiz.

Misol: $y' = \frac{y}{x}$

Yechish: $\frac{dy}{dx} = \frac{y}{x}$ bundan $\frac{dy}{y} = \frac{dx}{x}$ kelib chiqadi. $\int \frac{dy}{y} = \int \frac{dx}{x}$, lny = lnx + lnC, yoki y=Cx.

4. $y' = f(ax+by+c)$ **ko'rinishidagi tenglama**.

Tenglamani integrallash uchun nomalum funksiyani quyidagicha almashtiramiz:

$U = ax + by + c$ (2). Bundan $y = \frac{1}{b}(U - ax - c)$. U holda $y' = \frac{1}{b}(U' - a)$ (3) bo’ladi. (2) va (3) ifodalarni (1) tenglamaga qo’yib, $\frac{1}{b}(U' - a) = f(u)$ yoki $U' = bf(u) + a$ tenglamaga kelamiz. Bu esa o’zgaruvchilari ajraladigan tenglama bo’lib, uni quyidagicha integrallaymiz:

$\frac{du}{dx} = bf(u) + a$ $\int \frac{du}{bf(u) + a} = x + C$ (4)

Agar (4) ning chap tomonidagi integralni hisoblash mumkin bo’lsa, keyin (2) orqali yana y ga qaytamiz.

Misol: $y' = \sqrt{4x + 2y - 1}$

Yechish: 4x+2y-1=u almashtirish olamiz. Bundan $y = \frac{1}{2}(u - 4x + 1)$ va $y' = \frac{1}{2}(u' - 4)$. Berilgan tenglama qo’yib,

$\frac{1}{2}(u' - u) = \sqrt{u}$ yoki $u' = 2\sqrt{u} + 4$

$\frac{du}{dx} = 2\sqrt{u} + 4$ $\frac{du}{2\sqrt{u} + 4} = dx$ yoki $\int \frac{du}{2\sqrt{u} + 4} = x + C$.

Oxirgi tenglamaning chap tomonidagi integralni hisoblab, $\sqrt{u} - 2\ln(\sqrt{u} + 2) = x + C$ va undan $\sqrt{4x + 2y - 1} - 2\ln(\sqrt{4x + 2y - 1} + 2) = x + C$ umumiy yechimni topamiz.

1. **Bir jisli funksiyalar.**

Ta’rif. f(x,y) funksiya m-darajasi bir jinsli deyiladi, agar har qanday k>0 uchun $f(kx, ky) = k^m f(x, y)$ tenglik o’rinli bo’lsa.

Masalan: 1) f(x,y)=xy bo’lsin.

$f(kx, ky) = kx \cdot ky = k^2 xy = k^2 f(x, y)$ ikkinchi darajali bir jinsli.

2) $f(x, y) = \frac{x}{y}$

$f(kx, ky) = \frac{kx}{ky} = \frac{x}{y} = k^0 f(x, y)$ nolinchi darajali bir jinsli.

2. Bir jinsli tenglamalar.

a) $y' = f(\frac{x}{y})$ (1) ko’rinishidagi tenglama bir jinsli differensial tenglama deb aytiladi. Bu tenglamani integrallash uchun y=ux (2) almashtirish olamiz. U holda $y' = u'x + u$ (3) bo’ladi va (2) va (3) ni (1) ga qo’yib $u'x + u = f(u)$ tenglamani hosil qilamiz. Undan $\frac{du}{dx}x = f(u) - u$ yoki o’zgaruvchilarini ajratib $\frac{du}{f(u) - u} = \frac{dx}{x}$ va $\int \frac{du}{f(u) - u} = \ln Cx$ ga kelamiz.

Agar chap tomondagi integralni hisoblash mumkin bo’lsa, integralni hisoblab keyin dastlabki o’zgaruvchiga qaytamiz.

Misol: $xy' = y - xe^{\frac{y}{x}}$

Yechish: berilgan tenglamani $y' = \frac{y}{x} - e^{\frac{y}{x}}$ ko’rinishida yozib olsak, u (1) tenglama ko’rinishiga keladi. Demak, y=ux almashtirish olamiz. Undan $y' = u'x + u$. Berilgan tenglamaga qo'yib $u'x+u=u-e^u$ yoki $u'x=-e^u$. Undan $\frac{du}{dx}x=-e^u$. $-e^{-u}du=\frac{dx}{x}$, $e^{-u}=\ln Cx$ yoki $u=-\ln\ln Cx$. Dastlabki o'zgaruvchiga qaytsak, $\frac{y}{x}=-\ln\ln Cx$ yoki $y=-x\ln\ln Cx$ umumiy yechimni topamiz.

b) $M(x,y)dx+N(x,y)dy=0$ (4) tenglama bir jinsli tenglama deyiladi, agar M(x,y) va N(x,y) funksiyalar bir xil darajali bir jinsli funksiyalar bo'lsa.

Faraz qilamiz, (4) tenglamada M(x,y) va N(x,y) funksiyalar bir xil darajali bir jinsli funksiyalar bo'lsin. y=ux almashtirish olamiz. U holda, $dy=xdu+udx$ va

$$M(x,ux)dx+N(x,ux)(xdu+udx)=0$$

$$xM(1,u)dx+xN(1,u)(xdu+udx)=0$$

$$M(1,u)dx+N(1,u)\cdot xdu+uN(1,u)dx=0$$

$$(M(1,u)+UN(1,u))dx+N(1,u)xdu=0$$

Oxirgi tenglamada o'zgaruvchilarini ajratib $\frac{N(1,u)}{M(1,u)+uN(1,u)}du+\frac{dx}{x}=0$ tenglamani hosil qilamiz.

Misol: $\begin{matrix}(y^2-2xy)dx+x^2dy=0\\ M=y^2-2xy, N=x^2\end{matrix}$. Ko'rinib turibdiki ikkala funksiya ham ikkinchi darajali bir jinsli. Haqiqatdan, $M(kx,ky)=(ky)^2-2kx\cdot ky=k^2(y^2-2xy)=k^2M(xy)$

Y=ux almashtirish olamiz. dy=udx+xdu.

$((ux)^2-2x\cdot xu)dx+x^2(udx+xdu)=0$. x^2 ga qisqartirib, $(u^2-2u)dx+udx+xdu=0$ yoki $(u^2-u)dx+xdu=0.$ $\frac{du}{u^2-u}+\frac{dx}{x}=0$ integrallab $\ln|u-1|-\ln|u|+\ln x=\ln C, \frac{u-1}{u}x=C$ yoki dastlabki funksiyaga qaytib (y-x)x=Cy umumiy yechimni topamiz.

$y'=f(\frac{a_1x+b_1y+c_1}{a_2x+b_2y+c_2})$ (5) tenglamani qaraymiz.

a) $\frac{a_1}{a_2}=\frac{b_1}{b_2}=k$ (6) bo'lsin. U holda $a_1=ka_2$, $b_1=kb_2$ bo'ladi. (5) tenglamaga qo'yib

$y'=f(\frac{a_1x+b_1y+c_1}{a_2x+b_2y+c_2})=f(\frac{k(a_2x+b_2y)+c_2}{a_2x+b_2y+c_2})$ $a_2x+b_2y=u$ deb olsak, $y=\frac{1}{b_2}(u-a_2x)$ va $y'=\frac{1}{b_2}(u'-a_2x)$ bo'ladi. $\frac{1}{b_2}(u'-a_2x)=f(\frac{ku+C_1}{u+C_2})$ tenglamaga keladi. Bu esa o'zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamadir.

$\int\frac{du}{b_2f(\frac{ku+C_1}{u+C_2})+a_2}=C+x$ umumiy yechimga kelamiz.

b) $\frac{a_1}{a_2}=\frac{b_1}{b_2}=\frac{c_1}{c_2}=k$ (7) bo'lsin. U holda $a_1=ka_2$, $b_1=kb_2$, $c_1=kc_2$ bo'ladi.

$$y'=f(\frac{a_1x+b_1y+c_1}{a_2x+b_2y+c_2})=f(\frac{k(a_2x+b_2y+c_2)}{a_2x+b_2y+c_2})=f(k)$$

$\frac{dy}{dx}=f(k)\ y=f(k)x+C$ umumiy yechim hosil bo'ladi.

Misol: (2x+y+1)dx-(4x+2y-3)dy=0.

Yechish: (6) shart bajariladi, demak 2x+y=u deb belgilash kiritamiz. U holda dy=du-2dx

$y'=u'-2$

$\frac{dy}{dx}=\frac{2x+y+1}{4x+2y-3}$

$u'-2=\frac{u+1}{2u-3},u'=\frac{u+1+4u-6}{2u-3}=\frac{5u-5}{2u-3}$

$\int\frac{2u-3}{u-1}du=5\int dx+\ln C,2u-\ln|u-1|=5x+\ln C$

yoki eski o'zgaruvchiga qaytib

$4x+2y-5x=\ln C+lc\,|2x+y-1|,C(2x+y-1)=e^{2y-x};$

v) Endi (5) tenglamada $\frac{a_1}{a_2}\neq\frac{b_1}{b_2}$ bo'lsin. U holda $a_1x+b_1y+c_1=0$ va $a_2x+b_2y+c_2=0$ to'g'ri chiziqlar kesishadi va ularning kesishish nuqtasi (x_0, y_0) $\left.\begin{matrix}a_1x+b_1y+c_1=0\\ a_2x+b_2y+c_2=0\end{matrix}\right\}$ sistemaning yechimidan iboratdir. $\left.\begin{matrix}u=y-y_0\\ v=x-x_0\end{matrix}\right\}$ almashtirish olamiz. du=dy, dv=dx, $\frac{dy}{dx}=\frac{du}{dv}$.

$\left.\begin{matrix}y=u+y_0\\ x=v+x_0\end{matrix}\right\}$ (8)

(8)ni (5) ga qo'yib

$\frac{du}{dv}=f(\frac{a_1(v+x_0)+b_1(u+y_0)+c_1}{a_2(v+x_0)+b_2(u+y_0)+c_2})=f(\frac{a_1v+b_1u}{a_2v+b_2u})=f(\frac{a_1+b_1\frac{u}{v}}{a_2+b_2\frac{u}{v}})=f^*(\frac{u}{v})$ bir jinsli tenglamaga kelamiz.

Misol: $y'=2(\frac{y+2}{x+y-1})^2$

Yechish: $\left.\begin{matrix}y+2=0\\ x+y-1=0\end{matrix}\right\}$ sistemani yechamiz. $\left.\begin{matrix}y=-2\\ x=3\end{matrix}\right\}$

$\left.\begin{matrix}y=u-2\\ x=v+3\end{matrix}\right\}$ almashtirish olamiz. u holda $\frac{dy}{dx}=\frac{du}{dv}$

$\frac{du}{dv}=2(\frac{u-2+2}{v+3+u-2-1})^2=2(\frac{u}{v+u})^2=2(\frac{\frac{u}{v}}{1+\frac{u}{v}})^2$

$\frac{u}{v}=z\ u=zv\ u'=z'v+z$

$z'v+z=2(\frac{z}{1+z})^2$ oxirgi tenglamani integrallab $\ln z+2arctgz+\ln v=\ln C$

$zve^{2arctgz}=C$ yoki $ue^{2arctg\frac{u}{v}}=C$ va nihoyat x va y ga qaytib $(y+2)e^{2arctg\frac{y+2}{x-3}}=C$.

4. y'=f(x,y) tenglamada $y=z^m$ almashtirish olamiz. U holda $y'=mz^{m-1}z'$. Bundan

$mz^{m-1}z' = f(x, z^m)$ (9) tenglama hosil bo'ladi. Agar (9) tenglama m ning biron qiymatida bir jinsli tenglama bo'lsa, u holda bu almashtirish o'rinli bo'ladi.

Misol: $2xy' + y = y^2\sqrt{x - x^2y^2}$

Yechish: y=z^m almashtirish olamiz. U holda $y' = mz^{m-1}z'$. Tenglamaga qo'yib $2x \cdot mz^{m-1}z' + z^m = z^{2m}\sqrt{x - x^2y^{2m}}$. Malumki, bu tenglama bir jinsli bo'lishi uchun x va y ga nisbatan ko'phadlarning darajalari teng bo'lishi kerak:

$$1 + m - 1 = m = 2m + \frac{1}{2} = 2m + 1 + m$$

x z^{m-1} z^m z$^{2m}\sqrt{x}$ z$^{2m}\sqrt{x^2z^{2m}}$

$$\left.\begin{aligned} m &= 2m + \frac{1}{2} \\ m &= 3m + 1 \end{aligned}\right\} \text{ bundan m=-1/2}$$

Demak, $y = z^{-\frac{1}{2}}$ almashtirish berilgan tenglamani bir jinsli tenglamaga keltiriladi.

$-xz^{-\frac{3}{2}}z' + z^{-\frac{1}{2}} = z^{-1}\sqrt{x - x^2z^{-1}}$ yoki $z - z' = \sqrt{zx - x^2}, z' = \frac{z}{x} - \sqrt{\frac{z}{x} - 1}$

$\frac{z}{x} = u$, $z' = u'x + u$, $u'x + u = u - \sqrt{u-1}, xu' = -\sqrt{u-1}$

$\frac{du}{\sqrt{u-1}} = -\frac{dx}{x}$ $2\sqrt{u-1} = -\ln Cx$ eski o'zgaruvchilarga qaytib: $2\sqrt{\frac{z}{x} - 1} = -\ln Cx$ yoki $2\sqrt{\frac{1}{xy^2} - 1} = -\ln Cx$

$y' = a(x)y + b(x)y^\alpha$ (*) ko'rinishidagi tenglama Bernulli tenglamasi deyiladi.

Agar $\alpha = 0$ bo'lsa (*) tenglama chiziqli, $\alpha = 1$ bo'lsa o'zgaruvchilari ajraladigan differnsial tenglamaga keladi. Demak $\alpha \neq 0$ va $\alpha \neq 1$.

(1) tenglamani $y^{-\alpha}$ ga ko'paytiramiz.

$$y^{-\alpha}y' = a(x)y^{1-\alpha} + b(x)$$

$y^{1-\alpha} = u$ almashtirish olamiz. U holda $y^{-\alpha}y' = \frac{1}{1-\alpha}u'$ (1) tenglamaga qo'yib $\frac{1}{1-\alpha}u' = a(x)u + b(x)$ chiziqli differensial tenglamaga kelamiz.

Misol: $xy^2y' = x^2 + y^3$

Yechish: $y' = \frac{y}{x} + \frac{x}{y^2}$

a(x)=1/x, b(x)=x, $\alpha = -2$

y^2 ga ko'paytirib $y^2y' = \frac{y^3}{x} + x$

y^3=u, 3y^{2}y'=u' almashtirish olib tenglamaga qo'yamiz.

$\frac{u'}{3} = \frac{u}{x} + x$ yoki $u' = \frac{3u}{x} + 3x$ chiziqli tenglamaga kelamiz.

U'=3u/x, $\frac{du}{u} = \frac{3dx}{x}$, u=Cx^3

O’zgarmasni variatsiyalab, $u=c(x)x^3$ $u'=c'(x)x^3+3c(x)x^2$
Tenglamaga qo’yib,

$$c'(x)x^3+3c(x)x^2=\frac{3c(x)x^3}{x}+3x$$

$$c'(x)x^3=3x\ c'(x)=3x^{-2}\ c(x)=-\frac{3}{x}+C$$

$$u=cx^3-3x^2.$$

$y'=a(x)y^2+b(x)y+c(x)$ (1) tenglama Rikatti tenglamasi deyiladi, bunda $a(x)\neq 0, c(x)\neq 0.$

Agar c(x)=0 bo’lsa Bernulli tenglamasi, a(x)=0 bo’lsa chiziqli tenglama hosil bo’ladi.
Umuman olganda Rikatti tenglamasi kvadraturada integrallanmaydi. Agar Rikatti tenglamasining bitta xususiy yechimi malum bo’lsa, u kvadraturada integrallanadi.
Haqiqatdan ham $y=\varphi(x)$ (1) tenglamasining xususiy yechimi bo’lsin.

$$\varphi'(x)=a(x)\varphi^2(x)+f(x)\varphi(x)+c(x)\ (2)$$

$y=u+\varphi(x)$ almashtirish olamiz. U holda $y'=u'+\varphi'(x)$ va (1) tenglamaga qo’yib

$$u'+\varphi'(x)=a(x)(u+\varphi(x))^2+b(x)(u+\varphi(x))+c(x)=a(x)u^2+2a(x)\varphi(x)u+a(x)\varphi^2(x)+b(x)u+$$
$$+b(x)\varphi(x)+c(x)$$

Oxirgi tenglikni (2) ga asosan
$u'=a(x)u^2+2a(x)\varphi(x)u+b(x)u$ yoki $u'=a(x)u^2+[2a(x)\varphi(x)+b(x)]u$ Bernulli tenglamasiga keladi.
Misol: $y'-2xy+y^2=5-x^2$
Rikatti tenglamasining xususiy yechimini izlaymiz.
$y_1=ax+b$ $y_1'=a$
berilgan tenglamaga qo’yib

$$a-2x(ax+b)+(ax+b)^2=5-x^2$$

$$a-2ax^2-2bx+a^2x^2+2abx+b^2=5-x^2$$

$$\left.\begin{aligned}-2a+a^2&=-1\\-2b+2ab&=0\\a+b^2&=5\end{aligned}\right\}\Rightarrow\left.\begin{aligned}a&=1\\b&=2\end{aligned}\right\}\Rightarrow y_1=x+2$$

Shunday qilib, y=u+x+2 almashtirish olamiz:
$y'=u'+1$ va tenglamaga qo’yib

$$u'+1-2x(u+x+2)+(u+x+2)^2=5-x^2,$$

$$u'+1-2xu-2x^2-4x+u^2+x^2+4+2ux+4u+4x=5-x^2,\quad u'+u^2+4u=0$$

$$\frac{du}{u^2+4u}=-dx,\qquad \ln\frac{u}{u+4}=-4x+\ln C,\qquad \frac{u}{u+4}=Ce^{-4x},\qquad u=\frac{4C}{e^{4x}-C}\quad \text{va}$$

tenglamasining umumiy yechimi $y=\dfrac{4C}{e^{4x}-C}+x+2$ bo’ladi.

5- mavzu.Chiziqli differentsial tenglamalar. Yechimning xossalari. O`zgarmasni variatsiyalash usuli. Bernulli va Rikkati tenglamalari. (4 soat)

Reja:

1. Chiziqli differentsial tenglamalar.
2. Yechimning xossalari.
3. O`zgarmasni variatsiyalash usuli.
4. Bernulli tenglamasi.

5. Rikkati tenglamasi

y'=a(x)y+b(x) (1) ko'rinishidagi tenglama chiziqli differensial tenglama deyiladi, bunda $a(x) \neq 0$.
Agar (1) tenglamada b(x)=0 bo'lsa, u holda chiziqli bir jinsli tenglama deyiadi, aks holda, ya'ni $b(x) \neq 0$ bo'lsa, chiziqli bir jinslimas tenglama deyiladi.
Izoh. Chiziqli bir jinsli tenglamani bir jinsli tenglama bilan almashtirish yaramaydi.
Endi (1) tenglamani integrallash masalasiga to'xtalamiz. Dastlab (1)ga mos keluvchi chiziqli bir jinsli tenglamani qaraymiz: y'=a(x)y (2).
Bu o'zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglama, uni integrallab $\frac{dy}{dx} = a(x)y,\ \frac{dy}{y} = a(x)dx,\ \ln y = \int a(x)dx + \ln C$ yoki $y = Ce^{A(x)}, A(x) = \int a(x)dx$ (3).
Endi (3)dagi o'zgarmas sonni biror nomalum C(x) funksiya bilan almashtiramiz va uni (1) tenglamaning yechimi deb olamiz. $y = C(x)e^{A(x)}$ (4)
(4) (1)ning yechimi bo'lgani uchun uni qanoatlantirishi kerak:

$$y' = c'(x)e^{A(x)} + c(x)a(x)e^{A(x)}$$

$$c'(x)e^{A(x)} + c(x)a(x)e^{A(x)} = a(x)c(x)e^{A(x)} + b(x)$$

$$c'(x)e^{A(x)} = b(x)$$

Bundan c(x)ni topsak, $c(x) = \int b(x)e^{-A(x)}dx + C$ (5)
(5)ni (4)ga qo'yib (1)ning umumiy yechimini hosil qilamiz.

$$y = [\int b(x)e^{-A(x)}dx + C]e^{A(x)}, A(x) = \int a(x)dx \qquad (6).$$

Yuqorida bayon qilingan bu usul o'zgarmasni variatsiyalash usuli deyiladi.
Misol: $x^2y' + xy + 1 = 0$
Yechish: $y' + \frac{y}{x} + \frac{1}{x^2} = 0$
a(x)=-1/x, b(x)=-1/x^2
umuman olganda (6) formuladagi bu qiymatlarni qo'yib umumiy yechimni yozish mumkin. Lekin biz tenglamani o'zgarmasni variatsiyalash usulini qo'llab integrallaymiz. Dastlab mos chiziqli bir jinsli tenglamani integrallaymiz.

$$y' + \frac{y}{x} = 0 \quad \frac{dy}{dx} = -\frac{y}{x} \quad y = \frac{C}{x}$$

Endi o'zgarmasni variatsiyalaymiz.

$$y = \frac{C(x)}{x}(*),\ y' = \frac{C'(x)}{x} - \frac{C(x)}{x^2}$$

Berilgan tenglamaga qo'yib

$$\frac{c'(x)}{x} - \frac{c(x)}{x^2} + \frac{c(x)}{x^2} + \frac{1}{x^2} = 0$$

$$\frac{c'(x)}{x} + \frac{1}{x^2} = 0 \text{ yoki } c'(x) = -\frac{1}{x}$$

$$c(x) = C - \ln|x|$$

Buni (*)ga qo'yib berilgan tenglamaning umumiy yechimini yozamiz.

$$y = \frac{c - \ln|x|}{x} \quad \text{yoki} \quad xy = C - \ln|x|.$$

O'rniga qo'yish usuli. (1) tenglamada $y = uv$ deb o'zgaruvchini o'zgartiramiz. Bu bilan u o'rniga izlayotgan yangi o'zgaruvchi, masalan u ni kiritgan bo'lamiz. SHu sababli ikkinchi o’zgaruvchi v ni yordamchi o’zgaruvchi deb qarab uni uz hohishimizga qarab tanlashimiz mumkin. Kelgusida shunday qilinadi xam.

$\frac{dy}{dx}$ ni hisoblab, y va $\frac{dy}{dx}$ ning u va v orqali ifodalarni (1) tenglamaga keltirib ko’yamiz:

$$\frac{dy}{dx} = v\frac{du}{dx} + u\frac{dv}{dx}$$

bo’lgani uchun, tenglama ushbu ko’rinishga keldi:

$$v\frac{du}{dx} + u\frac{dv}{dx} = a(x)uv + b(x).\ uv' = (a(x) - u')v + b(x) \quad (2)$$

Yordamchi o’zgaruvchi v ni ixtiyoriy tanlash mumkinligidan foydalanib, uni o’rta qavs ichidagi ifoda nolga aylanadigan qilib olamiz, ya`ni

$$a(x)u + u' = 0 \quad (3)$$

bo’lishini talab qilamiz.

Bu o’zgaruvchilari o’zgaradigan tenglama. Uning ikkala qismini v ga bo’lib va dx ga ko’paytirib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\frac{du}{u} = a(x)dx,$$

bu yerdan integrallab quyidagini topamiz:

$$u = e^{\int a(x)dx} \quad (4)$$

v ning bu ifodasini (2) tenglamaga ko’rsak, u uchun o’zgaruvchilari ajraladigan tenglamani hosil qilamiz:

$$v' = b(x)e^{-\int a(x)dx} \quad (5)$$

Bu tenglamadan *v* topsak

$$v = \int b(x)e^{-\int a(x)dx} + C \quad (6)$$

(6) va (4) formulalar u va v ning x orqali ifodasini beradi, u ning x ga bog’lanishini topishimiz kerakligidan va u=uv bo’lgani uchun (1) chiziqli tenglamaning umumiy ychimi quyidagi ko’rinishda yoziladi:

$$y = uv = [\int b(x)e^{-\int a(x)dx} + C]e^{\int a(x)dx} \quad (7)$$

(3) tenglamani integrallashdan hosil bo’lgan ixtiyoriy S o’zgarmas u va v ko’paytirishga qistarib ketganini qayd qilib o’tamiz. Shunday bo’lishi xam kerak edi, chunki birinchi tartibli tenglamaning umumiy yechimi faqat bitta ixtiyoriy o’zgarmasga ega bo’lishi kerak. Buni oldindan bilgan holda (4) yechimda oldindan S=1 deb olish va (3) tenglamaning yechimi o’rniga $u = e^{\int a(x)dx}$ xususiy yechimini olish mumkin edi, amalda odatda ana shunday qilinadi.

Bu yerda ko’rib chiqilgan o’rniga qo’yish usilii bitta (1) chiziqli tenglamani integral masalini o’zgaruvchilari ajraladigan ikkita (3) va (5) tengamalarning yechimini izlashga olib keladi.

Masalan , o’rniga qo’yish usilii yordamida

$y' - ay = e^{bx}$

chiziqli tenglamaning yechimini topaylik. $y = uv$ deylik: u holda $y' = vu' + uv'$ va tenglama

$$vu + u(v' - av) = e^{bx}$$

ko’rinishga keladi. $v' - av = 0$ bo’lishini talab qilamiz. O’zgaruvchilarni ajratib, $\frac{dv}{v} - adx = 0$ ni hosil qilamiz, bu yerda $v = Ce^{ax}$

Yukorida aytib o’tilganidek, $v = e^{ax}$ xususiy yechimi bilan cheklanish mumkin. v ning ifodasini almashtirilgan tenglamaga qo’yamiz: $e^{ax}u' = e^{bx}$ yoki $du = e^{(b-a)x}dx$ bu yerdan: agar $b \neq a$ bo’lsa, $v = \frac{1}{b-a}e^{(b-a)x} + C, b = a$ bo’lsa, $u = x + C$. Ma`lumki , u holda umumiy yechim $b \neq a$ bo’lganda $y = \frac{e^{bx}}{b-a} + Ce^{ax}, b = a$ bo’lganda esa $y = (x + C)e^{ax}$ ko’rinishda hosil bo’ladi.

6- mavzu.To`la differentsial tenglamalar. Integrallovchi ko`paytuvchi va uning mavjudligi haqidagi teoremalar (2 soat)

1-ma`ruza (2 soat)

Reja:

1.To`la differentsial tenglamalar.

2.Integrallovchi ko`paytuvchi va uning mavjudligi haqidagi teoremalar

9-Tarif Agar

$$P(x,y)dx+Q(x,y)dy=0 \qquad (1)$$

tenglamaning chap tomoni birorta $u(x,y)$-ikki o’zgaruvchili funksiyaning to’liq differensiali bo’lsa, bu tenglamaga to’la differinsial tenglama deyiladi. U holda bu tenglamani

$$du(x,y)=0$$

ko’rinshda yozish mumkin.

Oxirgi ifodani integrallab, umumiy integralni hosil qilamiz:

$$u(x,y)=C$$

1-Teorema. Ushbu

$$P(x,y)dx+Q(x,y)dy$$

ifoda birorta $u(x,y)$ funksiyaning to’liq differensiali bo’lishi uchun qaralayotgan sohaning barcha nuqtalarida

$$\frac{\partial P}{\partial y} = \frac{\partial Q}{\partial x} \qquad (2)$$

shart bajarishi zarur va yetarlidir.

6-Misol.

$\frac{2x}{y^3}dx + \frac{y^2 - 3x^2}{y^4}dy = 0$ tenglamaning umumiy integrali topilsin.

Yechish: Bu misolda $P(x,y)=\frac{2x}{y^3}$, $Q(x,y)=\frac{y^2-3x^2}{y^4}$.

Bundan ko'rinadiki

$$\frac{\partial u}{\partial x}=P=\frac{2x}{y^3}\quad \frac{\partial u}{\partial y}=Q=\frac{y^2-3x^2}{y^4}$$

$y\neq 0$ shartda

$$\frac{\partial p}{\partial y}=-\frac{\delta x}{y^4}\qquad \frac{\partial Q}{\partial x}=-\frac{\delta x}{y^4}$$

Demak, (23) shart bajarildi. Berilgan tenglamaning chap qismi qandaydir *u(x,y)* funksiyaning to'liq differensialini ifodalar ekan. Shu funksiyani aniqlaymiz.

$\frac{\partial u}{\partial x}=\frac{2x}{y^3}$ ifodadan:

$$u(x,y)=\int\frac{2x\,dx}{y^3}+\varphi(y),\ \ u(x,y)=\frac{x^2}{y^3}+\varphi(y).$$

Bu munosabatni y bo'yicha differensiyallaymiz:

$$\frac{\partial u}{\partial y}=-\frac{3x^2}{y^4}+\varphi'(y)$$

Endi $\frac{\partial u}{\partial y}=\frac{y^2-3x^2}{y^4}$ ni hisobga olganda:

$$\frac{y^2-3x^2}{y^4}=-\frac{3x^2}{y^4}+\varphi'(y)$$

$$\frac{y^2}{y^4}-\frac{3x^2}{y^4}=-\frac{3x^2}{y^4}+\varphi'(y)\text{ dan}$$

$$\varphi'(y)=\frac{1}{y^2}\text{ hosil bo'ladi,}$$

yoki

$$\frac{d\varphi}{dy}=\frac{1}{y^2}.$$

bundan $\varphi'(y)=-\frac{1}{y}+C$

U holda $u(x,y)=\frac{x^2}{y^3}-\frac{1}{y}+C$

Tenglamaning umumiy integrali: $\frac{x^2}{y^3}-\frac{1}{y}=C_1$.

Integrallovchi ko`paytuvchi

Agar

$$P(x,y)dx+Q(x,y)dy=0 \tag{1}$$

tenglama uchun

$$\frac{\partial P}{\partial y}=\frac{\partial Q}{\partial x} \tag{2}$$

shart bajarilmagan bo'lsa, uning chap qismi biror funksiyanig to'liq differensiali bo'laolmaydi. Bunday holatlarga ba'zan (22) tenglamani $\mu(x,y)$ funksiyaga ko'paytirish bilan uni to'la differensialli tenglamaga keltirish mumkin bo'ladi. Bunday holda $\mu(x,y)$ funksiyaga (22) tenglamaning integrallovchi ko'paytuvchisi deyiladi. Integral ko'paytuvchini qanday aniqlashni ko'rsatamiz. Buning uchun (22) ni $\mu(x,y)$ ga ko'paytiramiz:

$$\mu\ P(x,y)dx+\mu Q(x,y)dy=0.$$

Bu tenglama to'la differensialli tenglama bo'lishi uchun

$$\frac{\partial(\mu P)}{\partial y}=\frac{\partial(\mu Q)}{\partial x}$$

shart bajarilishi zarur va yetarlidir.
Ya'ni

$$Q\frac{\partial\mu}{\partial x}-P\frac{\partial\mu}{\partial y}=\mu\left(\frac{\partial P}{\partial y}-\frac{\partial Q}{\partial x}\right) \tag{24}$$

$\mu(x,y)$ ni topish uchun xususiy hosilali (24) differensial tenglamani integrallash kerak.

Oxirgi tenglamaning ikkala qismini μ ga bo'lamiz:

$$Q\frac{\partial\ln\mu}{\partial x}-P\frac{\partial\ln\mu}{\partial y}=\frac{\partial P}{\partial y}-\frac{\partial Q}{\partial x} \tag{25}$$

Ravshanki, bu tenglamani qanoatlantiradigan funksiya $\mu(x,y)$ (22) tenglamaning integrallovchi ko'paytuvchisi bo'ladi.

Umumiy holda (25) tenglamadan $\mu(x,y)$ ni topish oddiy differensial tenglamani integrallashdan qiyinroqdir. Shu sababli xususiy holni, ya'ni μ funksiya faqat x yoki y o'zgaruvchiga bog'liq bo'lgan holini qaraymiz.

Masalan, (22) tenglama faqat y ga bog'liq integral ko'paytuvchiga ega bo'lsin. Bu holda (25) da

$$\frac{\partial\ln\mu}{\partial x}=0$$

ekanligini hisobga olib,

$$\frac{\partial\ln\mu}{\partial y}=\frac{1}{P}\left(\frac{\partial Q}{\partial x}-\frac{\partial P}{\partial y}\right)$$

ni hosil qilamiz.

Bundan

$$\ln\mu=\int\frac{1}{P}\left(\frac{\partial Q}{\partial x}-\frac{\partial P}{\partial y}\right)dy+C$$

yoki

$$\mu(y)=\exp\left[\int\frac{1}{P}\left(\frac{\partial Q}{\partial x}-\frac{\partial P}{\partial y}\right)dy+C\right]$$

<u>7-Misol.</u>

$$(y+xy^2)dx-xdy=0$$

tenglama yechilsin.

<u>Yechish:</u> Bu yerda

$$P(x,y)=y+xy^2,\ Q(x,y)=-x,$$

$$\frac{\partial P}{\partial y}=1+2xy,\quad \frac{\partial Q}{\partial x}=-1.$$

Ko'rinibturibdiki $\dfrac{\partial p}{\partial y}\neq\dfrac{\partial Q}{\partial x}.$

Demak, tenglamato'la differensiallitenglama emas. Butenglamafaqatyga bog'liqintegralko'paytuvchiga egaliginiko'rsatamiz.

$$\frac{1}{p}\left(\frac{\partial Q}{\partial x}-\frac{\partial P}{\partial y}\right)=\frac{-1-1-2xy}{y+xy^2}=-\frac{2}{y}$$

bo'lgani uchun

$$\frac{\partial \ln \mu}{\partial y}=-\frac{2}{y}$$

bo'ladi. Bundan

$$\ln \mu=-2\ln y$$

$$\mu(y)=\frac{1}{y^2}\quad .$$

Endi berilgan tenglamani topilgan integral ko'paytuvchi $\mu(y)=\frac{1}{y^2}$ ga ko'paytirsak:

$$\left(\frac{1}{y}+x\right)dx-\frac{x}{y^2}dx=0$$

to'la differensialli tenglama hosil bo'ladi.

Haqiqatan ham

$$\frac{\partial P}{\partial y}=-\frac{1}{y^2},\qquad \frac{\partial Q}{\partial x}=-\frac{1}{y^2}$$

bu yerda

$$P(x,y)=\frac{1}{y}+x\qquad Q(x,y)=-\frac{x}{y^2}$$

Oxirgi tenglamani yechib, uning umumiy integralini topamiz:

$$\frac{x}{y}+\frac{x^2}{2}+C=0$$

yoki

$$y=-\frac{2x}{x^2+2C}.$$

Yuqorida biz $\dfrac{\frac{\partial Q}{\partial x}-\frac{\partial P}{\partial y}}{P}$ ifoda *x* ga bog'liq bo'lmagan holdagina *y* ga bog'liq $\mu(y)$ integrallovchi ko'paytuvchi topish usulini ko'rsatdik.

Xuddi shunday usul bilan agar $\dfrac{\frac{\partial Q}{\partial x}-\frac{\partial P}{\partial y}}{P}$ ifoda *y* ga bog'liq bo'lmasdan faqat x ning funksiyasidan iborat bo'lsa, u holda faqat *x* ga bog'liq bo'lgan integrallovchi ko'paytuvchi topish mumkinligini ta'kidlaymiz.

8- mavzu.Hosilaga nisbatan yechilmagan birinchi tartibli differentsial tenglamalar va ularni integrallash usullari. Mavjudlik va yagonalik teoremasi. (2 soat)

Reja:

1. Hosilaga nisbatan yechilmagan birinchi tartibli differentsial tenglamalar va ularni integrallash usullari.
2. Mavjudlik va yagonalik teoremasi.

.

Hosilaga nisbatan yechilmagan 1- tartibli oddiy differensial tenglamalar ushbu

$$F(x,y,y')=0\,(1)$$

ko'rinishda yoziladi. Bu yerda F uch nargumentli funksiya bo'lib, uch o'lchovli fazoning ochiq D_3 to'plamida (D_3 sohaga) aniqlangan. Agar bu to'plamni R^2 tekisligiga ortogonal proeksiyalasak, R^2 ga biror ochiq Gto'plam (G soha) hosil bo'ladi.

Tarif 4. (1) differensial tenglama berilgan bo'lib, $F(x,y,y')=0$ funksiya R^3 fazoning D_3 sohasida aniqlangan bo'lsin.

Agar I (ochiq,yopiq va yoki yarim ochiq) intervalda aniqlangan (x) funksiya uchun quyidagi uchta shart

$$\left.\begin{array}{l} 1^\circ\ (\mathrm{x},\varphi(\mathrm{x}))\in\Gamma,\mathrm{x}\in\mathrm{I},(\mathrm{x},\varphi(\mathrm{x})),\varphi`(x)\in D_3,\Gamma\subset\mathrm{R}^2\ \ D_3\subset\mathrm{R}^3 \\ 2^\circ\ \ \varphi(x)\in\mathrm{C}^1(\mathrm{I}) \\ 3^\circ\ \ \mathrm{F}(\mathrm{x},\varphi(x)),\ \varphi`(x)\equiv 0,\mathrm{x}\in\mathrm{I} \end{array}\right\}$$

bajarilsa, bu funksiya I intervalda (1) differensial tenglamaning yechimi deyiladi. (1) tenglamaning yechimiga mos egri chiziq, uning integral egri chizig'i deyiladi.

Agar parametrik ko'rinishda berilgan $x=x(t),\ \mathrm{y}=y(t),\ \ \mathrm{t}\in\mathrm{I_t}$ ($\mathrm{I_t}$ parametr t ning o'zgarish sohasi yopiq ochiq, yarim ochiq intervaldan iborat) funksiya uchun $x'(t)\neq 0,\ \ t\in I_t$ bo'lib, quyidagi uchta shart

$$1^\circ\ \ (\mathrm{x}(\mathrm{t}),y(t))\in\Gamma,\ (\mathrm{x}(\mathrm{t}),y(t)),\ \frac{\mathrm{y}'(\mathrm{t})}{\mathrm{x}(\mathrm{t})}\in D_3,\quad t\in I_t$$

$$2^\circ\ \ \mathrm{y}(\mathrm{t})\in C^1(I_t),\ \ (\mathrm{x}(\mathrm{t})\in C^1(I_t));$$

$$3^\circ\ \ \mathrm{F}\left(\mathrm{x}(\mathrm{t}),y(t),\ \frac{y`(t)}{x`(t)}\right)\equiv 0,\ \ \mathrm{t}\in\mathrm{I_t}$$

bajarilsa u holda x=x(t), y=y(t) funksiya I_t intervalda (1) differensial tenglamaning yechimi deyiladi. Ba'zi hollarda yechimni shu ko'rinishida yozish yoki izlash qulay bo'ladi.

(1) differensialn tenglama uchun ham (1) differensial tenglama uchun aytilganidek yechim uch : $x=x(t),\ \mathrm{y}=y(t),\ (\ \mathrm{t}\in\mathrm{I_t});y=f(x);\ \Phi(\mathrm{x},\mathrm{y})=0$ ko'rinishdan bittasi orqali izlanadi.

(1) differensial tenglama ochiq G to'plamning har bir (x,y) nuqtasida y` ning bitta yoki bir necha qiymatlarini aniqlasin deylik. Har bir (x,y) nuqtada y` dan foydalanib, bitta yoki bir necha birlik vector chizamiz. Natijada yo'nalishlar maydoni hosil bo'ladi.

Umumiy yechim tushunchasini kiritishdan avval (1) tenglama uchun Koshi masalasini qo'llaymiz.

Koshi masalasi.

(1) differensial tenglamaning $y(x_0)=y_0,\ (x_0,y_0)\in\Gamma$ boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin yoki geometrik nuqtai nazardan (1) differensial tenglamaning $(x_0,y_0)\in\Gamma$ nuqtadan o'tuvchi integral chizig'i ko'rsatilsin. (1) differensial tenglama y` ga nisbatan yechimi mumkin deylik. U holda $(x_0,y_0)$ nuqtaning biror atrofida y` uchun bir necha haqiqiy qiymatlarni topamiz.

$$y`=f_k(x,y),\ \ \mathrm{k}=1,2...,\mathrm{m}\,(2)$$

Agar har bir $f_k(x,y),\ \mathrm{k}=1,2...,\mathrm{m}$ funksiya biror mavjudlik va yagonalik teoremasining shartlarini qanoatlantirsa, u holda (x_0,y_0) nuqtadan (5) differensial tenglamaning integral chizig'i o'tadi. Ba'zan $f_{k_1}, f_{k_2}, .., f_{k_{2n}}$ $\left(f_{k_{2n}} \le M\right)$ funksiyalar kompleks bo'lsa , u holda biz faqat $f_{k_{2n+1}}, ..., f_n$ holda $\left(x_0, y_0\right)$ nuqtadan tegishli differensial tenglamaning m-k_{2n} ta integral chizig'i o'tadi.

Agar (5) differensial tenglamaning haqiqiy $f_1(x,y), .., f_k(x,y)$ $(\mathrm{k} \le \mathrm{m})$ funksiyalarga mos kelgan va $\left(x_0, y_0\right)$ nuqtada uning integral chiziqlariga o'tkazilgan urunmalar turli burchak koeffisiientlariga ega bo'lsa, uholda Koshi masalasi yagona yechimga ega deyiladi.

Tarif 5. (5) differensial tenglama $\left(x_0, y_0\right)$ nuqtaning biror atrofida y` ga nisbatan yechilishi mumkin , ya'ni (7) tenglamalarga ajraladi deylik.

Agar har bir (7) tenglama

$$y = f_k(x,c), \ \mathrm{k} = 1,2..., \mathrm{m} \ (3)$$

umumiy yechimga yoki $\Phi_k(x,y) = c, \ \ \mathrm{k} = 1,2..., \mathrm{m}$ c- ixtiyoriy o'zgarmas (3) umumiy integralga ega bo'lsa, u holda (7) umumiy yechimlar to'plami berilgan (1) differensial tenglamaning umumiy yechimi deyiladi.

Tarif 6. Agar (1) tenglamaning biror I intervalda aniqlangan $y = \varphi(x)$ yechimning har bir nuqtasida Koshi masalasi yechimga ega bo'lsa, u holda $y = \varphi(x) \ x \in I$ yechim berilgan tenglamaning xususiy yechimi deyiladi.

Yuqoridagi tariflar munosabati bilan maxsus yechim tushunchasini kiritish lozim bo'ladi.

Tarif 7. Agar $y = \varphi(x)$ funksiya biror I intervalda (5) differensial tenglamaning yechimi bo'lib, uning har bir nuqtasida yagona yechimga ega (yagonalik xossaga ega) bo'lmasa, yani uning har bir nuqtasidan bir xil yo'nalishda kamida ikkita integral chiziq o'tsa , u holda $y = \varphi(x)$ funksiya (1) tenglamaning o'sha intervalda aniqlangan maxsus yechimi deyiladi.

Misol . $(y`)^3 = y^2, D_3 = \{(x,y,y`): -\infty < x < +\infty, \ -\infty < y < +\infty, \ 0 \le y` < +\infty\}$ differensial tenglamani $y` = y^{2/3}$ ko'rinishda yozish mumkin.

Ma'lumki, obsissa o'qi (ya'ni y=0 chiziq) va $y = \dfrac{(x+1)^3}{27}$ kubik parabolalar bu tenglama uchun integral chiziq bo'lib xizmat qiladi. Ammo y=0 chiziqning har bir nuqtasidan kamida ikkita integral chiziq o'tadi. Shuning uchun y=0 maxsus yechimdir.

Teorema 4. Agar
$F(x,y,y`) = 0 \ (1)$

Differensial tenglamada $F(x,y,y`)$ funksiya uchun ushbu ikki shart.

1^0 $F(x,y_0,y`) = 0 \ (2)$

Tenglamaning haqiqiy ildizi , $y_0^`$ uchun $\left(x, y_0, y_0^`\right) \in D_3\left(\left(x_0, y_0\right) \in \Gamma\right)$ nuqtaning biror yopiq D_3 atrofida $F(x,y,y`)$ funksiya uzluksiz va birinchi tartibli xususiy hosilalarga ega.

$2^0 F_y^`\left(x_0, y_0, y_0`\right) \ne 0$ bajardi u holda, shunday h>0 mavjud bo'ladiki, (1) tenglamaning $|x - x_0| \le h$ intervalda aniqlangan $y(x_0) = y, \ \mathrm{y}`(\mathrm{x}) = y_0^`$ shartlarini qanoatlantiruvchi yagona y=y(x) yechimi mavjud.

Isbot. Oshkormas funksiyalar haqidagi ma'lum teoremaga ko'ra (1) tenglama y` ni bir qiymatli funksuiya sifatida aniqlaydi, ya'ni

$\frac{dy}{dx} = f(x,y)$(3)
Bunda f(x,y) funksiya yopiq $\bar{\Gamma}_0(\bar{\Gamma}_0 \subset \Gamma)$ to'plamda uzluksiz, 1-tartibli uzluksiz hosilaga ega va $f(x_0, y_0) = y_0^{`}$; $(x_0, y_0) \in \bar{\Gamma}_0$ shuning uchun f(x,y) funksiya yopiq $\bar{\Gamma}_0$ to'plamda y bo'yicha Lipshist shartini qanoatlantiradi demak (3) differensial tenglama Pikar teoremasiga asosan $|x - x_0| \le h$ intervalda aniqlangan va yagona y=y(x) yechimga ega bo'lib , $y(x_0) = y_0$ bo'ladi. Xuddi shu yechimga (3) tenglama ham ega. Endi $y^{`}(x_0) = y_0^{`}$ ekanini ko'rsataylik. Haqiqatdan (3) tenglama y=y(x) uchun ayniyatga aylanadi.

$\frac{dy(x)}{dx} = f(x, y(x))$, $|x - x_0| \le h$ agar $x=x_0$ bo'lsa $y^{`}(x_0) = f(x_0, y(x_0)) = f(x_0, y_0) = y^{`}$

Natija 1. teorema shartiga ko'ra $(x_0, y_0 y_i^{`})$ nuqtaning $\bar{D}_3^0$ atrofida $\frac{\partial F(x, y, y^{`})}{\partial y^{`}} \ne 0$, $\left|\frac{\partial F(x, y, y^{`})}{\partial y^{`}}\right| \le A$, $0 < A = \text{const}$

Natija 2. agar (1) tenglama bir necha haqiqiy ildizga ega bo'lsa, har bir $(x_0, y_0 y_i^{`})$ nuqtaning yopiq $\bar{D}_3^0$ atrofida (19)tenglama y` ni bir qiymatli aniqlaydi, y`=f_i(x,y). shu bilan birga har bir $i(i = 1, \overline{m})$ uchun tegishli differensial tenlama $(x_0, y_0) \in \bar{\Gamma}_0$ nuqtadan o'yuvchi yagona integralchiziqqa ega. Boshqacha aytganda, (x_0,y_0) nuqtadan m ta yo'nalish bo'yicha faqat m ta integral chiziq o'tadi.

Agar (x_0,y_0) nuqtada Koshi masalasi yagona yechimga ega bo'lsa u nuqtaga oddiy nuqta deyiladi bu nuqtaga mos yechim oddiy yechim, integral chiziqnio oddiy integral chiziq deyiladi.

Agar (x_0,y_0) nuqtada Koshi masalasi uchun yagonalik o'rinli bo'lmnasa u holda bu nuqta (2) tenglamaning maxsus nuqtasi deyiladi hamda uning girafigi maxsus integral chiziq deyiladi. Demak, $(x_0, y_0 y_0^{`})$ nuqtaning yetarli kichik yopiq atrofida teoremaning biror sharti buzilganda maxsus nuqtaga bo'lishimiz mumkin. Bu teorema faqat yetarli shartni belgilagani uchun
$(x_0, y_0 y_0^{`})$ nuqta aytilgan holda maxsus bo'lishi ham bo'lmasli ham mumkin .

Ushbu malakaviy bitiruv ishda ko'rilayotgan masala shundan iboratki berilgan tenglama uchun umumiy yechim bilan bir qatorda maxsus yechimlarni ham izlash, maxsus nuqtalarni topishning ratsional yo'nalishlarini ko'satishdan iborat, bundan tashqari yechimlar to'plami maxsus nuqtalar atrofida qanday joylashadi, ularning grafik tasviri qanday bo'ladi. Shu kabi masalalarni atroflicha o'rganamiz.

9- mavzu. Maxsus yechimlar va ularning mavjudligi. (2 soat)
1-ma`ruza (2 soat)

Reja:

1. Maxsus yechimlar va ularning mavjudligi.
2. Hosilaga nisbatan echilgan tenglamalarning maxsus echimlari
3. Hosilaga nisbatan echilmagan tenglamalarning maxsus echimlari

Biz birinchi tartibli differensial tenglamaning maxsus yechimlarini izlash usullariga to'xtalamiz.

$\frac{dy}{dx} = f(x,y)$ (1) tenglamaning o'ng tomonidagi funksiya biror soxada uzluksiz va u bo'yicha chegaralangan xususiy hosilaga ega bo'lsa, u holda shu soxaning har bir $(x_\circ, y_\circ)$

nuqtasida yagona integral chiziq o'tadi. Bu chiziqlar bir parametrli (y_0 ni parametr deb qabul qilamiz) chiziqlar oilasiga mansub bo'lib parametr biror aniq son qiymatga ega bo'lganda shu oilada hosil qilinadi. Bu bir parametrli chiziqlar oilasi umumiy yechimni beradi. Bunda boshqa yechimlar, xususan, maxsus yechimlar ham bo'lmaydi.

Ma`lumki, maxsus yechimlar deb, har bir nuqtasida yechimning yagonaligi buziladigan nuqtalarga aytiladi, ya`ni hamma nuqtalarida yagonalik xossasi bajarilmaydi. Koshi teoremasi biror soxada maxsus yechimning yo'qligini yetarli shartini beradi. Bundan kelib chiqib, maxsus yechim mavjud bo'lishi uchun Koshi teoremasi shartlari bajarilmasligi kerak. Xususan (1) tenglamaning o'ng tomoni qaralayotgan soxada uzluksiz bo'lsa, maxsus yechim faqat LipShits sharti bilan bajarilmaydigan nuqtalardan o'tishi kerak. Agar $f(x,y)$ barcha nuqtalarda chekli yoki cheksiz u bo'yicha hosilaga ega bo'lsa, Lipshits sharti $\frac{df}{dy}=\infty$ (2) bo'ladigan nuqtalarda bajarilmaydi. Shunday qilib biz hosilaga nisbatan yechiladigan 1–tartibli differensial tenglamaning maxsus yechimlarini topish uchun quyidagi qoidani keltiramiz:

1) (2) tenglamani qanoatlantiradigan nuqtalarni o'rnini topish;

2) agar bu nuqtalar bir yoki bir necha egri chiziqlarning (1) tenglamaning integral chizig'i bo'lish yoki bo'lmasligini tekshiramiz;

3) bu chiziqlarning har bir nuqtasida yagonalikning buzilishini tekshiramiz, agar bu shartlar bajarilsa, demak, hosil bo'lgan egri chiziqlar maxsus yechimlar bo'ladi.

Misol 1.

$$\frac{dy}{dx}=\sqrt[3]{(x-y)^2+1}$$ tenglama maxsus yechimga egami?

Echish:

Tenglamaning o'ng tomoni R^2 da uzluksiz, lekin

$$\frac{df}{dy}=\frac{2}{3}(y-x)^{-\frac{1}{3}}$$

Xususiy hosila $y\to x$ da chegaralanmagan. Demak, $y=x$ to'g'ri chiziqda yechimning yagonaligi buzilishi mumkin. Ammo bu tenglama uchun $y=x$ funksiya yechim ekani ravshan. Demak, $y=x$ maxsus egri chiziq. Berilgan tenglamaning umumiy yechimini topamiz.

$$y-x=\frac{(x-c)^3}{27}$$ egri chiziqlar oilasidan iborat.

$y=x$ ning har bir nuqtasidan cheksiz ko'p integral to'g'ri chiziq o'tishi ko'rinib turibdi.

Demak, $y=x$ chiziqning har bir nuqtasida yagonalik buziladi. Shuning uchun $y=x$ chiziq berilgan differensial tenglamaning maxsus yechimi bo'ladi.

Ma`lumki, umumiy yechim maxsus yechimni o'z ichiga olmaydi, ya`ni S ning har qanday qiymatida ham maxsus yechimni hosil qilib bo'lmaydi. Yo'qoridagi misoldan ko'rinib turibdiki $x=c$ bo'lganda maxsus yechimni hosil qilamiz, ya`ni S parametr ekanligidan har bir xususiy yechimning $x=c$ nuqtasida yagonalik buziladi va ko'rinib turibdiki, $y=x$ to'g'ri chiziqning har bir nuqtasiga to'g'ri keladi. shuning uchun $y=x$ chiziq berilgan differensial tenglamaning maxsus yechimi bo'ladi. chizmasi 1 – rasmdagi ko'rinishda bo'ladi.

II. Hosilaga nisbatan yechilmagan differensial tenglamalarning maxsus yechimlarini izlaymiz.

$$F(x,y,\ y')=0 \qquad (3)$$

Agar bu tenglamani y' ga nisbatan yechsak

$$y_i = f_i\ (x, y) \quad (i = 1,2,........, n) \qquad (4)$$

hosil bo'ladi va bu funksiyalarda faqat haqiqiy tenglamalarnigina qaraymiz. Bu tenglamalar uchun LipShits sharti qanday bajariladi.

$$\frac{df}{dy} = -\frac{\frac{df}{dy}}{\frac{df}{dy'}} \qquad (5)$$

Bu tenglamadan ko'rinib turibdiki, (2) tenglik bajarilishi uchun

$$\frac{df(x, y, y')}{dy'} = 0 \qquad (6)$$

Bo'lishi kerak. Bunda differensiallashni bajargandan keyin chap tomonda y' ning o'rniga (3) tenglama bilan aniqlanadigan $f_i\ (x, y)$ funksiyadan birortasini olish kerak. Boshqacha qilib aytganda LipShits sharti bajarilmaydigan XOY tekislikdagi nuqtalarning urinmaning geometrik tenglamasi hosil qilish uchun (3) va (6) tenglamalarda y' ni yo'qotish kerak. Oliy algebrada ikkita algebraik tenglamada batta o'zgaruvchini ratsional amallar bilan yo'qotish usuli bu tenglamalarning rezul'tantasini topish keltiriladi. (3) va (6) tenglamalardan y' ni yo'qotib, $F(x, y,) = 0$ (7) ko'rinishidagi chiziqlarni hosil qilamiz. Bu chiziqlar (1) tenglamaning diskriminant chiziqlari deyiladi.

Shunday qilib, biz (3) tenglamaning maxsus yechimlarini topish uchun quyidagi qoidani keltiramiz.

1) (3) va (6) tenglamalardan y' ni yo'qotib, (7) chiziqlarni hosil qilamiz;

2) agar bu chiziqlar (3) tenglamani qanoatlantirsa, u holda bu chiziq maxsus yechim bo'ladi.

Misol 2.

$$x - y = \frac{4}{9} p^2 - \frac{8}{27} p^3$$

Bu tenglamaning umumiy integrali $P = y'\ (y - c) = (x - c)^3$. Diskriminant chiziqlari hosil qilish uchun P bo'yicha differensiallab $\frac{8}{9} = \left(P - P^2\right) = 0$ hosil qilamiz.

Bundan $P = 0$, $\quad P = 1$ hosil bo'ladi. Berilgan tenglama qo'yib

1) $x - y = 0$

2) $x - y = \frac{4}{27}$

diskriminant chiziqlrani hosil qilamiz.

Tenglamaning umumiy integrali yarim kubik parabolalar oilasidan iborat. (2 – chizma) $x - y = \frac{4}{27}$ urinma to'g'ri chiziq maxsus yechim, chunki berilgan tenglamani qanoatlantiradi. $y = x$ to'g'ri chiziq esa qaytish nuqtalarining geometrik o'rni bo'lib yechim bo'la olmaydi.

Boshqa masalalarni yechishda ham yuqorida keltirilgan qoidaning 3 – punkti uchun shunga o'xshash analitik usul bilan muloxaza yuritish orqali ko'rsatish mumkin.

III. 2 – punktda keltirilgan usul algebraik operatsiyalar differensiallash va yo'qotishga asoslangan. Agar berilgan tenglama x, y, y' bo'yicha algebraik bo'lsa, u holda maxsus yechim ham algebraik bo'ladi va biz har doim tenglamani integrallay olmasak ham uni topa olamiz.

Maxsus yechimni topish quyida keltiriladigan usuli esa differensial tenglamaning umumiy integrali ma`lum bo'lganda qo'llash mumkin. (3) tenglamaning umumiy integrali

$F(x, y,\ y')=0$ (8) tenglama bilan berilgan chiziqlar oilasi urinmaga ega bo'lsa va bu urinma:

1) Differensial tenglamaning yechimi bo'lsin. Urinmaning har bir nuqtasida x, y, y' element (8) integral chiziqlar oilasining yechimi bo'lgani uchun urinmaning ham barcha elementlari bu tenglamani qanoatlantiradi.

2) Urinma maxsus yechimni beradi. Haqiqatdan integral chiziqlarning urinma bilan kesishadigan yoylaridan tuzilgan chiziqlar oilasini qaraymiz. Urinmaning har bir nuqtasining biror nuqtasidan xuddi shunday chiziq o'tadi. Bu chiziqlar (4) bilan aniqlanuvchi (3) tenglamaning biror shoxchasi maydoniga to'g'ri keladi. Bu urinmaning har bir nuqtasida yagonalik buziladi. chunki, uning har bir nuqtasidan ikkita integral chiziq o'tadi. Biri urinmaning uzi bo'lsa, ikkinchsi esa unga urinuvchi chiziqlar oilasidir. Bunday maxsus yechimni topishning quyidagi qoidasi kelib chiqadi. Agar umumiy yechim (8) ma`lum bo'lsa, urinmalarni topish uchun (8) ni S bo'yicha differensiallaymiz.

$$\frac{df(x, y, c)}{dc}=0 \qquad (9)$$

(8) va (9) tenglamalardan S ni yo'qotamiz. Hosil bo'lgan munosabat

$$4(x, y,)=0 \qquad (10)$$

maxsus yechimni beradi. (agar u yechim bo'lsa).

Izoh: Differensial geometriyadan ma`lumki, (10) tenglama nafaqat urinmani, balki (8) chiziqlar oilasi uchun karrali nuqtalarning (tugun nuqtalari, qaytish nuqtalari va xokazo) geometrik o'rnini beradi, faqat chu vaqtdagi, qachon (10) chiziq bo'ylab

$$\frac{df}{dx}=0, \qquad \frac{df}{dy}=0 \qquad (11)$$

bo'lsa.

Miso l 3.

$$y=\sqrt[3]{\frac{(y')^2}{4y}}\left(x\sqrt[3]{\frac{(y')^2}{4y}}-1\right)^2$$

differensial tenglama berilgan bo'lsin. Bu tenglama umumiy yechimi

$$y-c^3x^2+2c^2x-c=0$$

dan iborat. Demak,

$$\Phi=y-c^3x^2+2c^2x-c, \qquad \frac{d\phi}{dc}=-3c^2x^2+4cx-1=0$$

$$-3c^2x^2+4cx-1=0$$

$$3c^2x^2+4cx-1=0, \quad D=16x^2-12x^2=4x^2>0.$$

$$C_{1/2}=\frac{4x\pm 2x}{6x^2}=\frac{2\pm 1}{3x}; \qquad C_1=\frac{1}{x}, \qquad C_2=\frac{1}{3x}$$

Hosil bo'lganlardan foydalanib S ni yo'qotamiz.

1) $y-\frac{1}{x^3}\cdot x^2+2\frac{1}{x^2}\cdot x-\frac{1}{x}=0.$

$$y-\frac{1}{x}+\frac{1}{x}-\frac{1}{x}=0. \qquad y=0.$$

2) $y-\frac{1}{27x^3}\cdot x^2+\frac{2}{9x^2}-\frac{1}{3x}=0.$

tenglamalardan S ni yo'qotib $y=0$; $x\neq 0$; $y=\dfrac{7}{27x}$; $x\neq 0$ urinmalarni hosil qildik. Bu har ikki chiziq ham urinmadir. chunki,

$$\frac{d\phi}{dx}=-2c^3x+2c^2\ ,\quad \frac{d\phi}{dy}=1\neq 0.$$

Demak, bu chiziqlar differensial tenglamaning maxsus yechimlari bo'ladi.

$y=0$; $x\neq 0$; $y=\dfrac{4}{27x}$; $x\neq 0$ chiziqlardan biri obstsissa o'qi bo'lsa, ikkinchsi shoxchalari 1 va 3 – kvadratlarda joylashgan giperboladan iborat.

10- mavzu.Parametr kiritish yo`li bilan tenglamalarni integrallash. Lagranj va Klero tenglamalari.

(2 soat)

Reja:

1. Parametr kiritish yo`li bilan tenglamalarni integrallash.
2. Lagranj va Klero tenglamalari.

Hosilaga nisbatan yechilmagan

$$F(x,y,p)=0 \qquad (1)$$

differensial tenglamaning integrallashdagi asosiy masala uni hosilaga nisbatan yechishdan iboratdir. Agar x,y,p ni fazodagi dekart koordinatalari deb qarasak (1) tenglama fazoda biror sirtni aniqlaydi.

Ma`lumki, fazodagi sirt nuqtalarini ikkita u,ϑ o'zgaruvchilarini funksiyasi shaklida ifodalash mumkin:

$$\begin{cases} x=\varphi(u,\sigma) \\ y=\psi(u,\sigma) \\ p=\chi(u,\sigma) \end{cases} \qquad (2)$$

(1) va (2) tenglamalar o'zaro ekvivalentdir.

Ma`lumki

$$dy=pdx$$

Bunga dx,dy,p qiymatlarni (2) dan keltirib qo'ysak

$$\frac{\partial\psi}{\partial u}du+\frac{\partial\psi}{\partial\sigma}d\sigma=\chi(u,\sigma)\left(\frac{\partial\varphi}{\partial u}du+\frac{\partial\varphi}{\partial\sigma}d\sigma\right)$$

Agar bunda u ni argument uchun, ϑ ni funksiya uchun qabul qilsak, bu tenglamani qo'yidagicha yozish mumkin.

$$\left(\frac{\partial\psi}{\partial\sigma}-\chi\frac{\partial\varphi}{\partial\sigma}\right)\frac{d\vartheta}{du}=\chi\frac{\partial\varphi}{\partial u}-\frac{\partial\psi}{\partial u} \qquad \textit{ёки}$$

$$\frac{d\vartheta}{du}=\chi\frac{\partial\varphi}{\partial u}-\frac{\partial\psi}{\partial u}\Big/\frac{\partial\psi}{\partial u}-\chi\frac{\partial\varphi}{\partial u}$$

Bu esa hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglamadir. Faraz etaylik bu tenglamaning umumiy yechimi

$\vartheta=\omega(u,c)$ bo'lsin.

U holda (2) ga asosan (1) tenglamaning umumiy yechimi

$$\begin{cases} x=\varphi(u,\omega(u,c)) \\ y=\psi(u,\omega(u,c)) \end{cases}$$ bo'ladi.

(1) tenglamani yechishda qo'yidagi hollar bo'lishi mumkin.

1- hol. (1) tenglamani u ga nisbatan yechish osonroq bo'lsin.

$y=f(x,p)$ (4)

Bu tenglamani har ikkala tomoni x ga nisbatan differensial-laymiz.

$$\frac{dy}{dx}=\frac{df}{dx}+\frac{df}{dp}\frac{dp}{dx} \quad \text{ёки} \quad p=\frac{df}{dx}+\frac{df}{dp}\frac{dp}{dx} \qquad (5)$$

Bu tenglama, r va x ga nisbatan birinchi tartibli differensial tenglamadir.
Agar bu tenglamaning umumiy yechimi $p=\beta(x,c)$ bo'lsa, u holda

(4) tenglamaning umumiy yechimi $y=f(x,\beta(x,c))$ bo'ladi.

Misol. $y=xy'-x^2y'^3$ $\quad y'=p \quad y=xp-x^2p^3$

$$p=p-2xp^3+(x-3x^2p^2)\frac{dp}{dx} \qquad 2xp^3=x(1-3xp^2)\frac{dp}{dx} \qquad \frac{dx}{dp}+\frac{3}{2p}x=\frac{1}{2p^3}$$

$$x=\ell^{-\frac{3}{2}\ell np}\left[\int \ell^{\frac{3}{2}\ell np}\frac{1}{2p^3}dp+c\right]=p^{-\frac{3}{2}}\left[\int\frac{1}{2p^{3-\frac{3}{2}}}dp+c\right]=p^{-\frac{3}{2}}\left[-p^{-\frac{1}{2}}+c\right]=$$

$$=-p^{-2}+cp^{-\frac{3}{2}} \qquad xp^2=c\sqrt{|p|}-1$$

Agar $p=0$ bo'lsa $y=0$ ham tenglamaning yechimi bo'ladi.

2- hol. (1) tenglamani x ga nisbatan yechish osonroq bo'lsin:

$x=f(y,p)$ (5)

har ikkala tomonidan u ga nisbatan hosilasini olamiz.

$$\frac{dx}{dy}=\frac{df}{dy}+\frac{df}{dp}\frac{dp}{dy}$$

Bu r va u ga nisbatan birinchi tartibli differensial tenglamadir.
Agar bu tenglamaning umumiy yechimi $p=\alpha(y,c)$ bo'lsa,

(5) tenglamaning umumiy integrali $x=f(y,\alpha(y,c))$ bo'ladi.

Misol $\quad y'=\ell^{\frac{xy'}{y}} \qquad y'=p \qquad p=\ell^{\frac{xp}{y}} \qquad \ell np=\frac{xp}{y}$

$$x=\frac{y}{p}\ell np \quad (*) \quad \frac{1}{p}=\frac{1}{p}\ell np+\left(-\frac{y}{p^2}\ell np+\frac{y}{p^2}\right)+\frac{dp}{dy}$$

$$\frac{1}{p}(1-\ell np)=\frac{y}{p^2}(1-\ell np)\frac{dy}{dy} \qquad 1-\ell np=0 \qquad \ell np=1 \qquad p=\ell \qquad y=\ell x$$

$$1-\ell np\neq 0 \qquad \frac{1}{p}=\frac{y}{p^2}\frac{dp}{dy} \qquad \frac{dp}{p}=\frac{dy}{y} \qquad \ell np=\ell ny+\ell nc \qquad p=cy$$

$(*)$ дан $\quad xp=y\ell np \qquad xcy=y\ell ncy \qquad cx=\ell ncy$

$F(x,y,y')=0$ (1)

tenglama yechimining mavjudlik va yagonalik teoremasi

1) $F(x,y,y')$ funksiyasi (x_0, y_0, y'_0) nuqtaning yopiq atrofida o'zining barcha F'_y, F'_y xususiy hosilalari bilan birga aniqlangan va uzluksiz differensiallanuvchi bo'lsin.

2) Bu nuqtada $F(x_0, y_0, y'_0)=0$

3) $F'_{y'}(x_0, y_0, y'_0) \neq 0$

U holda (1) tenglama $x=x_0$ nuqta atrofida aniqlangan va uzluksiz differensiallanuvchi yagona $y=y(x)$ yechimga ega bo'lib, bu yechim $y(x_0)=y_0$, boshlang'ich shartni hamda $y'(x_0)=y'_0$ shartni qanoatlantiradi.

Lagranj tenglamasi

Differensiallash metodi bilan kvadraturaga keltiraladigan hosilaga nisbatan yechilmagan tenglamalardan biri Lagranj tenglamasi bo'lib, uning umumiy ko'rinishi

$A(p)y+B(p)x+C(p)=0$ (1)

bo'ladi. Bunda $A(p), B(p), C(p)$ ko'rilayotgan soxada uzluksiz funksiyalar bo'lib unda $A(p)\neq 0$ (1) tenglamadan ko'rinadikim. Lagranj tenglamasi x va u larga nisbatan chiziqli differensial tenglamadir (1) ning har ikkala tomoni $A(p)\neq 0$ ga bo'lsak,

$y=\varphi(p)x+\psi(p)$ (2)

tenglamaga ega bo'lamiz.

Bunda $$\varphi((p)=\frac{-B(p)}{A(p)}, \qquad \psi(p)=-\frac{C(p)}{A(p)}$$

(2) Lagranj tenglamasining kanonik (sodda) ko'rinishidir.

(2) tenglamani yechish uchun differensiallash usulidan foydalanamiz

$$\frac{dy}{dx}=\varphi(p)+x\varphi'(p)\frac{dp}{dx}+\psi'(p)\frac{dp}{dx}$$

$$p=\varphi(p)+(x\varphi'(p)+\psi'(p))\frac{dp}{dx} \qquad (3)$$

$$p-\varphi(p)=(x\varphi'(p)+\psi'(p))\frac{dp}{dx}$$

$p-\varphi(p)\neq 0$ bo'lmasin.

(3) tenglamada x ni funksiya r-ni argument deb qabul etsak, tenglamani

$$\frac{dx}{dp}=\frac{x\varphi'(p)+\psi'(p)}{p-\varphi(p)}=-\frac{\varphi'(p)}{\varphi(p)-p}x-\frac{\psi'(p)}{\varphi(p)-p}$$

$$\frac{dx}{dp}+\frac{\varphi'(p)}{\varphi(p)-p}x=-\frac{\psi'(p)}{\varphi(p)-p}$$

Bu esa birinchi tartibli chiziqli differensial tenglamadir.

Ma`lumki uning umumiy yechimi

$$x=\ell^{-\int\frac{\varphi'(p)}{\varphi(p)-p}dp}\left[-\int\ell^{\frac{\varphi'(p)}{\varphi(p)-p}dp}\frac{\psi'(p)}{\varphi(p)-P}dp+c\right]=c\omega(p)+\alpha(p)$$

dan iborat.

Bu topilgan qiymatni (2) ga olib borib qo'ysak Lagranj tenglamasining parametrga bog'liq bo'lgan umumiy yechimiga ega bo'lamiz.

$$\begin{cases} x = c\omega(p) + \alpha(p) \\ y = \varphi(p)\left[c\omega(p0 + \alpha(p)\right] + \psi(p) \end{cases}$$

Faraz etaylik $\varphi(p) - p = 0$ bo'lsin.

Bu tenglamaning yechimlaridan biri $p = c_0$ bo'lsin ya`ni

$\varphi(c_0) - c_0 \equiv 0.$

u holda (2) dan $y = c_0 x + \psi(c_0)$ ga ega bo'lamiz

Bu ham Lagranj tenglamasining yechimidir. Bu yechim tenglamaning maxsus yechimi bo'lishi mumkin.

Misol. $y = (1 + y')x + y^{12}$ $y = (1 + p)x + p^2$

$$\frac{dy}{dx} = 1 + p + x\frac{dp}{dx} + 2p\frac{dp}{dx} = 1 + p + (x + 2p)\frac{dp}{dx}$$

$$p = 1 + p + (x + 2p)\frac{dp}{dx} \qquad (x + 2p)\frac{dp}{dx} = -1 \qquad \frac{dx}{dp} = -(x + 2p)$$

$$\frac{dx}{dp} + x = 2p \qquad x = \ell^{-p}\left[-2\int \ell^p p dp + c\right] = \ell^{-p}\left[-2\ell^p(p-1) + c\right] =$$

$$= -2(p-1) + c\ell^{-p} \qquad (\int \ell^u du = \ell^u(u-1) + c)$$

$$\begin{cases} x = c\ell^{-p} - 2p + 2 \\ y = (1 + p)(c\ell^{-p} - 2p + 2) + p^2 \end{cases}$$

Klero tenglamasi.

Lagranj tenglamasining xususiy holi Klero tenglamasidir Lagranj tenglamasida $\varphi(p) \equiv p$ bo'lsa

$$y = px + \psi(x) \qquad (1)$$

Bu Klero tenglamasining kanonik ko'rinishidir Klero tenglamasining ham differensiallash usulidan foydalanib yechamiz.

$$\frac{dy}{dx} = p + x\frac{dp}{dx} + \psi'(p)\frac{dp}{dx} = p + (x + \psi'(p))\frac{dp}{dx}$$

$$p = p(x - \psi'(p))\frac{dp}{dx} \qquad (x + \psi'(p))\frac{dp}{dx = 0}$$

Bundan $\dfrac{dp}{dx} = 0$ va $x + \psi'(p) = 0$ $\dfrac{dp}{dx} = 0$ *дан* $p = c$ buni (1) tenglamaga qo'ysak $y = cx + \psi(c)$ Klero tenglamasining umumiy yechimiga ega bo'lamiz.

Bundan ko'rinadikim Klero tenglamasining umumiy yechimi, ixtiyoriy o'zgarmasga (parametr) bog'liq bo'lgan to'g'ri chiziqlar oilasidan iboratdir.

Endi $x + \psi'(p) = 0$ ni p ga nisbatan yechish mumkin bo'lsin.

$p = \omega(x)$

U holda (1) dan $y = x\omega(x) + \psi(\omega(x))$ (2)

ga ega bo'lamiz. Bu ham Klero tenglamasining yechimi bo'lib, u maxsus yechim bo'lishi mumkin.

Klero tenglamasining umumiy yechimini

$$\begin{cases} x = -\psi'(p) \\ y = -p\psi'(p) + \psi(p) \end{cases} \qquad (3)$$

parametr ko'rinishda ham yozish mumkin. (2) yechimni umumiy yechimdan farqi shundaki unda birinchidan o'zgarmas son qatnashmaydi. Ikkinchidan ixtiyoriy o'zgarmas sonning hech qanday qiymatida uni hosil qilib bo'lmaydi. (2) yechimga Klero tenglamasining maxsus yechimi deyiladi.
Ma`lumki maxsus yechim

$$\begin{cases} y = cx + \psi(c) \\ x + \psi'(c) = 0 \end{cases} \qquad (4)$$

tenglamalardan ixtiyoriy o'zgarmas s ni yo'qotish natijasida hosil bo'ladi. (4) ning ikkinchisi, birinchisining parametr s ga nisbatan differensiallashdan hosil bo'lgan.
Differensial geometriyadan ma`lumki bunday amallar yordamida hosil bo'lgan chiziq, bitta parametrga bog'liq bo'lgan

$$y = cx + \psi(c)$$

to'g'ri chiziqlar oilasining o'ramasidan iboratdir.
Demak geometrik nuqtai nazaridan Klero tenglamasining maxsus yechimi, uning umumiy yechimini ifodalovchi to'g'ri chiziqlar oilasini o'ramasidan iboratdir

Misol $\quad y = xy' + y'^2 \qquad y = px + p^2 \qquad y = cx + c^2$

Tenglamaning umumiy yechimi.

$$\frac{dy}{dx} = p + (x+2p)\frac{dp}{dx} \qquad p = p + (x+2p)\frac{dp}{dx} \qquad (x+2p)\frac{dp}{dx} = 0$$

$$\frac{dp}{dx} = 0 \qquad p = c \qquad x + 2p = 0 \qquad p = -\frac{x}{2}$$

$$y = -\frac{x}{2}x + \left(-\frac{x}{2}\right)^2 = -\frac{x^2}{2} + \frac{x^2}{4} = -\frac{x^2}{4}$$

11- mavzu. $n-$ tartibli differentsial tenglamalar. Yechim, umumiy yechim, Koshi masalasining qo'yilishi. (2 soat)

Reja:

1. $n-$ tartibli differentsial tenglamalar.
2. Yechim, umumiy yechim.
3. Koshi masalasining qo'yilishi.

Ushbu

$$F\left(x, y, y', \dots, y^{(n)}\right) = 0 \qquad (1)$$

ko'rinishdagi tenglama n – tartibli odddiy differensial tenglama deyiladi. Bu yerda $F\left(x, y, y^1, \dots, y^{(n)}\right) = 0$ funksiya (n + 2) o'lchovli R^{n+2} fazoning D_{n+2} sohasida aniqlangan. Ko'p hollarda (4.1) tenglama ushbu

$$y^{(n)} = f\left(x, y, y', \dots, y^{(n-1)}\right) \qquad (2)$$

ko'rinishga keltiriladi. Bu tenglama yuqori tartibli hosilaga nisbatan yechilgan yoki kanonik ko'rinishdagi n – tartibli oddiy differensial tenglama deb yuritiladi. (4.2) tenglamada $f\left(x, y, y', \dots, y^{(n-1)}\right)$ funksiya (n+1) o'lchovli $\underline{R}^{n+1}$ fazosining D_{c+1} sohasida aniqlangan.
Agar (1) va (2) da n = 1bo'lsa, birinchi tartibli oddiy differensial tenglamaga ega bo'lamiz. Bu holni 1 va 3 – boblarda ko'rganmiz. endi $n \geq 2$ bo'lsin.

1.Avval (2) differensial tenglamani chuqurroq o'rganamiz.

4.1–ta`rif. (4.2) tenglama berilgan bo'lib, $f\left(x,\ y,\ y',\ ....\ ,y^{\ (n-1)}\right)$ funksiya R^{n+1} fazoning D_{n+1} sohasida
aniqlangan bo'lsin. Agar 1 intervalda aniqlangan biror φ(x) funksiya uchun quyidagi uchta

$$\left.\begin{array}{l} 1^\circ.\ \varphi(x)\in C^n\ (1)^{\cdot} \\ 2^\circ.\left(x,\varphi(x),\varphi'\ (x),\ .....\ ,\ \varphi^{n-1}\ (x)\right)\in D_{n+1,}\ \ x\in I; \\ 3^\circ.\ \varphi^{(n)}\ (x)=f\ \left(x,\varphi(x),\ \varphi'\ (x),\ ....\ ,\ \varphi^{(n-1)}\ (x)\right),x\in I; \end{array}\right\} \qquad (3)$$

shart bajarilsa, u holda $\varphi(x)$ funksiya I intervalda (2) differensial tenglamaning yechimi deyiladi.

(2) tenglama yechimining grafigi, ya`ni $y=\varphi(x)$ funksiyaning grafigi, uning integral chizig'i deyiladi.

M i s o l l a r. 1. $y^n+n^2y=C,\ \ D_3=R^2$ tenglama uchun n = 2 bo'lib, $y=\sin\omega x,:=R^1$ funksiya uning yechimidir. Ravshanki, bu holda 4.1 – ta`rifning barcha shartlari bajariladi.

2. $y'''+3y'-2y=0,\ \ D_4=R$ 3 – tartibli differensial tenglama bo'lib, $y=e^x$ funksiya uning $-\infty<x\le+\infty$ intervalda aniqlangan yechimlar.

3. $y'=2yy'$ uchun $D_3=\underline{R}^3$ va $y=tgx$ funksiya $-\dfrac{\pi}{2}<x>\dfrac{\pi}{2}$ intervalda berilgan yechimdir.

Eslatib o'tamizki, birinchi tartibli differensial tenglamalardagi kabi yuqori tartibli differensial tenglamalarda ham yechim ba`zida oshkor $y=\varphi\ (x)$ ko'rinishda yozilsa, ba`zida oshkormas $\Phi\ (x,\ y)=0$ funksiya ko'rinishida yozilishi mumkin. Yechimni ba`zan parametrik ko'rinishda.

$x=\ x(t),\ y=\ y\ (t),\ \ t\in I_t$ (t – parametr)

izlash ham qulay bo'ladi. Biz parametrik ko'rinishda yoziladigan yechimning ta`rifini keltirib o'tirmaymiz.

4.2 – ta`rif. (4.2) differensial tenglama va $x,\ C_1,\ C_2,\ ....\ ,\ C_n$ o'zgaruvchilarning biror o'zgarish sohasida aniqlangan hamda x bo'yicha n marta uzluksiz differensiallanuvchi

$$y=\varphi\ \left(x,\ C_1,\ C_2,\ ....\ ,\ C_n\right) \qquad (4)$$

Funksiya berilgan bo'lsin. Agar ixtiyoriy $\left(x,\ y,\ y',\ ....\ ,\ y^{(n-1)}\right)\in$
$\in D_{n+1}$ nuqta uchun ushbu

$$\left.\begin{array}{l} y=\varphi\ \left(x,\ C_1,\ C_2,\ ....\ C_n\right), \\ y'=\varphi_x\ \left(\ x,\ C_1,\ C_2,......\ ,C_n\right), \\ .... \\ y^{(n-1)}=\varphi_{x^{n-1}}{}^{(n-1)}\ \ \left(x,\ C_1,\ C_2,\ ....\ C_n\right) \end{array}\right\} \qquad (5)$$

munosabatlar $C_1,\ C_2,\ ....\ C_n$ larning

$$\left.\begin{array}{l} C_1=\varphi_1\left(x,\ y,\ y',\ ....\ ,\ y^{(n-1)}\right), \\ C_2=\varphi_2\left(x,\ y,\ y',\ ....\ ,\ y^{(n-1)}\right) \\ .... \\ \dot{C}_n=\varphi_n\left(x,\ y,\ y',\ ....\ ,\ y^{(n-1)}\right) \end{array}\right\} \qquad (6)$$

qiymatlarini bir qiymatli aniqlasa va bu qiymatlarni ushbu

$$y^{(n)}=\varphi^{(n)}{}_{x^n}\ \left(x,\ C_1,\ C_2,\ ....\ ,\ C_n\right) \qquad (7)$$

tenglikka quyish natijasida aynan (2) tenglama hosil bo'lsa, u holda (4) funksiya (2) tenglamaning $D_{(n+1)}$ sohada aniqlangan umumiy yechim deyiladi.

SHunday qilib, (2) differensial tenglamaning umumiy yechimi n ta ixtiyoriy o'zgarmas sonni uz ichiga oladi.

(2) differensial tenglamaning barcha yechimlarini topish asosiy masaladir. Umumiy yechim formulasi (4.4) ni olaylik. Unda $C_1, C_2, \ldots\ldots, C_n$ larga ma`lum qiymatlar bersak, tegishli yechim hosil bo'ladi. Umuman aytganda (2) tenglamaning (4) formula o'z ichiga olmagan yechimlari ham bo'lishi mumkin. Bunday yechimlar maxsus yechimlar deyiladi. Bu tasdiqning dalili sifatida ikkita misol ko'ramiz.

M i s o l l a r. 1. $y^n = x,\ D_3 = \underline{R}^3$ tenglama uchun $y = \dfrac{x^3}{6} + C_1 x + C_2$ funksiya umumiy yechim bo'ladi. Haqiqatan, $y' = \dfrac{x^2}{2} + C_1,\ y^n = x$ hosilalardan oxirgisida C_1 va C_2 lar qatnashmaydi, u munosabat berilgan tenglama bilan ustma – ust tushadi. Umumiy yechim formulasi tenglamaning barcha yechimlarini o'z ichiga oladi.

2. $y^n = \dfrac{(y')^2}{y},\ D_3 = \left\{(x, y, y') \vdots -\infty < x < +\infty, y > 0, -\infty < y' < +\infty\right\}$

Differensial tenglama uchun $y = e^{C_1 x + C_2}$ funksiya umumiy yechim bo'ladi. Haqiqatan, $y' = C_1 e^{C_1 x + C_2},\ y^n = C^2{}_1 e^{C_1 x + C_2}$ yoki $y' = C_1 y,\ \ y^n = C_1{}^2 y = \left(\dfrac{y'}{y}\right)^2 y = \dfrac{(y')^2}{y}$. Bu oxirgi munosabat berilgan differensial tenglama bilan ustma – ust tushadi. Ammo umumiy yechim formulasi berilgan tenglamaning barcha yechimlarini o'z ichiga olmaydi. Ko'rilayotgan holda $y = C(C = const \neq 0)$ funksiya ham yechimdir. Bu yechim umumiy yechim formulasi $y = e^{C_1 x + C_2}$ dan C_1 va C_2 larning bironta ham qiymatida hosil bo'lmaydi. Shunday qilib, $y = C \neq 0$ yechim maxsus yechim bo'ladi.

(2) differensial tenglamaning uning umumiy yechimi formulasi (4) dan $C_1, C_2, \ldots\ldots, C_n$ larga qiymatlar berib hosil qiladigan har bir yechim (2) tenglamaning xususiy yechimi deyiladi.

Xususiy yechimni izlash Koshi masalasining yechimini izlashga keladi.

Agar (2) tenglama, $\left(x_0, y_0, Y_0', \ldots\ldots, y_0^{(n-1)}\right) \in D_{n+1}$ nuqta va ushbu

$$y(x_0) = y_0,\ y'(x_0) = y_0',\ \ldots,\ y_0^{(n-1)}(x_0) = y_0^{(n-1)} \qquad (8)$$

munosabatlar berilgan bo'lsa, (2) differensial tenglamaning (8) tengliklarni qanoatlantiradigan yechimini izlash (2) tenglama uchun Koshi masalasi deyiladi. Unda (8) tengliklar boshlang'ich shart, $x_0, y_0, y_0', \ldots, y_0^{(n-1)}$ qiymatlar esa boshlang'ich qiymatlar deb yuritiladi. $n = 2$ bo'lganda Koshi masalasi aniq geometrikma`noga ega.Masalan; $y^n = f(x, y, y')$ tenglama uchn $y(x_0) = y_0,\ \ y'(x_0) = y_0'$ shartni qanoatlantiruvchi integral chiziq tegishli sohaning (x_0, y_0) nuqtasidan berilgan y_0' burchak koeffisientli urinma bilan o'tishi lozim.

Agar (2) differensial tenglamaning umumiy yechimi (4) ma`lum bo'lsa, tegishli Koshi masalasini yechish uchun Ushbu

$$\left.\begin{array}{l}\varphi(x_0, C_1, C_2, \ldots\ldots C_n) = y_0, \\ \varphi'(x_0, C_1, C_2, \ldots\ldots, C_n) = y_0, \\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots \\ \varphi^{(n-1)}(x, C_1, C_2, \ldots\ldots C_n) = y_0^{(n-1)}\end{array}\right\} \qquad (9)$$

Tenglamalar sistemasini $C_1, C_2, ... C_n$ larga nisbatan yechish kerak bo'ladi. Bu sistema yagona yechimga ega bo'lishi, bittadan ortiq yechimga ega bo'lishi yoki umuman yechimga ega bo'lmasligi mumkin.(4.9) sistema yagona yechimga ega bo'lganda (4.2), (4.8) Koshi masalasida yagonalik buzilgan bo'ladi.

Agar (4.2) differensial tenglamaning xususiy yechimi $\Phi(x, y) = 0$ ko'rinishda berilsa, bu munosabat berilgan differensial tenglamaning integrali deb ataladi. Agar umumiy yechim $\Phi(x, y, C_1, C_2, ... , C_n) = 0$ ko'rinishda yozilgan bo'lsa, bu munosabat (4.2) tenglamaning umumiy integrali deyiladi.

(4.2) differensial tenglamaning barcha (xususiy va maxsus) yechimlarini topish differensial tenglamani integrallash jarayoni bo'ladi. Tenglamani integrallash jarayoni aniqmas integrallarni hisoblashga kelganda differensial tenglama kvadraturalarda integrallanadi deyiladi.

Endi yuqorida keltirilgan ta`riflarga misol ko'raylik.

M i s o l. $y'' + \omega^2 y = 0$ differensial tenglama ikkinchisi tartibli bo'lib, uning yechimi $y = C_1 \cos\omega x + C_2 \sin\omega x$ bo'ladi.

Agar $y'' + \omega^2 y = 0$ differensial tenglama uchun $y(0) = 1,\ y'(0) = -1$ boshlang'ich shartni qanoatlantiradigan yechimni topish talab qilinsa, umumiy yechimdan foydalanib, $1 = y(0) = C_1 \vdots -1 = y'(0) = C_2\omega$ tengliklarni hosil qilamiz. Bundan:

$C_1 = 1 =;\ C_2 \dfrac{1}{\omega},\ \omega \neq 0$. Demak, aniqlangan (yagona) yechim $y = \cos\omega x - \dfrac{1}{\omega} \sin\omega x$. bo'ladi.

2. Endi (.2) differensial tenglama uchun yechimning mavjudlikka yagonalik teoremalarini keltiramiz.

4.1 – teorema (Koshi teoramasi): kasr (2) differensial tenglamada Ushbu $f\left(x, y, y', ..., y^{(n-1)}\right),\ \dfrac{df}{dy},\ \dfrac{df}{dy}, ... , \dfrac{df}{dy^{(n-1)}}$ funksiyalar $D_{n+1} \subset \underline{R}^{n+1}$ sohada aniqlangan va uzluksiz bo'lsa, u holda:

1°. (4.2) differensial tenglamaning biror I intervalda aniqlangan, $y(x_0) = y_0,\quad y'(x_0) = y'_0,\quad y^{(n-1)}(x_0) = y_0^{(n-1)'}\ \left(x_0, y_0, y'_0, ... , y_0^{(n-1)}\right) \in D_{n+1}$ boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi yechimi mavjud.

2°. Agar $\varphi(x),\ x \in I_1$ va $\psi(x),\ x \in I_2$ funksiyalarning har biri (4.2) differensial tenglamaning yechimi bo'lib, berilgan x_0 uchun $\varphi(x_0) = \psi(x_0),\ \varphi'(x_0) = \psi'(x_0),\ ..... , \psi^{(n-1)}(x_0)$ bo'lsa, $\varphi(x)$ va $\varphi(x)$ yechimlar aniqlanish sohalarining umumiy qismida ustma – ust tushadi. Boshqacha aytganda, agar $x_0 \in I_1 \cap I_2$ nuqtada $\varphi^{(1)}(x_0) = \psi^{(1)}(x_0),\ i = 0,1,...., n-1$ bo'lsa, u holda $I_1 \cap I_2$ intervalda $\varphi(x) \equiv \varphi(x)$ bo'ladi.

4.3 – ta`rif. Agar $f\left(x, y, y', ..., y^{(n-1)}\right)$ funksiya $D_{n+1} \subset \underline{R}^{n+1}$ sohada barcha argumentlar bo'yicha aniqlangan uzluksiz bo'lib, bu funksiya uchun shunday musbat L son mavjud bo'lsaki, ixtiyoriy

$\left(x, y_1, y'_1, ..., y_1^{(n-1)}\right) \in D_{n+1},\ \left(x_1, y_2, y'_2, ..., y_2^{(n-1)}\right) \in D_{n+1}$ nuqtalar uchun ushbu

$$f\left(x, y_1, y_1', ..., y_1^{(n-1)}\right) - f\left(x_1, y_2, y_2', ..., y_2^{(n-1)}\right)| \le \qquad (L)$$

$$\le L \sum_{i=0}^{n-1} | y_1'^{(1)} - y_2^{(1)} |),$$

$$y_1^{(0)} = y_1, y_2^{(0)} = y_2, L > 0$$

tengsizlik bajarilsa, u holda $f(x, y, y', ..., y^{(n-1)})$ funksiya D_{n+1} sohada $y, y', ..., y^{(n-1)}$ lar bo'yicha Lipshits shartini qanoatlantiradi deyiladi, L esa Lipshits o'zgarmasi deyiladi.

Agar $(x, y, y', ..., y^{(n-1)})$ funksiya $D_{n+1} \subset \underline{R}^{n+1}$ sohada barcha argumentlari bo'yicha aniqlangan va uzluksiz bo'lib, shu D_{n+1} sohada $y, y', ..., y^{(n-1)}$ lar bo'yicha Lipshits shartini qanoatlantirsa, u holda shunday o'zgarmas $h > 0$ son topiladiki, natijada (4.2) tenglamaning $\left(x_0, y_0, y_0', ..., y_0^{(n-1)}\right) \in D_{(n+1)}$ bo'lganda (4.8) boshlang'ich shartlarni qanoatlantiradigan va $I = \left\{x : |x - x_0| \le h\right\}$ intervalda aniqlangan yagona yechimi mavjud bo'ladi.

4.3 – teorema. Agar $f\left(x, y, y', ..., y_0^{(n-1)}\right)$ funksiya D_{n+1} sohada aniqlangan va uzluksiz bo'lib, $\left(x_0, y_0, y_0', ..., y_0^{(n-1)}\right) \in D_{(n+1)}$ bo'lsa, u holda (2) differensial tenglamaning (4.8) boshlang'ich shartlarni qanoatlantiradigan kamida bitta yechimi mavjud.

4.2 teoremaning isboti. Isbot ikki qismdan iborat: avval (2) tenglamaning (4.8) boshlang'ich shartlarni qanoatlantiradigan va I yopiq intervalda aniqlangan yechimining mavjudligini, so'ngra bu yechimning yagonaligini isbotlaymiz.

Datsavval ba`zi yordamchi mulohazalar yuritamiz. D_{n+1} sohada (n+1) o'lchovli yopiq.

$$P = \left\{\left(x, y, y', ..., y^{(n-1)}\right) : |x - x_0| \le a, |y - y_0| \le b, ..., |y^{(n-1)} - y_0^{(n-1)}| \le b\right\}$$

parallelepipedni ko'ramiz. D_{n+1} sohada uzluksiz bo'lgan $f\left(x, y, y', ..., y^{(n-1)}\right)$ funksiya $P = D_{n+1}$ da ham uzluksiz bo'ladi. R yopiq bo'lgani uchun $f\left(x, y, y', ..., y^{(n-1)}\right)$ funksiya unda chegaralangan bo'ladi. Shuning uchun

$$\max_{\left(x, y, y', ..., y^{(n-1)}\right) \in P} \left| f\left(x, y, y', ..., y^{(n-1)}\right) \right| = \mathrm{M}, \ |\mathrm{M}| > 0$$

deylik. Shu R parallelepipedning ixtiyoriy $\left(x, y_1, y_1', ..., y_1^{(n-1)}\right)$ va $\left(x, y_2, y_2', ..., y_2^{(n-1)}\right)$ nuqtalari uchun (L) tengsizligining bajarilishi ravshan (4.2 – teoremaning shartiga ko'ra). Qayd qilamizki, $\left(x, y_0, y_0', ..., y_0^{(n-1)}\right)$ nuqta R parallelepipedning markazidan iborat. endi (4.2) differensial tenglamaning (8) boshlang'ich shartlarni qanoatlantiradigan va yopiq $|x - x_0| \le h, \ h \le a$ intervalda aniqlangan yagona yechimning mavjudligini isbotlaymiz. Buning uchun avval (2) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\left.\begin{aligned}
&\frac{dy}{dx}=y\\
&\frac{d}{dx}(y')=y'',\\
&\dots\dots\dots\dots\dots\dots\\
&\frac{d}{dx}\left(y^{(n-2)}\right)=y^{(n-1)},\\
&\frac{d}{dx}\left(y^{(n-1)}\right)=f\left(x,y,y',\dots,y^{(n-1)}\right).
\end{aligned}\right\}\qquad(10)$$

3. Bu punktda yuqori hosilaga nisbatan yechilmagan (4.1) differensial tenglamani o'rganamiz.

4.4 – ta`rif. (4.1) differensial tenglama berilgan bo'lib, $F\left(x,y,y',\dots,y^{(n)}\right)$ funksiya R^{n+1} fazoning biror ochiq D_{n+2} to'plamida aniqlangan bo'lsin. Agar I intervalda aniqlangan $\varphi(x)$ funksiya uchun quyidagi uchta shart.

$1^\circ.\varphi(x)\in C^n(\mathrm{I})$;

$2^\circ.\ (x,\varphi(x))\in D_2,\ (x,\varphi(x),\varphi'(x),\ \dots,\ \varphi^n(x))\in D_{n+2}, D_2\subset R_2,\ x\in \mathrm{I}$;

$3^\circ.F\,(x,\varphi(x))\in D_2,\ (x,\varphi(x),\varphi'(x),\ \dots,\ \varphi^{(n)}(x))=0,\ x\in \mathrm{I}$

bajarilsa, u holda funksiya I intervalda (4.1) differensial tenglamaning yechimi deyiladi.
Har bir yechimning grafigi tenglamaning integral egri chizig'i (qisqagina, integral chizig'i) deyiladi va uning grafigi R tekislikning biror D_2 to'plamida chiziladi.
Birinchi tartibli differensial tenglamalardagi kabi bu holda ham yechim parametrik ko'rinishda yozilishi yoki izlanishi mumkin.
Agar (4.1) differensial tenglama $y^{(n)}$ ga nisbatan bir qiymatli yechilsa, (2) differensial tenglamaga kelamiz. Umuman aytganda, (2) differensial tenglama $y^{(n)}$ ning bir necha, hatto cheksiz ko'p qiymatini aniqlashi mumkin. Jumladan, $(y'')^2-x^4=0,\ x>0$ differensial tenglama y'' ning ikkita $y''=\pm x^2$ qiymatini $y''+|y''|=0$ differensial tenglama esa y'' ning $-\infty<y''\le 0$ intervalni qoplaydigan qiymatlarini aniqlaydi.
Tekshirib ko'rish mumkinki, bu tenglamalar uchun $y=\pm\dfrac{x^2}{12}$,

$-\infty<x<+\infty$ va $y=\dfrac{ax^2}{2}$ lar mos ravishda (a - ixtiyoriy haqiqiy son) yechim bo'ladi.

(4.1) differensial tenglama uchun ham Koshi masalasini qo'yish mumkin:(4.1)differensial tenglama

$y(x_0)=y_0,\ y'(x_0)=y_0',\ \dots,y^{(n-1)}(x_0)=y_0^{(n-1)}$shartni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin.

(1) differensial tenglama $y^{(n)}$ga nisbatan yechilishi mumkin deylik. U holda $\mathrm{M}_0=\left(x_0,y_0,y_0',\dots,y_0^{(n-1)}\right)\in D_{n+1}$ nuqtaning biror atrofida ushbu

$$y^n=f_k\left(x,y,y',\dots,y^{(n-1)}\right), k=1,\ 2,\dots\dots\qquad(17)$$

Munosabatlarga ega bo'lamiz. Agar (17) differensial tenglamalarning har biri uchun yechimning mavjudlik va yagonalik teoremasining shartlari bajarilsa, u holda M nuqtada Koshi masalasi yagona yechimga ega deyiladi.

4.4 – t e o r e m a. Agar (4.1) differensial tenglama $F\left(x,y,y',\dots,y^{(n)}\right)$ funksiya uchun ikki shart

1. $F\left(x_0,y_0,y_0',\dots,y_0^{(n-1)},\ y^{(n)}\right)=0$

biror haqiqiy ishiga y_0 uchun $\left(x_0, y_0, y_0', \dots, y_0^{(n)}\right) \in D_{n+2}$ nuqtasining biror yopiq $\overline{D^{\circ}}$ atrofida $F\left(x, y, y', \dots, y^{(n)}\right)$ funksiya uzluksiz va 1 – tartibli uzluksiz hosilalarga ega;

2. $\dfrac{dF\left(x_0, y_0, y_0', \dots, y_0^{(n)}\right)}{[dy^{(n)}} \neq 0$

bajarilsa, u holda shunday musbat h son mavjud bo'ladiki, (4.1) differensial tenglamaning $|x - x_0| < 0$ intervalda aniqlangan, (4.8) shartni va yana $y^{(n)}(x_0) = y_0^{(n)}$ munosabatni qanoatlantiradigan yagona $y = y(x)$ yechimi mavjud.

Bu teorema. 3.1 – teoremaga o'xshash isbotlanadi.

4.1 – natija. 4.4. teoremaga ko'ra $\left(x_0, y_0, y_0', \dots, y_0^{(n)}\right)$ nuqtaning $\overline{D^{\circ}}$ atrofida $\dfrac{dF\left(x, y, y', \dots, y^{(n)}\right)}{dy^{(n)}} \neq 0, \left|\dfrac{dF}{dy^{(n)}}\right| \leq \text{A}, \ i = 0, 1, \dots, n-1.$ Demak, yagonalik buziladigan nuqtalar to'plami

$$F = 0, \ \frac{dF}{dy^{(n)}} = 0$$

munosabatlarni qanoatlantiradi. Tegishli nuqtalar maxsus nuqtalar deyiladi. Yuqori hosilaga nisbatan yechilmagan (1) differensial tenglamaning har bir nuqtasida yagonalik buziladigan yechimi uning maxsus yechimi deyiladi. Maxsus nuqtalar to'plami maxsus bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Maxsus yechimning grafigi maxsus integral chiziq deyiladi.

4.5 – t a ` r i f. (4.1) differensial tenglama $\left(x_0, y_0, y_0', \dots, y_0^{(n)}\right)$ nuqtaning biror atrofida $y^{(n)}$ ga nisbatan yechilishi, ya`ni (17) tenglamalarga ajratilishi mumkin deylik. Agar har bir (4.17) tenglama

$$y = \varphi_k\left(x, C_1, C_2, \dots, C_n\right), \ k = 1, 2, \dots \qquad (18)$$

ko'rinishda umumiy yechimga (yoki

$$\Phi_k\left(x, y, C_1, C_2, \dots, C_n\right) = 0, \ k = 1, 2, \dots \qquad (19)$$

umumiy integralga) ega bo'lsa, u holda (4.18) umumiy yechimlar to'plami (yoki (19) umumiy integrallar to'plami) (4.1) differensial tenglamaning umumiy yechimi (yoki umumiy integrali) deyiladi.

M i s o l l a r. 1. $(y'')^2 - x^4 = 0, x > 0$ differensial tenglama uchun ixtiyoriy $\left(x_0, y_0, y_0', y_0\right), \ y_0 \neq 0$ nuqta atrofida ikkita $y'' = x^2, \ y'' = -x^2$ differensial tenglamaga egamiz. Mos ravishda ularning yechimlari

$$y = \frac{x^4}{12} + C_1 x + C_2 x, \quad y = -\frac{x^4}{12} + C_1 x + C_2 x.$$

Ular birgalikda tenglamaning umumiy yechimini beradi.

2. $\cos y'' = U$ differensial tenglama uchun $y'' = \pm\dfrac{\pi}{2} + 2k\pi.$ k – butun son.

Undan $y'' = \left(\pm\dfrac{\pi}{2} + 2k\pi\right)\dfrac{\pi}{2} + C_1 x + C_2$ endi k ga barcha qiymatlar berib, umumiy yechimlar to'plamini olsak, berilgan tenglamaning umumiy yechimi chiqadi.

Noma`lum funksiya qatnashmagan yuqori tartibli differensial tenglamalar.

$$F(x, y^{(k)}, y^{(k+1)}, \dots, y^{(n)}) = 0 \qquad (1)$$

(1) tenglamani integrallash uchun

$y^{(k)} = z$ (2) almashtirishni olamiz.

Bundan $y^{(k+1)} = z'$ $y^{(k+2)} = z'', \dots, y^{(n)} = z^{(n-k)}$

Bularga asosan (1) tenglamani

$$F(x, z, z', \ldots, z^{(n-k)}) = 0 \qquad (3)$$

ko'rinishga keltiramiz.
Faraz etamiz (3) tenglamaning umumiy integrali

$$\phi(x, z, c_1, c_2, \ldots c_{n-k}) = 0 \qquad (4)$$

bo'lsin.
Bundagi z o'rniga (2) dan uning qiymatini keltirib qo'ysak

$$\phi(y^{(k)}, x, c_1, c_2, \ldots c_{n-k}) = 0 \qquad (5)$$

ga ega bo'lamiz. Bu (1) tenglamaning oraliq integralidir.
Agar (5) ni $y^{(k)}$ ga nisbatan yechsak

$$y^{(k)} = f(x, c_1, c_2, \ldots c_{n-k})$$

birinchi tipdagi differensial tenglamaga ega bo'lamiz.
Bu tenglamani k- marta ketma-ket integrallash natijasida (1) tenglamaning umumiy yechimi.

$$y = \varphi(x, c_1, c_2, \ldots c_{n-k}, \ldots, c_n)$$

ga ega bo'lamiz.

Misol. $4y' + y'^2 = 4xy''$

$$y' = z, \qquad y'' = z' \qquad 4z + z^2 = 4xz'$$

$$\frac{4dz}{4z + z^2} = \frac{dx}{x} \qquad \ell nx + \ell nc_1 = 4\int \frac{dz}{(z+2)^2 - 4} = \ell n\frac{(z+2) - 2}{(z+2) + 2}$$

$$c_1 x = \frac{z}{z+4} \qquad z = c_1 xz + 4c_1 x \qquad z = \frac{4c_1 x}{1 - c_1 x} \qquad y' = \frac{4c_1 x}{1 - c_1 x}$$

$$y = 4\int \frac{c_1 x}{1 - c_1 x} dx + c_2 = 4\int \left(\frac{1}{1 - c_1 x} - 1 \right) dx + c_2 = -\frac{4}{c_1} \ell n|1 - c_1 x| - 4x + c_2$$

Argument qatnashmagan yuqori tartibli differensial tenglamalar

$$F(y, y', y'', \ldots, y^{(n)}) = 0 \qquad (1)$$

Bunday ko'rinishdagi tenglamada u ni argument, y' ni funksiya uchun qabul qilib $y' = p$ almashtirish yordamida tenglama tartibini 1 taga pasaytirish mumkin. Buning uchun u dan x bo'yicha olingan

$y', y'', \ldots y^{(n)}$ hosilalarni p dan y ga nisbatan olingan hosilalar bilan almashtiramiz:

$$p = p(y)$$

$$y' = \frac{dy}{dx} = p; \qquad y'' = \frac{dy'}{dx} = \frac{dp}{dx} = \frac{dp}{dy} \cdot \frac{dy}{dx} = p\frac{dp}{dy}$$

$$y''' = \frac{d}{dx}\left(p\frac{dp}{dy} \right) = \frac{d}{dy}\left(p\frac{dp}{dx} \right) \cdot \frac{dy}{dx} = p\left[\left(\frac{dp}{dy} \right)^2 + p\frac{d^2 p}{dy^2} \right]$$

....

$$y^{(n)} = p\omega(p, p', p'', \ldots, p^{(n-1)})$$

Butopilganqiymatlarni (1) tenglamagaqo'ysak, quyidagigaegabo'lamiz:

$$F(y, p, pp_y^1, \ldots, p\omega(p, p', p'', \ldots, p^{(n-1)}) = 0 \qquad (2)$$

farazetaylik (2) tenglamaningumumiyintegrali

$\phi(y, p, c_1 c_2, .., c_{n-1}) = 0$ nirganisbatanyechishmumkinbo'lsin:

$p = \varphi(y, c_1, c_2, ..., c_{n-1})$

bundan $\frac{dy}{dx} = \varphi(y, c_1, c_2, ..c_{n-1})$ $\qquad dy = \varphi(y, c_1, c_2, ..., c_{n-1})dx$

$$\frac{dy}{\varphi(y, c_1, c_2, .., c_{n-1})} = dx \qquad x + c_n = \int \frac{dy}{\varphi(y, c_1, c_2, ..c_{n-1})}$$

Bu (1) tenglamaning umumiy integralidir.

Misol. $\qquad 1 + y'^2 = 2yy'' \qquad y' = p \qquad y'' = p\frac{dp}{dy}$

$$1 + p^2 = 2yp\frac{dp}{dy} \qquad \frac{dy}{y} = \frac{2pdp}{1+p^2} \qquad \ell ny + \ell nc_1 = \ell n(1 + p^2)$$

$$1 + p^2 = c_1 y \qquad p^2 = c_1 y - 1 \qquad p = \sqrt{c_1 y - 1} \qquad \frac{dy}{dx} = \sqrt{c_1 y - 1}$$

$$\frac{dy}{\sqrt{c_1 y - 1}} = dx \qquad \frac{2}{c_1}\sqrt{c_1 y - 1} = x + c_2 \qquad 4(c_1 y - 1) = c_1^2 (x + c_2)^2$$

12- mavzu. Yuqori tartibli tenglamalarning tartibini pasaytirish. (2 soat)

1-ma`ruza (2 soat)

Reja:

1. $n-$tartibli differentsial tenglamalar.
2. Yuqori tartibli tenglamalarning tartibini pasaytirish.

1. $y^n = f(x)$ **ko'rinishdagi tenglama.** Mavjudlik va yagonalik teoremasining shartlari bajarilishi uchun $f(x)$ funksiya biror I intervalda uzluksiz bo'lish etarli. Shunday deb faraz etaylik. U holda differensial tenglamani n marta ketma – ket integrallab, umumiy yechimni topish mumkin:

$$y(x) = \underbrace{\int_{x_0}^{x}\int_{x_0}^{x}\dots\int_{x_0}^{x}}_{n\,ma} f(x)\underbrace{dx\,dx\dots dx} + \frac{C_1}{(n-1)!}(x - x_0)^{(n-1)} +$$

$$+\frac{C_2}{(n-2)!}(x - x_0)^{(n-2)} + C_{(n-1)}(x - x_0)^{(n-1)} + C_n$$

Buni matematik analizdagi Dirixle formulasi yordamida soddaroq

$$y(x) = \frac{1}{(n-1)|}\int_{x_0}^{x} f(z)(x - z)^{n-1}dz + \frac{C_1}{(n-1)!}(x - x_0)^{(n-1)} + C_1$$

(4.20)

ko'rinishda yozish mumkin. (4.20) formula $y^n = f(x)$ tenglamaning barcha yechimlarini o'z ichiga oladi va umumiy yechim bo'ladi. Maxsus yechimlar yo'k. Koshi masalasining yechimi bunday yoziladi:

$$y(x) = \frac{1}{(n-1)|}\int_{x_0}^{x}(x - z)^{(n-1)} f(z)dz + \frac{y_0^{(n-1)}}{(n-1)!}(x - x_0)^{n-1} + \dots + y_0(x - z_0) + y^0$$

Bu formulada $y_0, y_0', \dots, y_0^{(n-1)}$ miqdorlarni ixtiyoriy deb qarash mumkin. U holda bu formula Koshi formulasidagi umumiy yechim bo'ladi.

2. $F\left(x, y^{(n)}\right)=0$ **ko'rinishdagi tenglama**. Agar bu tenglamani $y^{(n)}$ ga nisbatan yechish mumkin bo'lsa (ya`ni $y^{(n-1)} = f_{,}(x),\ k=1,2,\dots$) u holda bu $F\left(x, y^{(n)}\right)=0$ tenglamalarni integrallab, berilgan differensial tenglamaning umumiy yechimini topamiz.

tenglama ga nisbatan yechilmasin deylik. x va $y^{(n)}$ lar parametrik ko'rinishda yozilishi mumkin, deb faraz etamiz, ya`ni $x=\phi(t),\ y^{(n)}=x(t)$. U holda $dy^{(n-1)}=y^{(n)}\ dx$ ga ko'ra $dy^{(n-1)}=x(t)\phi'(t)\vdots dt$. Bundan:

$y^{(n-1)}=x_1(t, C_1), y^{(n-2)}=x_2(t, C_1, C_2), \dots\dots, y=x_n(t, C_1, C_2, \dots, C_n),$

Shunday qilib, umumiy yechim $x=\phi(t), y=x_n(t, C_1, C_2, \dots, C_n)$, bo'ladi.

3. $F\left(y^{(n-1)}, y^{(n)}\right)=0$ **ko'rinishdagi tenglama.** a) Tenglamani $y^{(n)}$ga nisbatan yechish mumkin bo'lsin: $y^{(n)}=f\left(y^{(n-1)}\right)$. Agar $z=y^{(n-1)}$ desak, $z'=f(z)$ ga kelamiz.Bu o'zgaruvchilari ajraladigan birinchi tartibli differensial tenglama. Uning yechimi $x=C_1+\int\frac{dz}{f(z)}$ bo'ladi. Bu tenglik $z$ga nisbatan yechilishi mumkin bo'lish ham, bo'lmasligi ham mumkin. Agar uni $z$ga nisbatan yechish mumkin bo'lsa (ya`ni $z=\varphi_1(x, C_1)$), u holda $y^{(n-1)}=\varphi_1(x, \quad C_1)$ dan $y=\phi_n(x, C_1, C_2, \dots, C_n)$umumiy kelib chiqadi. Mabodo yuqoridagi tenglik $z$ga nisbatan yechilmasa, parametr kiritish usulidan foydalaniladi.

2. Mazkur bandda bir jinsli bo`lmagan tenglamaning xususiy yechimini topishda muhim rol o`ynaydigan Lagranjning o`zgarmasni variasiyalash usuli bilan tanishamiz.

Ma’lumki, bir jinsli tenglama uchun umumiy yechim uning chiziqli erkli yechimlari orqali ushbu

$$y = C_1\varphi_1(x) + C_2\varphi_2(x) + ... + C_n\varphi_n(x) \qquad (6)$$

formula bilan yozilar edi. J.Lagranj (6) formulada C_i lar o`rniga $\sigma_i(x)$ funksiyalarni qo`yib, bir jinsli bo`lmagan tenglamaning yechimini

$$y = \sum_{i=1}^{n} \sigma_i(x)\varphi_i(x) \qquad (7)$$

ko`rinishda izlash usulini bergan. Bir jinsli bo`lmagan tenglamaning yechimini (7) ko`rinishda izlash mumkinligi, ya’ni $\sigma_i(x)$ funksiyalarni bir qiymatli topish mumkinligi (unday funksiyalarning mavjudligi) quyidagi hisoblashlardan ko`rinadi.

(7) funksiya va uning $(n-1)$-tartibgacha hosilalari ma’lum shartlarni qanoatlantirishi $\sigma_i(x)$ funksiyalarning mavjud bo`lishi uchun yetarli bo`ladi. Haqiqatan (7) ning hosilasini hisoblaylik:

$$y' = \sum_{i=1}^{n} \sigma_i(x)\varphi_i'(x) + \sum_{i=1}^{n} \sigma_i'(x)\varphi_i(x).$$

Bunda

$$\sum_{i=1}^{n} \sigma_i'(x)\varphi_i(x) = 0 \qquad (8_1)$$

deymiz. Ikkinchi tartibli hosilani hisoblaymiz

$$y'' = \sum_{i=1}^{n} \sigma_i(x)\varphi_i''(x) + \sum_{i=1}^{n} \sigma_i'(x)\varphi_i'(x).$$

Endi

$$\sum_{i=1}^{n} \sigma_i'(x)\varphi_i'(x) = 0 \qquad (8_2)$$

deymiz. Shunga o`xshash, $(n-1)$-tartibgacha hosilalarni hisoblasak:

$$y^{(n-1)} = \sum_{i=1}^{n} \sigma_i(x)\varphi_i^{(n-1)}(x) + \sum_{i=1}^{n} \sigma_i'(x)\varphi_i^{(n-2)}(x).$$

bunda

$$\sum_{i=1}^{n}\sigma_i'(x)\varphi_i^{(n-2)}(x)=0 \qquad (8_{n-1})$$

deb olamiz. Navbatdagi $y^{(n)}$ ni hisoblaymiz:

$$y^{(n)}=\sum_{i=1}^{n}\sigma_i(x)\varphi_i^{(n)}(x)+\sum_{i=1}^{n}\sigma_i'(x)\varphi_i^{(n-1)}(x).$$

Yuqoridagi $(8_1),\ldots,(8_{n-1})$ tenglamalarni hosil qilishda chiziqli bir jinsli bo`lmagan differensial tenglamadan foydalanmadik. $\sigma_i'(x)$ uchun oxirgi munosabatni topishda undan foydalanamiz. (1) tenglamaga yuqoridagi hisoblashlardan $y, y', y'',\ldots, y^{(n)}$ larning ifodalarini qo`yamiz:

$$\left[\sum_{i=1}^{n}\sigma_i(x)\varphi_i^{(n)}(x)+\sum_{i=1}^{n}\sigma_i'(x)\varphi_i^{(n-1)}(x)\right]+p_1(x)\left[\sum_{i=1}^{n}\sigma_i(x)\varphi_i^{(n-1)}(x)\right]+p_2(x)\left[\sum_{i=1}^{n}\sigma_i(x)\varphi_i^{(n-2)}(x)\right]+\ldots+$$
$$+p_{n-1}(x)\left[\sum_{i=1}^{n}\sigma_i(x)\varphi_i(x)\right]+p_n(x)\left[\sum_{i=1}^{n}\sigma_i(x)\right]=g(x)$$

yoki

$$\sum_{i=1}^{n}\sigma_i'(x)\varphi_i^{(n-1)}(x)+\sum_{i=1}^{n}\sigma_i(x)\left[\varphi_i^{(n)}(x)+p_1(x)\varphi_i^{(n-1)}(x)+\ldots+p_{n-1}(x)\varphi_i'(x)+p_n(x)\varphi_i(x)\right]=g(x).$$

Ammo bundan $\varphi_i(x), i=1,2,\ldots,n$ funksiyalar I da $L[y]=0$ tenglamaning yechimi bo`lgani sababli, ushbu

$$\sum_{i=1}^{n}\sigma_i'(x)\varphi_i^{(n-1)}(x)=g(x) \qquad (8_n)$$

munosabat hosil bo`ladi. Shunday qilib, (8_i), $i=1,2,\ldots,n$ sistemaga egamiz. $g(x)\neq 0$ dan bu sistema $\sigma_i'(x), i=1,2,\ldots,n$ larga nisbatan bir jinsli emas. Uning determinanti $W[\varphi_1,\ldots,\varphi_n]\neq 0, x\in I$. Shuning uchun $\sigma_1',\ldots,\sigma_n'$ larni bir qiymatli topamiz:
$\sigma_i'(x)=\delta_i(x), i=1,2,..,n, x\in I$.

Bundan:
$\sigma_i(x)=\int\delta_i(x)dx+\overline{C_i}$.

Topilgan ifodani (7) ga qo`yamiz:

$$y=\varphi_1(x)\int\delta_1(x)dx+\ldots+\varphi_n(x)\int\delta_n(x)dx+\sum_{i=1}^{n}\overline{C_i}\varphi_i(x) \qquad (9)$$

Bu (1) tenglamaning umumiy yechimidir, undan $\overline{C_1}=\overline{C_2}=\ldots=\overline{C_n}=0$ bo`lganda bir jinsli bo`lmagan tenglamaning ushbu

$$y=\varphi_1(x)\int_x\delta_1(x)dx+\ldots+\varphi_n(x)\int_x\delta_n(x)dx \qquad (10)$$

xususiy yechimini topish mumkin.

Shunday qilib, agar birjinsli differensial tenglamaning n ta chiziqli erkli yechimlari ma'lum bo'lsa, (8_i), $i=1,2,\ldots,n$ sistemani tuzib, undan $\delta_1(x),\ldots,\delta_n(x)$ larni, so`ngra (10) formula yordamida bir jinsli bo`lmagan tenglamaning xususiy yechimini topamiz.

17- mavzu.Xususiy yechimni topishning Koshi usuli.

(2 soat)

Reja:

1. Bir jinsli bo`lmagan $n-$tartibli chiziqli differentsial tenglamalar va ularning

umumiy va xususiy yechimlarini topish.
2. Xususiy yechimni topishning Koshi usuli.

.

3. Endi bir jinsli bo`lmagan tenglamaning xususiy yechimini topishning Koshi usuli bilan tanishamiz.

Chiziqli bir jinsli bo`lmagan differensial tenglama (1) ning koeffisentlari $p_i(x)\ (i=1,2,...n)$ va o`ng tomoni $g(x)$ biror $a \le x \le b$ oraliqda uzluksiz bo`lsin. Mos bir jinsli tenglamaning fundamental sistemasi ma'lum bo`lsin deb faraz etamiz. U holda bir jinsli tenglamaning ξ parametriga bog liq bo`lgan shunday $K(x,\xi)$ yechimini tuzish mumkinki, u yechim ushbu

$$K(\xi,\xi)=0, K_x(\xi,\xi)=0,..., K^{(n-2)}_{x^{n-2}}(\xi,\xi)=0, K^{(n-1)}_{x^{n-1}}(\xi,\xi)=1 \qquad (11)$$

boshlang`ich shartni qanoatlantiradi. Shu K(x,ξ) yechim orqali bir jinsli bo`lmagan tenglamaning xususiy yechimi

$$\psi(x)\int_a^x K(x,\xi)g(\xi)d\xi \qquad (12)$$

formula yordamida topilishi mumkin. Buni isbot etish uchun $L[\psi(x)]=g(x)$ ekanini ko`rsatish lozim. Haqiqatan, $\psi(x)$ funksiyadan ketma-ket hosilalar olib, (11) shartdan foydalanamiz.

$$\psi'(x)=K(x,x)g(x)+\int_a^x K'_x(x,\xi)g(\xi)d\xi=\int_a^x K'_x(x,\xi)g(\xi)d\xi,$$

$$\psi''(x)=K'_x(x,x)g(x)+\int_a^x K''_{x^2}(x,\xi)g(\xi)d\xi=\int_a^x K''_{x^2}(x,\xi)g(\xi)d\xi,$$

....

$$\psi^{(n-1)}(x)=K^{(n-1)}_{x^{(n-2)}}(x,x)g(x)+\int_a^x K^{(n-1)}_{x^{(n-1)}}(x,\xi)g(\xi)d\xi=\int_a^x K^{(n-1)}_{x^{(n-1)}}(x,\xi)g(\xi)d\xi$$

$$\psi^{(n)}(x)=K^{(n-1)}_{x^{(n-1)}}(x,x)g(x)+\int_a^x K^{(n)}_{x^n}(x,\xi)g(\xi)d\xi=g(x)+\int_a^x K^{(n)}_{x^n}(x,\xi)g(\xi)d\xi.$$

Topilgan ifodalarni (1) tenglamaning chap tomoniga qo`yamiz:

$$g(x)+\int_a^x K^{(n)}_{x^n}(x,\xi)g(\xi)d\xi+p_1(x)\int_a^x K^{(n-1)}_{x^{-1n}}(x,\xi)g(\xi)d\xi+...+$$

$$+P_n(x)\int_a^x K(x,\xi)g(\xi)d\xi=g(x)+\int_a^x [K^{(n)}_{x^n}(x,\xi)+P_1(x)K^{(n-1)}_{x^{n-1}}(x,\xi)+...+p_n(x)K(x,\xi)]g(\xi)d\xi.$$

Qavs ichidagi ifoda nolga teng, chunki $K(x,\xi)$ funksiya mos bir jinsli tenglamaning xususiy yechimi. Bundan $\psi(x)$ funksiyaning bir jinsli bo`lmagan tenglamaning xususiy yechimi ekani kelib chiqadi. Ravshanki, $\psi(x)$ va uning hosilalari uchun ushbu

$$\psi(a)=0, \psi^{(i)}(a)=0, i=1,2,...,n-1$$

shart bajariladi. Bu shart bir jinsli tenglama trivial yechimi uchun yoziladigan shartdan farq qilmasa-da, bir jinsli bo`lmagan tenglamada $\psi(x)\ne 0, a\le x\le b$ bo`ladi. Aks holda $g(x)\ne 0$ tengsizlik bilan ziddiyat hosil bo`ladi.

Endi (12) formulani boshqacha ko`rinishda yozamiz. Uning uchun ushbu

$$G(x,\xi)=\begin{cases}0, a\le x\le \xi,\\ K(x,\xi), \xi\le x\le b\end{cases} \qquad (13)$$

Funksiyani kiritamiz. Ravshanki, $G(\xi,\xi)=0, a\le\xi\le b$. Undan tashqari $x=\xi$ nuqtada (11) shartga ko`ra:

$$G_{x^n}^{(i)}(\xi+0,\xi)=G_{x^n}^{(i)}(\xi-0,\xi)=0, i=1,2,...,n-2,$$

$$G_{x^{n-1}}^{(n-1)}(\xi+0,\xi)+G_{x^{n-1}}^{(n-1)}(\xi-0,\xi)=1.$$

Oxirgi munosabatda (13), (11) ga asosan:

$$G_{x^{n-1}}^{(n-1)}(\xi+0,\xi)=1, G_{x^{n-1}}^{(n-1)}(\xi-0,\xi)=0$$

Chiziqli bir jinsli differensial tenglamalar uchun keltiriladigan xossalarga ega bo`lgan $G(x,\xi)$ funksiya Koshi masalasi uchun Grin funksiyasi deyiladi. (13) formuladan foydalanib, (12) formulani aniq integral shaklida bunday

$$\psi(x)=\int_a^b G(x,\xi)g(\xi)d\xi \qquad (14)$$

yozish mumkin. Bu formula Koshi formulasi deyiladi.

4. Agar (1) tenglamada o`ng tomondagi $g(x)$ funksiya ushbu

$$g(x)=\sum_{i=1}^{s} f_i(x),\ f_i(x)\in C(I)$$

ko`rinishida bo`lsa, $L[y]=\sum_{i=1}^{s} f_i(x)$ tenglamaning xususiy yechimini topish uchun s ta $L[y]=f_1(x), L[y]=f_2(x),...,L[y]=f_s(x)$ tenglamaning har biri uchun alohida-alohida xususiy yechim topamiz. Ular mos ravishda $\psi_1(x),\psi_2(x),...,\psi_s(x)$ funksiyalardan iborat bo`lsin. U holda berilgan tenglamaning xususiy yechimini $\sum_{i=1}^{s}\psi_i(x)$ deb yozish mumkin. Haqiqatan, faraz bo`yicha $L[\psi_i]=f_i(x), i=1,2,...,s$. Shuning uchun $L\left[\sum_{i=1}^{s}\psi_i(x)\right]=\sum_{i=1}^{s}L[\psi_i]=\sum_{i=1}^{s}f_i(x)=g(x)$. Demak, $\sum_{i=1}^{s}f_i(x)$ –bir jinsli bo`lmagan tenglamaning xususiy yechimi.

18- mavzu.O`zgarmas koeffitsyientli chiziqli differentsial tenglamalar. (2 soat)

Reja:

1. O`zgarmas koeffitsyientli chiziqli differentsial tenglamalar.
2. Eyler tenglamasi.

O`zgarmas koeffitsientli chiziqli bir jinsli

$$a_0 y^{(n)} + a_1 y^{(n-1)} + \ldots + a_{n-1} y^{(1)} + a_n y = 0 \qquad (1$$
ko`rinishdagi tenglamani yechish uchun uning xarakteristik tenglamasini
$$a_0 \lambda^{(n)} + a_1 \lambda^{(n-1)} + \ldots + a_{n-1} \lambda + a_n = 0 \qquad (2$$
tuzib olish va uning $\lambda_1, \lambda_2, \ldots, \lambda_n$ ildizlarini topish kerak. (1) tenglamaning umumiy yechimi, (2) tenglamaning oddiy λ_i ildiziga mos keluvchi $C_i e^{\lambda_i x}$ va k_j karrali λ_j ildiziga mos keluvchi
$$\left(C_{m+1} + C_{m+2} x + C_{m+2} x^2 + \ldots + C_{m+k_j} x^{k_j - 1}\right) e^{\lambda_j x}$$
hadlar yig‘indisidan iborat bo`ladi, bu erda barcha $C$ lar ixtiyoriy o`zgarmaslardir.

(1) tenglamaning koeffitsientlari va λ xarakteristik ildizlari haqiqiy ham, kompleks ham bo`laverishi mumkin.

1-Misol. $y^{(5)} - 12y^{(4)} + 56y''' - 126y'' + 135y' - 54y = 0$ tenglamani yeching.

Yechimi. Xarakteristi tenglamasi
$$\lambda^5 - 12\lambda^4 + 56\lambda^3 - 126\lambda^2 + 135\lambda - 54\lambda = 0$$
yoki
$$(\lambda - 1)(\lambda - 2)(\lambda - 3)^3 = 0$$
ko`rinishda bo`ladi. Bu tenglamaning oddiy $\lambda_1 = 1,\ \lambda_2 = 2$ ildizlarga $C_1 e^x,\ C_2 e^{2x}$ hadlar, 3 karrali $\lambda = 3$ ildizga esa $\left(C_3 + C_4 x + C_5 x^2\right) e^{3x}$ had mos keladi. Demak, berilgan tenglamaning umumiy yechimi bu hadlarning yig‘indisidan iborat:
$$y = C_1 e^x + C_2 e^{2x} + \left(C_3 + C_4 x + C_5 x^2\right) e^{3x}.$$

Agar (1) tenglamaning barcha koeffitsientlari haqiqiy bo`lsa, uning yechimi $\lambda_1$ xarakteristik ildizlardan birortasi kompleks bo`lganda ham haqiqiy ko`rinishda yozish mumkin. (1) tenglamaning umumiy yechimi (2) tenglamaning $\lambda = \alpha + i\beta$ o`zaro qo`shma kompleks ildizlariga mos keluvchi
$$C_{m+1} e^{\alpha x} \cos \beta x + C_{m+2} e^{\alpha x} \sin \beta x$$
ko`rinishdagi va k karrali $\lambda = \alpha + i\beta$ kompleks ildizlarga mos keluvchi
$$P_{k-1}(x) e^{\alpha x} \cos \beta x + Q_{k-1}(x) e^{\alpha x} \sin \beta x \qquad (3$$
ko`rinishdagi qo`shiluvchilarning yig‘indisidan iborat bo`ladi. Bu erda $C_1$ ixtiyoriy o`zgarmaslar, $P_{k-1}(x)$ va $Q_{k-1}(x)$ lar (3) ifodadagiga o`xshash $k-1$ tartibli ko`bhadlar bo`lib, ularning koeffitsientlari ixtiyriy o`zgarmaslardir.

2-Misol. $y'' - 2y' + 2y = 0$ tenglamani yeching.

Yechimi. Xarakteristik tenglamasi $\lambda^2 - 2\lambda + 2 = 0$ bo`lib, $\lambda = 1 \pm 1$ oddiy ildizlarga ega, shuning uchun yechimning ko`rinishi quyidagicha bo`ladi:
$$y = C_1 e^x \cos x + C_2 e^x \sin x.$$

$$2\left[\left(a_1+b_1+b_0\right)+b_1x\right]\cos x+2\left[\left(b_0+b_1\right)+b_1x\right]\sin x-$$

$$-3\left\{\left[\left(a_0+b_0+a_1\right)+\left(a_1+b_1\right)x\right]\cos x+\right.$$

Ushbu

$$a_0x^ny^{(n)}+a_1x^{n-1}y^{(n-1)}+\ldots+a_ny=f\left(x\right)$$

yoki

$$a_0\left(ax+b\right)^ny^{(n)}+a_1\left(ax+b\right)^{n-1}y^{(n-1)}+\ldots+a_ny=f\left(x\right) \qquad (2$$

ko`rinishdagi tenglamalar Eyler tenglamasi deyiladi. (1) tenglama $x=\pm e^t$ almashtirish bilan, (2) tenglama esa $ax+b=\pm e^t$ almashtirish bilan chiziqli o`zgarmas koeffitsientli tenglamalarga keltirish mumkin. Bunday tenglamalarni yechish esa avvaliga punktlarda mufassal o`rganildi.

Misol. $x^2y''-xy'+y=8x^3$ eyler tenglamasini yeching.

Yechimi. $x=e^t$ almashtirish bajaramiz. Tushunarliki, $t=\ln x,$ bundan

$$y'=\frac{dy}{dx}=\frac{dy}{dt}\frac{dt}{dx}=y_t'\frac{1}{x}=y_t'e^{-t},$$

$$y''=\frac{d}{dx}\left(y_t'e^{-t}\right)=e^{-t}\frac{d}{dx}\left(y_t'\right)+y_t'\frac{d}{dx}\left(e^{-t}\right)=$$

$$=e^{-t}\frac{d}{dx}\left(y_t'\right)\frac{dt}{dx}+y_t'\frac{d}{dt}\left(e^{-t}\right)\frac{dt}{dx}=e^{-2t}y_{tt}''-e^{-2t}y_{tt}'=e^{-2t}\left(y_{tt}''-y_t'\right).$$

Endi tenglamaga qo`yib

$$e^{2t}\cdot e^{-2t}\left(y_{tt}''-y_t'\right)-e^te^{-t}y'+y=8e^{3t}$$

ifodani olamiz, bundan esa

$$y_{tt}''-2y_t'+y=8e^{3t} \qquad (3$$

o`zgarmas koeffitsientli tenglamani olamiz.

Avvalo bir jinsli $y_{tt}''-2y_t'+y=0$ tenglamaning umumiy yechimini topib olamiz. Xarakteristik tenglamasi $\lambda^2-2\lambda+1=0$ ko`rinishda bo`lgani uchun $\lambda=1$ uning ikki karrali ildizi.

Demak, bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi $y=C_1e^t+C_2te^t$ ko`rinshda ekan.

(3) tenglamaning xususiy yechimini $y_1=a_0e^{3t}$ ko`rinishda qidiramiz (2-punktga qarang). U holda

$$y_1'=3a_0e^{3t},\ \ y_1''=9a_0e^{3t},\ \ 9a_0e^{3t}-6a_0e^{3t}+a_0e^{3t}=8e^{3t},\ \ 4a_0=8,\ \ a_0=2$$

kelib chiqadi. Bundan esa xususiy yechim $y_1=2e^{3t}$ ko`rinishda ekanligi kelib chiqadi. endi (15) tenglamaning umumiy yechimini yoza olamiz:

$$y=C_1e^t+C_2te^t+2e^{3t}.$$

Bundan esa $t=\ln x$ ekanligini hisobga olib, berilgan tenglamaning umumiy yechimini olamiz.

$$y=C_1x+C_2x\ln x+2x^3.$$

19- mavzu. Bir jinsli bo`lmagan o`zgarmas koeffitsyienti chiziqli differentsial tenglamalar va ularning xususiy yechimlarini topish usullari. (O`ng tamoni maxsus ko`rinishda bo`lgan tenglamalar). (2 soat)

1-ma`ruza (2 soat)

Reja:

1. Bir jinsli bo`lmagan o`zgarmas koeffitsyienti chiziqli differentsial tenglamalar
2. Ularning xususiy yechimlarini topish usullari. (O`ng tamoni maxsus ko`rinishda bo`lgan tenglamalar).

Chiziqli bir jinsli bo`lmagan, o`zgarmas koeffitsientli differentsial tenglamaning o`ng tomoni $b_0+b_1x+\ldots+b_mx^m,\ e^{\alpha x},\ \cos\beta x,\ \sin\beta x$ funksiyalarning yig‘indisi va ko`paytmasidan iborat bo`lsa, uning xususiy yechimini noma`lum koeffitsientlar metodi bilan qidirish mumkin.

Agar tenglamaning o`ng tomoni $P_m(x)e^{\gamma x}$ ko`rinishda bo`lsa, (bu erda $P_m(x)=b_0+b_1x+\ldots+b_mx^m$) xususiy yechim

$$y_1 = x^S Q_m(x)e^{\gamma x} \tag{1}$$

ko`rinishda bo`ladi. Bunda $Q_m(x)$ – koeffitsientlar hozircha noma`lum bo`lgan *m* tartibli ko`phad, *S* esa quyidagicha aniqlanadi: agar γ

$$a_0y^{(n)}+a_1y^{(n-1)}+\ldots+a_{n-1}y^{(1)}+a_ny=0 \quad (2$$

ko`rinishdagi tenglamaning xarakteristik

$$a_0\lambda^{(n)}+a_1\lambda^{(n-1)}+\ldots+a_{n-1}\lambda+a_n=0 \quad (3$$

tenglamasining ildizi bo`lmasa, $S=0$, agar $\gamma$ tenglamaning *p* karrali ildizi bo`lsa $S=p$.

$Q_m(x)$ ko`phadning koeffitsientlarini topish uchun (1) yechimni berilgan differentsial tenglamaga qo`yib, tenglikning o`ng va chap tomonidagi o`xshash hadlarning koeffitsientlarini tenglash kerak.

Agar o`ng tomonida *sin* va *cos* lar ishtirok etib qolsa, bizga ma`lumki, ular eylar formulasi yordamida ko`rsatkichli funksiyalar orqali ifodalash mumkin:

$$\cos\beta x=\frac{e^{1\beta x}+e^{-1\beta x}}{2},\quad \sin\beta x=\frac{e^{1\beta x}-e^{-1\beta x}}{21} \quad (4$$

U holda masala hozir ko`rilgan holga keladi.

Agar tenglama chap tomonining koeffitsientlari haqiqiy bo`lsa, (4) kompleks funksiyalarsiz masalani hal qilish mumkin.

O`ng tomoni

$$e^{\alpha x}\left(P_k(x)\cos\beta x+Q_i(x)\sin\beta x\right) \quad (5$$

ko`rinishda bo`lgan tenglamalarda xususiy yechimni

$$y_1=x^se^{\alpha x}\left(R_m(x)\cos\beta x+T_m(x)\sin\beta x\right) \quad (6$$

ko`rinishda qidirish mumkin. Bu erda, agar $\alpha+i\beta$ (2) xarakteristik tenglamaning ildizi bo`lmasa, $S=0,$ aks holda S $\alpha+i\beta$ ildizning karraligi, $R_m(x)$ va $T_m(x)$ – *m*-tartibli ko`phadlar, $m=\max\{k,1\},$ $R_m(x)$ va $T_m(x)$ ko`phadlarning koeffitsientlarini topib olish uchun (9) xususiy yechimi berilgan tenglamaga qo`yib, tenglikning o`ng va chap tomonidagi o`xshash hadlarning koeffitsientlarini tenglashtirish kerak.

Shuni ham ta`kidlab o`tish kerakki, bir jinsli bo`lmagan chiziqli tenglamaning umumiy yechimi, shu tenglamaning bitta xususiy yechimi bilan unga mos kelgan bir jinsli tenglamalari yig‘indisiga teng. Undan tashqari, agar tenglamaning o`ng tomoni bir nechta funksiyalar yig‘indisidan iborat bo`lsa, uning xususiy yechimi shu tenglama chap tomonidagi qo`shiluvchilarning har biriga tenglashtirib olingan tenglamalar xususiy yechimlari yig‘indisidan iborat deb qarash mumkin.

Misollar. ***a*)** $y''+y=4xe^x$ tenglamani yeching.

Yechimi. **I.** $y''+y=0$ bir jinsli tenglamaning umumiy yechimini topamiz. Xarakteristik tenglamasi $\lambda^2+1=0,$ bundan $\lambda_{1,2}=\pm1.$ Demak, bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi $y=C_1\sin x+C_2\cos x$ ko`rinishda bo`ladi.

II. Berilgan tenglamaning xususiy yechimi

$$y=x^sQ_m(x)e^{\gamma x}$$

ko`rinishda qidiramiz. Bizning misolimizda $S=0,$ chunki $\gamma=1$ xarakteristik tenglamaning ildizi emas, $Q_m(x)=b_0+b_1x,$ chunki $P_m(x)=4x,$ ya`ni $m=1,$ shuning uchun xususiy yechimi

$$y_1=(b_0+b_1x)e^x$$

ko`rinishda qidiramiz. Buni berilgan tenglamaga qo`yib,

$$y_1'=(b_0+b_1+b_1x)e^x;\quad y_1'=(b_0+2b_1+b_1x)e^x;$$

$$(b_0+b_1x)e^x+(b_0+2b_1+b_1x)e^x=4xe^x;$$

$$2b_0+2b_1+2b_1x=4x;\quad 2b_0+2b_1=0;$$

$$2b_1=4;\quad b_0=-2;\quad b_1=2$$

larni olamiz. Demak, xususiy yechim $y_1=(2x-2)e^x$ ko`rinishda ekan.

Berilgan tenglamaning umumiy yechimi, bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi (I) bilan berilgan tenglamaning xususiy yechimi (II) ning yig‘indisiga teng:

$$y=C_1\sin x+C_2\cos x+(2x-2)e^x.$$

b) $y''+2y'-3y=x^2e^x$ tenglamani yeching.

Yechimi. **I.** $y''+2y'-3y=0$ bir jinsli tenglamaning umumiy yechimini topamiz. Xarakteristik tenglamasi $\lambda^2+2\lambda-3=0$ ko`rinishda bo`ladi, bundan $\lambda_1=1,$ $\lambda_2=-3$ ekanligini topamiz, demak, bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi

$$y=C_1e^x+C_2e^{-3x}$$

ko`rinishda bo`ladi.

II. Berilgan tenglamaning xususiy yechimini oldingi misoldagidek (6) ko`rinishda qidiramiz. Bizning misolimizda $S=1,$ chunki $\gamma=1$ xarakteristik tenglamaning bir karrali ildizi,

$$Q_m(x)=b_0+b_1x+b_2x^2,$$

chunki $P_m(x)=x^2$, ya`ni $m=2,$ shuning uchun xususiy yechim

$$y_1=x\left(b_0+b_1x+b_2x^2\right)e^x$$

ko`rinishda qidiriladi. Buni berilgan tenglamaga qo`yib,

$$y_1'=\left[b_0+(b_0+2b_1)x+(3b_2+b_1)x^2+b_2x^3\right]e^x,$$

$$y_2''=\left[2+(b_0+b_1)+(b_0+4b_1+6b_2)x+(6b_2+b_1)x^2+b_2x^3\right]e^x,$$

$$\left[2+(b_0+b_1)+(b_0+4b_1+6b_2)x+(6b_2+b_1)x^2+b_2x^3\right]e^x+$$

$$+2\left[b_0+(b_0+2b_1)x+(3b_2+b_1)x^2+b_2x^3\right]e^x-$$

$$-3x\left[b_0+b_1x+b_2x^3\right]e^x=x^2e^x,$$

$$4b_0+2b_1=0,\quad 8b_1+6b_2=0,\quad 12b_2=1,$$

$$b_2=1/12,\quad b_1=-1/16,\quad b_0=1/32$$

larni olamiz . Demak, xususiy yechim

$$y_1=x\left(1/32-1/16\cdot x+1/12\cdot x^2\right)e^x$$

ko`rinishda ekan.

Yuqoridagidek, berilgan tenglamaning umumiy yechimi bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi (I) bilan bir jinsli bo`lmagan (berilgan) tenglamaning xususiy yechimi yig‘indisiga teng

$$y_1=C_1e^x+C_2e^{-3x}+x\left(1/32-1/16\cdot x+1/12\cdot x^2\right)e^x.$$

c) $y''-3y'+2y=xe^x\cos x$ tenglamani yeching.

Yechimi. **I.** $y''-3y'+2y=0$ bir jinsli tenglamaning umumiy yechimini topamiz. Bu tenglamaning xarakteristik tenglamasi

$$\lambda^2-3\lambda+2=0$$

bo`lib, uning ildizlari, $\lambda_1=1,$ $\lambda_2=2$ bo`ladi. Bundan esa bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi

$$y=C_1e^x+C_2e^{2x}$$

ko`rinishda ekanligi kelib chiqadi.

II. Endi berilgan tenglamaning xususiy yechimini (9) ko`rinishda, ya`ni

$$y=x^se^{\alpha x}\left(R_m(x)\cos\beta x+T_m(x)\sin\beta x\right)$$

holda qidiramiz, chunki tenglamaning o`ng tomoni (8) ko`rinishda, Bizning misolda $\alpha=1,$ $\beta=1,$ $\alpha\pm\beta l=1+l,$ $S=0,$ chunki $\alpha+\beta l=1+l,$ $S=0,$ xarakteristik tenglamaning yechimi emas.

$$R_m(x)=a_0+a_1x,\ T_m(x)=b_0+b_1x,\quad \text{chunki}\quad P(x)=x\quad \text{va}\quad Q(x)=0,$$

bo`lib, $k=1$ va $l=0,$ shuning uchun $m=1.$ SHunday qilib, xususiy yechimni

$$y_1=e^x\left((a_0+a_1x)\cos x+(b_0+b_1x)\sin x\right)$$

ko`rinishda qidirishimiz kerak ekan. Buni tenglamaga qo`yib,

$$y_1' = \Big[\big(b_1 - a_0 - a_1 x\big)\sin x + \big(a_1 + b_0 + b_1 x\big)\cos x + \big(a_0 + a_1 x\big)\cos x +$$

$$+\big(b_0 + b_1 x\big)\sin x\Big]e^x = \Big[\big(a_0 + b_0 + a_1 + \big(a_1 + b_1\big)x\big)\cos x +$$

$$\big(b_0 - a_0 + b_1 + \big(b_1 - a_1\big)x\big)\sin x\Big]e^x,$$

$$y_1'' = \Big\{\Big[a_1 + b_1 + b_0 - a_0 + b_1 + \big(b_1 - a_1\big)x\Big]\cos x +$$

$$+\Big[b_1 - a_1 + a_0 + b_0 + a_1 + \big(a_1 + b_1\big)x\Big]\sin x +$$

$$+\Big[a_0 + b_0 + a_1 + \big(a_1 + b_1\big)x\Big]\cos x +$$

$$+\Big[b_0 - a_0 + b_1 + \big(b_1 - a_1\big)x\Big]\sin x\Big\}e^x =$$

$$\Big\{\Big[2\big(a_1 + b_1 + b_0\big) + 2b_1 x\Big]\cos x\Big[2\big(b_0 + b_1\big) + 2b_1 x\Big]\sin x\Big\}e^x,$$

$$+\Big[\big(b_0 - a_0 + b_1\big) + \big(b_1 - a_1\big)x\Big]\sin x\Big\} +$$

$$+2\Big[\big(a_0 + a_1 x\big)\cos x + \big(b_0 + b_1 x\big)\sin x\Big] = x\cos x,$$

$$2b_1 - a_1 - a_0 - b_0 = 0, \quad -a_1 - b_1 = 1, \quad 3a_0 + b_0 - b_1 = 0,$$

$$b_1 + 3a_1 = 0, \quad a_0 = 1, \quad a_1 = 1/2, \quad b_0 = -4\frac{1}{2}, \quad b_1 = -1\frac{1}{2}$$

larni olamiz. Bundan esa berilgan tenglamaning xususiy yechimi

$$y_1 = e^x\left(\big(1 + 1/2\cdot x\big)\cos x - \left(4\frac{1}{2} + 1\frac{1}{2}x\right)\sin x\right)$$

ko`rinishda ekanligi kelib chiqadi.

Demak, berilgan tenglamalarning umumiy yechimi bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi (1) bilan berilgan tenglamaning xususiy yechimi yig‘indisiga teng:

$$y = C_1 e^x + C_2 e^{2x} + \left[\big(1 + 1/2\cdot x\big)\cos x - \left(4\frac{1}{2} + 1\frac{1}{2}x\right)\sin x\right]e^x.$$

d) $y'' - 5y' = 3x^2 + \sin 5x$ tenglamaning umumiy yechimini toping.

Yechimi. **I.** Bir jinsli tenglamaning umumiy yechimini topib olamiz: $y'' - 5y' = 0.$ Bu tenglamaning xarakteristik tenglamasi $\lambda^2 - 5\lambda = 0$ ko`rinishda bo`ladi, bundan $\lambda_1 = 0,\ \lambda_2 = 5$ larni olamiz. Bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi

$$y = C_1 e^{0x} + C_2 e^{5x} = y = C_1 + C_2 e^{5x}$$

ko`rinishda bo`ladi.

Yuqorida eslatilgan qoidaga ko`ra, bu tenglamaning o`ng tomoni ikkita har xil funksiyalarning yig‘indisi bo`lgan uchun tenglamaning chap tomoni, uning o`ng tomonidagi qo`shiluvchilarning har biriga tenglashtirib, xususiy yechimlar topamiz va berilgan tenglamaning xususiy yechimi sifatida ularning yig‘indisini olamiz.

II. $y'' - 5y' = 3x^2$ tenglamaning xususiy yechimini (6) ko`rinishda ya`ni $y_1 = x^s Q_m(x) e^{\gamma x}$ holda qidiramiz. Bizning misolda $\gamma = 0$ va demak, $S = 0$ chunki

$\gamma=0$ xarakteristik tenglamaning bir karrali ildizi, $Q_m(x)=a_0+a_1x+a_2x^2$, chunki $P_m(x)=3x^2$, shunday qilib xususiy yechimni

$$y_1=x\left(a_0+a_1x+a_2x^2\right)=a_0x+a_1x^2+a_2x^3$$

ko`rishda qidirish kerak ekan. Buni tenglamaga qo`yib

$$y_1'=a_0+2a_1x+3a_2x^2,\quad y_1''=2a_1+6a_2x,$$

$$2a_1+6a_2x-5\left(a_0+2a_1x+3a_2x^2\right)=3x^2,\quad 2a_1-5a_0=0,$$

$$6a_2-10a_1=0,\quad -15a_2=3,\quad a_1=-3/25,\quad a_0=-6/125$$

larni olamiz. Demak, bu tenglamaning xususiy yechimi

$$y_1=-6/125\cdot x-3/25\cdot x^2-1/5x^3$$

ko`rinishda ekan.

III. $y''-5y'=\sin 5x$ tenglamaning xususiy yechimi (9) ko`rinishda, ya`ni $y_2=x^se^{\alpha x}\left(R_m(x)\cos\beta x+T_m(x)\sin\beta x\right)$ holda qidiramiz. Bizning misolimizda $S=0,$ chunki $\alpha=0,\ \beta=5,\ \alpha+\beta l=5l$ harakteristik tenglamaning ildizi emas, $R_m(x)=a_0$, $T_m(x)=b_0$, chunki

$$P(x)=0,\ Q(x)=1,\ k=0,\ l=0$$

bo`lib, shunday qilib, xususiy yechimni

$$y_2=a_0\cos 5x+b_0\sin 5x$$

ko`rinishda qidirish kerak ekan. Buni tenglamaga qo`yib,

$$y_2'=5b_0\cos 5x-5a_0\sin 5x,\quad y_2''=-25b_0\sin 5x-25a_0\cos 5x,$$

$$-25b_0\sin 5x-25a_0\cos 5x-25b_0\cos 5x+25a_0\sin 5x=\sin 5x,$$

$$25a_0-25b_0=1,\quad 25a_0+25b_0=0,\quad a_0=1/50,\quad b_0=-1/50$$

larni olamiz. Bundan esa o`z navbatida xususiy yechimning

$$y_2=1/50\cos 5x-1/50\sin 5x$$

ekanligi kelib chiqadi.

Yuqorida aytilganiga ko`ra, berilgan tenglamaning umumiy yechimini topilgan yechimlarning yig‘indisidan iborat:

$$y=C_1+C_2e^{5x}-\left(6x/125+3x^2/25+x^3/5\right)+1/50\cos 5x-1/50\sin 5x.$$

.

20- mavzu. O’zgarmas koeffitsientliga keltiriladigan tenglamalar (2 soat)

1-ma`ruza (2 soat)

Reja:

1. O’zgarmas koeffitsientliga keltiriladigan tenglamalar

21- mavzu. 2-tartibli chiziqli differensial tenglamalar (2 soat)

1-ma`ruza (2 soat)

Reja:

1. 2-tartibli chiziqli differensial tenglamalar

22- mavzu.Ikkinchi tartibli differentsial tenglamalarni darajali qatorlar yordamida integrallash. (2 soat)

1-ma`ruza (2 soat)

Reja:

1. 2-tartibli chiziqli differensial tenglamalar
2. Ikkinchi tartibli differentsial tenglamalarni darajali qatorlar yordamida integrallash.

$y''+P(x)y'+Q(x)y=0$ (1) tenlamani qaraymiz yoki

$P_0(x)y''+P_1(x)y'+P_2(x)y=0$ (2)

Bu yerda P,q,P_0 , P_1, P_2 lar x dan bog'liq funksiyalar $\frac{d}{dx}\left(P\frac{dy}{dx}\right)+qy=0$ (3) tenglama o'z –oz'iga qo'shma tenglama deb aytiladi.

Har qanday (2) – tenglamani x dan bog'liq biror funksiyaga ko'paytirib (3) – ko'rinishga keltirish mumkin. (2)- tenglamani biror $\mu(x)$ da ko'paytiramiz.

$P_0(x)y''+P_1(x)\mu(x)y'+P_2(x)\mu(x)y=0$ (4)

$P\frac{d^2y}{dx^2}+P'\frac{dy}{dx}+qy=0$ (5)

(4) va (5) ni solishtirsak ,

$(\mu(x)P_0(x))'=P_1(x)\mu(x)$

$\mu'P_0+\mu P_0'=P_1\mu$

$\mu'P_0=\mu(P_1-P_0')$

$\frac{\mu'}{\mu}=\frac{P_1}{P_0}-\frac{P_0^1}{P_0}$ $d\ln\mu=\frac{P_1}{P_0}dx-d\ln P_0$

$\ln\mu=\int\frac{P_1}{P_0}dx-\ln P_0$ $\mu=\frac{1}{P_0}e^{\int\frac{P_1}{P_0}dx}$

$e^{\int\frac{P_1}{P_0}dx}y''+\frac{P_1}{P_0}e^{\int\frac{P_1}{P_0}dx}y'+\frac{P_2}{P_0}e^{\int\frac{P_1}{P_0}dx}y=0$

$P=e^{\int\frac{P_1}{P_0}dx}$

$\frac{d}{dx}\left(e^{\int\frac{P_1}{P_0}dx}\frac{dy}{dx}\right)++\frac{P_2}{P_0}e^{\int\frac{P_1}{P_0}dx}y=0$

$q=\frac{P_2}{P_0}e^{\int\frac{P_1}{P_0}dx}$

$x^2y''+xy'+(x^2-n^2)y=0$ tenglamani 3-ko'rinishga keltiramiz.

$$\mu(x)x^2 y'' + \mu(x)xy' + \mu(x)(x^2 - n^2)y = 0 \quad (1)$$

$$\left(P(x)y'\right) + q(x)y = 0$$

$$P(x)y'' + P'(x)y' + q(x)y = 0 \qquad (2)$$

$$(\mu x^2) = \mu x$$

$$\mu' x^2 + 2x\mu = \mu x \qquad \frac{d\mu}{\mu} = -\frac{dx}{x}$$

$$\mu' x^2 = -x\mu \qquad \mu = -\frac{1}{x}$$

$$xy'' + y' + \left(x - \frac{n^2}{x^2}\right)y = 0 \qquad (xy') + \left(x - \frac{n^2}{x}\right)y = 0$$

2-tartibli chiziqli differensial tenglamani $y'' + Q(x)y = 0$ (6) ko'rinishga keltirish mumkin .

Faraz qilamiz , $P_0(x)y'' + P_1(x)y' + P_2(x)y = 0$ (2) tenglama (3)- ko'rinishga keltirilgan bo'lsin . (3)- tenglamada $d\xi = \dfrac{dx}{P(x)}$ almashtirish olamiz

$$\xi = \int \frac{dx}{P(x)} \qquad \frac{dy}{dx} = \frac{dy}{d\xi}\frac{d\xi}{dx} = \frac{1}{P(x)}\frac{dy}{d\xi}$$

$$\left(P(x)y'\right)' = \frac{dx}{d\xi}(P(x)y')\frac{d\xi}{dx} = \left(\frac{1}{P(x)}\frac{d^2y}{d\xi^2}\right) = \frac{d}{d\xi}\left(P(x)\frac{1}{P(x)}\frac{dy}{d\xi}\right)\frac{1}{P(x)} = \frac{1}{P(x)}\frac{d^2y}{d\xi^2}$$

$$\frac{1}{P(x)}\frac{d^2y}{d\xi^2} + q(x)y = 0, \qquad \frac{d^2y}{d\xi^2} + Q(\xi)y = 0. \qquad P(x)q(x) = Q(\xi)$$

$$\xi = \ln x, \qquad x = e^{\xi}$$

$$\frac{dy}{dx} = \frac{dy}{d\xi}\frac{d\xi}{dx} = \frac{1}{x}\frac{dy}{d\xi}$$

$$\frac{1}{x}\frac{d^2y}{d\xi^2} + \left(x - \frac{n^2}{x}\right)y = 0, \qquad \frac{d^2y}{d\xi^2} + \left(e^{2\xi} - n^2\right)y = 0$$

Misol: $xy'' + \dfrac{1}{2}y' - y = 0$

$$\mu' x + \mu = \frac{\mu}{2} \qquad \frac{d\mu}{\mu} = -\frac{dx}{2x}$$

$$\mu = \frac{1}{\sqrt{x}}$$

$$x^{\frac{1}{2}} y'' + \frac{y}{2\sqrt{x}} - \frac{y}{\sqrt{x}} = 0$$

$$\left(\sqrt{x} y'\right)' - \frac{y}{\sqrt{x}} = 0 \qquad d\xi = \frac{dx}{\sqrt{x}}$$ almashtirish olamiz.

$$\Im = \int \frac{dx}{\sqrt{x}} = 2\sqrt{x}, \qquad x = \frac{\Im^2}{4}$$

$$\frac{dy}{dx} = \frac{dy}{d\xi}\frac{d\xi}{dx} = \frac{1}{\sqrt{x}}\frac{dy}{d\xi}$$

$$\frac{1}{\sqrt{x}}\frac{d^2 y}{d\xi^2} - \frac{y}{\sqrt{x}} = 0, \qquad y'' - y = 0$$

$$y = C_1 e^{\xi} + C_2 e^{-\xi}$$

$$Y = C_1 e^{2\sqrt{x}} + C_2 e^{-2\sqrt{x}}$$

Noma'lum funksiyani chiziqli almashtirish yordamida I – tartibli hosila qatnashgan hadni yo'qotish mumkin.
ya`ni (1) tenglamani (6) ko'rinishiga keltirish mumkin.

$$y'' + p(x)y' + q(x)y = 0 \quad (1) \qquad y = u(x)z \qquad y' = u'z + zu'$$

Z dan bogliq funksiya noma`lum funksiya

$y'' = z''u + 2u'z + u''z$ ni keltirib tenglamaga qo'yamiz.

$$z''u + 2u'z' + u''z + P(x)(u'z + z'u) + Q(x)uz = 0$$

guruhlaymiz.

$$z''U + (2u' + P(x)U)z' + (u'' + P(x)u' + Q(x)u)z = 0$$

$$\frac{du}{u} = -\frac{1}{2}p(x)dx \qquad U = \ell^{-\frac{1}{2}spdx} \qquad 2U + P(x)U = 0 \qquad U' = -\frac{P}{2}\ell^{-\frac{1}{2}spdx}$$

$$y = z \cdot \ell^{-\frac{1}{2}\int Pdx} \qquad U''\left(\frac{P^2}{4} - \frac{P^1}{2}\right)\ell^{-\frac{1}{2}\int SPdx}$$

keltirib joyiga qo'yamiz

$$z''\ell^{-\frac{1}{2}\int Pdx} + \left(\frac{P^2}{4} - \frac{P^1}{2} + \frac{P^2}{2} + Q\right)\ell^{-\frac{1}{2}\int Sdx} \cdot z = 0$$

$$z''+\left(-\frac{P^2}{4}-\frac{P^1}{2}+Q\right)z=0 \ bundan \qquad (6)$$

$I(x)=Q-\frac{P^2}{4}-\frac{P^2}{2}$ ko’rinishiga keladi bu funksiyaga (1) –tenglamaning invarionetligi deyiladi.

Misol: $y''+\frac{2}{x}y'+y=0$ $\quad y=Uz$ almashtirish olamiz n-biror x ga bog’liq funksiya z-yangi funksiya

$$2'U+2U'z'+U''z+\frac{2}{x}(U'z+z'U)+Uz=0$$

$$z''U+(2U'+\frac{2U}{x})z'+(U''+\frac{2}{x}U'+U)z=0$$

$$2U'+\frac{2U}{x}=0 \qquad \frac{du}{u}=-\frac{dx}{x} \qquad U=\frac{1}{x} \qquad U'=-\frac{1}{x^2} \qquad U''=\frac{2}{x^3}$$

$$\uparrow_1 2=\pm i \qquad z=C\cos x+c_2\sin x$$

$$y=\frac{1}{x}(C_1,\cos x+C_2\sin x)$$

$$P=\frac{2}{x} \qquad Q=1 \qquad I(x)=1-\frac{1}{x^2}+\frac{1}{x^2}=1$$

Invarianti 1 ga teng o’zgarmas koefisientiga keladi.

23- mavzu.Differentsial tenglamalar sistemasini normal ko`rinishga keltirish. (2 soat)

1. Differentsial tenglamalar sistemasini normal ko`rinishga keltirish.

24- mavzu. Differentsial tenglamalarning normal sistemasi uchun mavjudlik va yagonalik teoremasi. (2 soat)

Reja:

1. Differentsial tenglamalarning normal sistemasi uchun mavjudlik va yagonalik teoremasi.

25- mavzu. Chiziqli differentsial tenglamalar sistemasi. (2 soat)

Reja:

1. Chiziqli differentsial tenglamalar sistemasi.
2. Chiziqli differentsial tenglamalar sistemasini yechish usullari.

Ciziqli bir jinsli sistemalarni ko`rib o`taylik. Keyingi mulohazalarning qulayligi uchun L operatorni

$$L(y)=\frac{dy}{dx}-A(x)y \qquad \textbf{(1)}$$

tenglik yordamida kiritamiz. Agar $p=\frac{d}{dx}$ va E-birlik $n\times n$ natrissa bo`lsa, (1) ni yana ushbu

$$L(p)y=(pE-A(x))y$$ ko`rinishda yozish mumkin. Kiritilgan L operator yordamida

$$L(y)=0 \text{ yoki } L(p)y=0 \qquad \textbf{(2)}$$

ko`rinishda yozish mumkin.

Avval L(p) operatorning xossalarini o`rganamiz:

1-xossa. Agar C-*ixtiyoriy o`zgarmas son bo`lsa,*

$$L(Cy)=CL(y)$$

ayniyat o`rinli.

Haqiqattan,

$$L(Cy)=\frac{d(Cy)}{dx}-A(x)\quad (Cy)=C\frac{dy}{dx}-CA(x)\ \text{y=CL(y)}.$$

2-xossa. Agar $C_1,\ C_2,...,\ C_m$ - ixtoyoriy o`zgarmas sonlar bo`lsa,

$$L\left(\sum_{i=1}^{m}C_i y^{(i)}\right)=\sum_{i=1}^{m}C_i L(y^{(i)})$$

ayniyat o`rinli, bunda $y^{(1)},y^{(2)},...,y^{(m)}$ - biror vektor-funksiyalar.

Haqiqattan, soda mulohazalar yordamida topamiz:

$$L\left(\sum_{i=1}^{m}C_i y^{(i)}\right)=\frac{d}{dx}\left(\sum_{i=1}^{m}C_i y^{(i)}\right)-A(x)\left(\sum_{i=1}^{m}C_i y^{(i)}\right)=\sum_{i=1}^{m}C_i\frac{d}{dx}y^{(i)}-\sum_{i=1}^{m}C_i(A(x)y^{(i)})=$$

$$=\sum_{i=1}^{m}C_i\left(\frac{d}{dx}y^{(i)}-A(x)y^{(i)}\right)=\sum_{i=1}^{m}C_i L(y^{(i)})$$

Bu xossalardan foydalanib quyidagi teoremalarni isbotlaymiz.

1-teorema. Agar $\varphi^{(1)}(x),\varphi^{(2)}(x),...,\varphi^{(m)}(x)$ vektor-funksiyalarning har biri biror I intervalda

$$\frac{dy}{dx}A(x)y \qquad \textbf{(3)}$$

tenglamaning yechimi bo`lsa, u holda bu funksiyalarning chiziqli kombinatsiyasi ham yechim bo`ladi.

I s b o t. Teoremaning shartiga ko`ra $L()\ L(\varphi^{(i)}(x))=0,\ \text{x}\in\text{I, i=1,...,m}$. Shuning uchun 2-xossadan foydalansak:

$$L\left(\sum_{i=1}^{m}C_i\varphi^{(i)}(x)\right)=\sum_{i=1}^{m}C_i L(\varphi^{(i)}(x))\equiv 0$$

2-teorema. Agar $y=\varphi(x)$ vektor-funksiya (3) tenglamaning biror I intervalda aniqlangan va $\varphi(x_0),\ \text{x}_0\in I$ boshlang`ich shartni qanoatlantiradigan yechimi bo`lsa, u holda I intervalda $\varphi(x)$ funksiya aynan nolga teng bo`ladi, ya`ni $\varphi(x)=0,\ \text{x}\in\text{I}$.

I s b o t. (3)-tenglamaning trivial y=0 yechimi mavjud. Ammo teoremaning shartiga qayd qilingan $y=\varphi(x)$ yechim shu trivial yechim bilan bir xil boshlang`ich qiymatlarga ega. Shuning uchun chiziqli sistemalar uchun mavjudlik va yagonalik teoremasiga ko`ra $y=\varphi(x)$ yechim trivial yechim bilan butun I intervalda ustma-ust tushadi, ya`ni $\varphi(x)\equiv 0,\ \text{x}\in\text{I}$.

3-teorema. Agar (3)-tenglamada A(x) matritsa haqiqiy bo`lib, shu tenglama $y=\varphi(x)+ig(x),\ \text{x}\in\text{I}$ kompleks yechimga ega bo`lsa, u holda har bir $\varphi(x),\ \text{g(x)},\ \text{x}\in\text{I}$ haqiqiy vektor-funksiyalar ham (3)-tenglamaning yechimi bo`ladi.

I s b o t. Haqiqattan, shart bo`yicha $L(\varphi(x)+ig(x))\equiv 0,\ \text{x}\in\text{I}.$ Bundan 1- va 2-

xossalarga ko`ra $L(\varphi(x)+ig(x))=L(\varphi(x)+iLg(x))=0,\ \mathrm{x}\in \mathrm{I}.$
Ammo kompleks funksiya nolga teng bo`lishi uchun uning haqiqiy va mavhum qismi nolga teng bo`lishi zarur va yetarli. Shuning uchun $L(\varphi(x))\equiv 0,\ \ \mathrm{L(g(x))}\equiv 0,\ \mathrm{x}\in \mathrm{I}$

Vektor-funksiyalarning chiziqli bog`liqligi va erkliligi.
Keyingi mulohazalarda muhim rol o`ynaydigan vektor-funksiyalarning chiziqli bog`liqligi va erkliligi tushunchasini kiritamiz.

**1-ta`rif.** Agar bir vaqtda nolga teng bo`lmagan shunday $\alpha_1,\alpha_2,...,\alpha_k$ o`zgarmas sonlar mavjud bo`lsaki, ular uchun biror I intervalda ushbu $\alpha_1\varphi^{(1)}(x)+\alpha_2\varphi^{(2)}(x)+...+\alpha_k\varphi^{(k)}(x)\equiv 0$ ayniyat o`rinli bo`lsa, u holda

$$\varphi^{(1)}(x),\varphi^{(2)}(x),...,\varphi^{(k)}(x),\varphi^{(j)}(x)=\begin{bmatrix}\varphi_1^{(j)}(x)\\ \bullet\\ \bullet\\ \bullet\\ \varphi_n^{(j)}(x)\end{bmatrix},\ \ \mathrm{j=1,2,...,m} \qquad \textbf{(4)}$$

vektor-funksiyalar I intervalda chiziqli bog`liq deyiladi. Agar yuqoridagi ayniyat faqat $\alpha_1=\alpha_2=...=\alpha_k=0$ bo`lgandagina o`rinli bo`lsa, u holda $\varphi^{(1)}(x),\varphi^{(2)}(x),...,\varphi^{(k)}(x)$ vektor- funksiyalar I intervalda chiziqli erkli deyiladi.

1-ta`rifdan ko`rinadiki, agar $\varphi^{(1)}(x),\varphi^{(2)}(x),...,\varphi^{(k)}(x)$ vektor-funksiyalardan birortasi, masalan $\varphi^{(i)}(x),\ 1\le i\le \mathrm{k}$ vektor-funksiya nol vektor-funksiya bo`lsa, u holda $\varphi^{(1)}(x),\varphi^{(2)}(x),...,\varphi^{(k)}(x)$ funksiyalar chiziqli bog`liq bo`ladi. Buni isbot etish uchun $\alpha_1=\alpha_2=...=\alpha_{i-1}=\alpha_{i+1}=...=\alpha_k=0,\ \ \alpha_i\ne 0$ deb tanlash yetarli.

M i s o l. Ushbu $\varphi^{(1)}(x)=\begin{pmatrix}\cos(x)\\ \sin(x)\end{pmatrix},\ \ \varphi^{(2)}(x)=\begin{pmatrix}-\sin(x)\\ \cos(x)\end{pmatrix}$ vektorlar ixtiyoriy I intervalda chiziqli erkli. Haqiqattan, ular chiziqli bog`liq bo`lsin deylik. U holda $\alpha_1,\alpha_2,\ \alpha_1^2+\alpha_2^2\ne 0$ sonlar uchun I intervalda $\alpha_1\varphi^{(1)}(x)+\alpha_2\varphi^{(2)}(x)+...+\alpha_k\varphi^{(k)}(x)\equiv 0,\ \mathrm{x}\in \mathrm{I}$ yoki

$$\begin{cases}\alpha_1\cos x-\alpha_2\sin x=0, & \mathrm{x}\in \mathrm{I}\\ \alpha_1\sin x+\alpha_2\cos x=0, & \mathrm{x}\in \mathrm{I}\end{cases}$$

ayniyatlar o`rinli bo`lishi kerek.

Ammo I intervaldan olingan ixtiyoriy x uchun α_1 va α_2 larga nisbatan ushbu

$$\begin{cases}\alpha_1\cos x-\alpha_2\sin x=0,\\ \alpha_1\sin x+\alpha_2\cos x=0\end{cases}$$

sistema matritsaning determinanti 1 ga teng. Shuning uchun bu sistema ixtiyoriy $x\in I$ uchun faqat trivial yechimga ega bo`ladi, ya`ni $\alpha_1=\alpha_2=0.$ Bu tegishli vektor-funksiyalar chiziqli bog`liq bo`lsin degan farazdan kelib chiqqan ziddiyat. Demak, olingan vektor-funksiyalar chiziqli erkli.

Endi ushbu

$$\varphi^{(1)}(x), \varphi^{(2)}(x), ..., \varphi^{(k)}(x), \varphi^{(j)}(x) = \begin{bmatrix} \varphi_1^{(j)}(x) \\ \bullet \\ \bullet \\ \bullet \\ \varphi_n^{(j)}(x) \end{bmatrix}, \ \text{j=1,2,...,m}$$

vektor-funksiyalar biror I da aniqlangan bo`lib, 4-tenglamaning yechimlari bo`lsin. Quyidagi teorema o`rinli.

4-teorema. Agar x ning I intervaldan olingan kamida bitta x_0, $x_0 \in I$ qiymati uchun

$$\varphi^{(1)}(x_0), \varphi^{(2)}(x_0), ..., \varphi^{(m)}(x_0) \qquad \textbf{(5)}$$

vektor chiziqli bog`liq bo`lsa, u holda 4-yechimlar I intervalda chiziqli bog`liq bo`ladi. Boshqacha aytganda, agar 4- yechimlar I da erkli bo`lsa, u holda x ning I intervaldan olingan birorta ham qiymatida 4-yechimlar chiziqli bo`lmaydi.

I s b o t. (5)- vektorlar chiziqli bog`iq bo`lsin, ya`ni $\alpha_1, \alpha_2, ..., \alpha_m$, $\sum\limits_{i=1}^{m} \alpha_i^2 \neq 0$ sonlar uchun

$$\alpha_1 \varphi^{(1)}(x) + \alpha_2 \varphi^{(2)}(x) + ... + \alpha_m \varphi^{(m)}(x) = 0$$

tenglik o`rinli. Endi

$$\varphi(x) = \alpha_1 \varphi^{(1)}(x) + \alpha_2 \varphi^{(2)}(x) + ... + \alpha_m \varphi^{(m)}(x)$$

deb belgilaylik. 1-teoremaga ko`ra shu $\varphi(x)$ funksiya teoremaning (3)-tenglamaning yechimi bo`ladi. Ammo $\varphi(x)$ funksiya teoremaning shartiga ko`ra $x = x_0$ nuqtada nolga teng. Shuning uchun 1-teoremaga ko`ra $\varphi(x) \equiv 0, \ x \in \mathrm{I}$ $\varphi(x) = \alpha_1 \varphi^{(1)}(x) + \alpha_2 \varphi^{(2)}(x) + ... + \alpha_m \varphi^{(m)}(x) \equiv 0, \ x \in \mathrm{I}$. Teorema isbot bo`ldi.

Yechimlarning fundamental sistemasi.

2-ta`rif. Agar biror I intervalda aniqlangan

$$\varphi^{(1)}(x), \varphi^{(2)}(x), ..., \varphi^{(n)}(x), \varphi^{(i)}(x) = \begin{bmatrix} \varphi_1^{(i)}(x) \\ \bullet \\ \bullet \\ \bullet \\ \varphi_n^{(i)}(x) \end{bmatrix}, \ \text{i=1,2,...,n} \qquad \textbf{(6)}$$

vektor-funksiyalar sistemasi (3)-tenglamaning chiziqli erkli yechimlar sistemasini tashkil etsa, u holda bu sistema yechimlarining fundamental sistemasi, yoki qisqacha, *fundamental sistema* deyiladi.

5-teorema. Differensial tenglamaning chiziqli bir jinsli sistemasi uchun fundamental sistema mavjud.

I s b o t. Chiziqli bir jinsli (3)-sistemani olamiz. Yana biror $a^{(1)}, a^{(2)}, ..., a^{(n)}$ o`zgarmas vektorlar sistemasi chiziqli erkli bo`lsin. O`zgarmas vektorlarning bunday sistemasi mavjud. Buni ko`rsatish uchun $a^{(1)} = \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \\ \vdots \\ \vdots \\ \vdots \\ 0 \end{pmatrix}$, $a^{(2)} = \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \\ \vdots \\ \vdots \\ \vdots \\ 0 \end{pmatrix}, ..., a^{(n)} = \begin{pmatrix} 0 \\ 0 \\ \vdots \\ \vdots \\ \vdots \\ n \end{pmatrix}$ deb tanlash yetarli, chunki bu vektorlardan tuzilgan matritsa determinanti noldan farqli (1 ga teng). Endi ushbu

$$\varphi^{(1)}(x_0)=a^{(1)},...,\varphi^{(n)}(x_0)=a^{(n)}$$

boshlang`ich shartlarni qanoatlantiradigan (6)-yechimlar sistemasini ko`ramiz. Tanlashga ko`ra $\varphi^{(1)}(x_0),...,\varphi^{(n)}(x_0)$ vektorlar chiziqli erkli. Demak, 4-teoremaga asosan (6)-yechimlar sistemasi chiziqli erkli, ya`ni shu yechimlar sistemani tashkil etadi.

26- mavzu.O`zgarmas koeffitsyientli chiziqli differentsial tenglamalar sistemasi. (2 soat)

Reja:

3. O`zgarmaskoeffitsyientli chiziqli differentsial tenglamalar sistemasi.

Noma`lumni yo`qotish usuli. Bu usul umuman olganda sistemani tartibi yuqoriroq bo`lgan bir noma`lumli tenglamaga keltiradi. Sistemani bu usul bilan yechish faqat sodda sistemalar uchungina yaraydi, xolos.

Misol. $\begin{cases}\dot{x}=x+y\\ \dot{y}=3y-2x\end{cases}$ sistemani yeching

Yechimi. Birinchi tenglikdan $y=\dot{x}-x$ ni olib, ikkinchi tenglamaga qo`yamiz va

$$\dot{y}=\ddot{x}-\dot{x};\quad \ddot{x}-\dot{x}=3(\dot{x}-x)-2x;\quad \ddot{x}-4\dot{x}+5x=0$$

bir noma`lumli ikkinchi tartibli chiziqli tenglamani olamiz. Xarakteristik tenglamasi $\lambda^2-4\lambda-5=0$ bo`lib, $\lambda_{1,2}=2\pm1$ bo`ladi. Bu tenglamaning yechimi

$$x=e^{2t}\left(C_1\cos t+C_2\sin t\right)$$

ko`rinishda bo`ladi. Bundan foydalanib, birinchi tenglikdan y ni topib olish mumkin:

$$y=\dot{x}-x=\left(-C_1\sin t+C_2\cos t+2C_1\cos t+2C_2\sin t\right)e^{2t}-$$

$$-\left(C_1\cos t+C_2\sin t\right)e^{2t}=\left[\left(C_1+C_2\right)\cos t-\left(C_1-C_2\right)\sin t\right]e^{2t}.$$

Shunday qilib, tenglamaning yechimi

$$x=e^{2t}\left(C_1\cos t+C_2\sin t\right),$$

$$y=e^{2t}\left[\left(C_1+C_2\right)\cos t-\left(C_1-C_2\right)\sin t\right]$$

bo`ladi.

2. Bizga

$$\begin{aligned}&\dot{x}=a_{11}x_1+\ldots+a_{1n}x_n,\\&\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\\&\dot{x}_n=a_{n1}x_1+\ldots+a_{nn}x_n\end{aligned}\qquad (1$$

ko`rinishdagi, yoki vektor formada

$$\dot{X}=AX,\qquad (2$$

tenglamalar sistemasi berilgan bo`lsin. Bu erda $X=\begin{pmatrix}x_1\\ \vdots\\ x_n\end{pmatrix}$ – vektor, $A=\begin{pmatrix}a_{11}\ldots a_{1n}\\ a_{n1}\ldots a_{nn}\end{pmatrix}$ –

matritsa. Bu sistemani yechish uchun uning xarakteristik tenglamasini tuzamiz:

$$\begin{pmatrix} a_{11}-\lambda & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22}-\lambda & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn}-\lambda \end{pmatrix} = 0. \qquad (3$$

$\lambda_i,\ i=1,\dots,m$ – (3) tenglamaning k_i karrali ildizlari bo\`lsin $\left(k_1+\dots+k_m=n\right)$. Har bir λ_i ga

$$x^i\left(t\right)=Q^i\left(t\right)e^{\lambda_i t},\quad i=1,\dots,m \qquad (4$$

funksiyani mos qo\`yamiz. Bu erda $Q^i\left(t\right)$ vektor funksiya bo\`lib, har bir komponenti tartibi k_i-1 dan katta bo\`lmagan noma\`lum koeffitsientli ko\`phaddan iborat. (1) sistemaga $\lambda_i$ ga mos kelgan yechimini (4) ko\`rinishda qidiramiz. Uni (1) sistemaga qo\`yib, $e^{\lambda_i t}$ larga qisqartirilgandan keyin noma\`lum koeffitsientlarni topish uchun nk_i ga tenglamadan iborat chiziqli oddiy algebraik sistemani olamiz. Bu sistemani yechib, (4) ning koeffitsientlarini aniqlab olamiz. Umumiy yechim esa

$$x=\sum_{i=1}^{m}C_1x^i\left(t\right) \qquad (5$$

ko\`rinishda bo\`ladi. Bu bayon qilingan metod e***yler metodi*** deb ham yuritiladi.

Misol. Quyidagi sistemani yeching.

$$\dot{x}=2x+y+z,$$
$$\dot{y}=-2x-z,$$
$$\dot{z}=2x+y+2z.$$

Yechimi. Koeffitsientlardan tuzilgan matritsa

$$A=\begin{pmatrix} 2 & 1 & 1 \\ -2 & 0 & -1 \\ 2 & 1 & 1 \end{pmatrix}$$

ko\`rinishda bo\`lib, uning xos sonlari, ya\`ni xarakteristik tenglamaning ildizlari $\lambda_1=2,\ \lambda_2=\lambda_3=1.$ eyler metodi bilan sistemani echamiz.

$\lambda_1=2$ oddiy xos songa mos kelgan (4) ko\`rinishdagi funksiya (yechim) quyidagicha bo\`ladi:

$$x=S_1e^{2t},\quad y=S_2e^{2t},\quad z=S_3e^{2t}.$$

Buni berilgan sistemaga qo\`yib,

$$2S_1=2S_1+S_2+S_3,$$
$$2S_2=-2S_1-S_3,$$
$$2S_3=2S_1+S_2+2S_3,$$

sistemani olamiz va bundan $S_2=-2S_1,\ S_3=2S_1,\ S_1$ – ixtiyotiy son ekanligini topamiz.

$\lambda_2=\lambda_3=1$ ikki karrali xos songa mos kelgan (4) ko\`rinishdagi yechim quyidagicha bo`ladi:

$$x=\left(a_1+a_2t\right)e^t,$$

$$y=\left(b_1+b_2t\right)e^t,$$

$$z=\left(c_1+c_2t\right)e^t.$$

Buni tenglamaga qo`yib e^t ga qisqartirib,

$$a_1+a_2=2a_1+b_1+c_1 \quad \text{(I)} \qquad a_2=2a_2+b_2+c_2 \quad \text{(II)}$$

$$b_1+b_2=-2a_1-c_1 \quad \text{(III)} \qquad b_2=-2a_1-c_2 \quad \text{(IV)}$$

$$c_1+c_2=2a_1+b_1+2c_1 \quad \text{(V)} \qquad c_2=2a_2+b_2+2c_2 \quad \text{(VI)}$$

sistemani olamiz. Ikkinchi va to`rtinchi tenglamalardan $a_2=0,\ b_2+c_2=0$ birinchi va uchinchidan esa $a_1+b_2=0$ va beshinchisidan $c_1=b_2-b_1$ ifodalarga ega bo`lamiz. SHunday qilib, $\lambda_2=\lambda_3=1$ ildiziga mos kelgan

$$x=-b_2e^t,$$

$$y=\left(b_1+b_2t\right)e^t,$$

$$z=\left(b_2-b_1-b_2t\right)e^t$$

yechimlarni olamiz.

Topilgan yechimlarning yig‘indisini olsak, sistemaning umumiy yechimi

$$x=C_1e^{2t}-C_2e^t,$$

$$y=-2C_1e^{2t}+\left(C_3+C_2t\right)e^t,$$

$$z=2C_1e^{2t}+\left(C_2-C_3-C_2t\right)e^t$$

ko`rinishda bo`ladi, bu erda $C_1,\ C_2,\ C_3$ ixtiyoriy o`zgarmaslar.

3. Agar λ xarakteristik tenglamaning kompleks ildizi bo`lsa, yuqorida berilgan eyler metodi orqali topilgan yechim ham kompleks funksiyalar orqali ifodalanadi. Agar (1) tenglamaning koeffitsientlari haqiqiy sonlardan iborat bo`lsa, yechimni ham haqiqiy funksiyalar orqali ifodalash mumkin. Buning uchun $\lambda=\alpha+\beta i$ kompleks ildizga mos kelgan kompleks yechimning haqiqiy va mavhum qismlari chiziqli erkli yechimlar bo`lishidan foydalanish kerak.

Misol. $\begin{cases}\dot{x}=4x-y\\ \dot{y}=5x+2y\end{cases}$ sistemani yeching.

Yechimi. $\begin{vmatrix}4-\lambda & -1\\ 5 & 2-\lambda\end{vmatrix}=0,\ \lambda^2-6\lambda+13=0$ xarakteristik tenglamani tuzib, $\lambda_{1,2}=3\pm 2i$ ildizlarni olamiz. $\lambda_1=3+2i$ ildizga mos kelgan xos vektorni topaylik:

$(1-2i)a-b=0$, $5a-(1+2i)b=0$

$a=1$, $b=1-2i$ deb olib, quyidagi xususiy yechimni topamiz:

$$x=e^{(3+21)t},\quad y=\left(1-21\right)e^{(3+21)t}.$$

Berilgan sistemaning koeffitsientlari haqiqiy bo`lgani uchun $\lambda_2=3-2i$ ildizga mos kelgan yechimni qidirib o`tirishning hojati yo`q, chunki u topilgan yechim bilan o`zaro qo`shma kompleks funksiya bo`ladi. Ikkita haqiqiy yechim sifatida topilgan kompleks yechimning haqiqiy va mavhum qismlarini olish kerak.

$e^{(3+21)t} = e^{3t}\left(\cos 2t + i\sin 2t\right)$ bo`lgani uchun

$$x_1 = \operatorname{Re} e^{(3+21)t} = e^{3t}\cos 2t,$$

$$y_1 = \operatorname{Re} e\left(1-21\right)e^{(3+21)t} = e^{3t}\left(\cos 2t + 2\sin 2t\right),$$

$$x_2 = \operatorname{Im} e^{(3+21)t} = e^{3t}\sin 2t,$$

$$y_2 = \operatorname{Im}\left(1-21\right)e^{(3+21)t} = e^{3t}\left(\sin 2t - 2\cos 2t\right)$$

ifodalarni olamiz. Bulardan esa berilgan sistemaning umumiy yechimini hosil qilamiz:

$$x = C_1x_1 + C_2x_2 = C_1e^{3t}\cos 2t + C_2e^{3t}\sin 2t,$$

$$y = C_1y_1 + C_2y_2 = C_1e^{3t}\left(\cos 2t + 2\sin 2t\right) + C_2e^{3t}\left(\sin 2t - 2\cos 2t\right).$$

4. Ushbu

$$\begin{aligned} &a_{10}x^{(n)} + a_{11}x^{(n-1)} + \ldots + a_{1n}x + b_{10}y^{(n)} + b_{11}y^{(n-1)} + \ldots + b_{1n}y = 0, \\ &a_{20}x^{(n)} + a_{21}x^{(n-1)} + \ldots + a_{2n}x + b_{20}y^{(n)} + b_{21}y^{(n-1)} + \ldots + b_{2n}y = 0 \end{aligned} \qquad (6$$

ko`rinishdagi normal holga keltirilmagan tenglamani yechish uchun xarakteristik tenglamani tuzib, uni yechish kerak:

$$\begin{vmatrix} a_{10}\lambda^n + a_{11}\lambda^{n-1} + \ldots + a_{1n} & b_{10}\lambda^n + b_{11}\lambda^{n-1} + \ldots + b_{1n} \\ a_{20}\lambda^n + a_{21}\lambda^{n-1} + \ldots + a_{2n} & b_{20}\lambda^n + b_{21}\lambda^{n-1} + \ldots + b_{2n} \end{vmatrix} = 0. \qquad (7$$

Bu tenglamaning ildizlari topilgandan keyin, berilgan tenglamani yechimini xuddi 2-punktdagidek qidirilaveradi.

Misol. $\begin{cases} \dot{x} + x + \dot{y} = 0 \\ \ddot{x} - x + \ddot{y} + y = 0 \end{cases}$ sistemani yeching.

Yechimi. Xarakteristik tenglamasi quyidagi ko`rinishda bo`ladi:

$$\begin{vmatrix} \lambda + 1 & \lambda \\ \lambda^2 - 1 & \lambda^2 + 1 \end{vmatrix} = 0, \quad \lambda^2 + 2\lambda + 1 = 0.$$

Bundan ikki karrali $\lambda = -1$ ildizni hosil qilamiz.

Endi berilgan tenglamaning yechimini 2-punktdagidek

$$x = \left(a + bt\right)e^{-t}$$

$$y = \left(c + dt\right)e^{-t}$$

ko`rinishda qidiramiz. Buni sistemaning birinchi tenglamasiga qo`yib

$$\left(b - a - bt\right)e^{-t} + \left(a + bt\right)e^{-t} + \left(d - c - dt\right)e^{-t} = 0$$

ifodani, undan esa $d = 0,\ b = c$ ni olamiz. Sistemaning ikkinchi tenglamasidan ham xuddi shunday munosabatlarni olamiz, buni hisoblab ko`rishni o`quvchilarning o`ziga qoldiramiz.

Shunday qilib, umumiy yechim

$$x = \left(C_1t + C_2\right)e^{-t},$$

$$y = C_1e^{-t}$$

ko`rinishda bo`lar ekan, bu yerda C_1 va C_2 ixtiyoriy o`zgarmaslar.

5. $\dot{x}_i = a_{i1}x_1 + \ldots + a_{in}x_n + f_i(t), \quad i = 1,\ldots,n$ (8

chiziqli bir jinsli bo`lmagan tenglamaning xususiy yechimini ham $f_i(t)$ funksiyalar $b_0 + b_1 t + +b_m t^m,\ e^{\alpha t},\ \cos\beta t,\ \sin\beta t$ ko`rinishdagi funksiyalarning yiғindisi, ko`paytmasi va ularning yiғindisidan iborat bo`lsa, noma`lum koeffitsientlar usuli bilan qidirish mumkin. Albatta, bu erda ham (ayrim o`zgarishlar bilan) xuddi o`zgarmas koeffitsientli tenglamalardagidek ish qilinadi. Agar $f_i(t) = P_m(t)e^{\gamma t}$ bo`lib, $P_{m_i}(t)$ – m_i tartibli ko`phad bo`lsa, (8) tenglamaning xususiy yechimi $t^s Q_m(t)e^{\gamma t}$ ko`rinshda emas,

$$x_i = Q^i_{m+s}(t)e^{\gamma t}, \quad i = 1,\ldots,n$$

ko`rinishda qidiriladi, bu erda $Q^i_{m+s}(t) - m+s$ tartibli, noma`lum koeffitsientli ko`phad; $m = \max m_i;$ agar $\gamma$ xarakteristik tenglamaning ildizi bo`lmasa $s = 0,$ agar γ xarakteristik tenglamaning ildizi bo`lmasa, *s* sifatida bu ildizning karraligini olish kerak. (9) dagi noma`lum koeffitsientlar (9) ifodani (8) tenglamaga qo`yib, o`xshash hadlar koeffitsientlarini tenglashtirish yordamida topiladi.

$f_i(t)$ funksiya $e^{\alpha t}\cos\beta t$ va $e^{\alpha t}\sin\beta t$ funksiyalarni o`z ichiga olgan bo`lib, $\gamma = \alpha + i\beta$ xarakteristik tenglamaning ildizi bo`lganda ham (9) ifodadagi ko`phadning tartibi yuqoridagiga o`xshash aniqlanadi.

Misol. $\begin{cases} \dot{x} = y + \sin t \\ \dot{y} = -x \end{cases}$ sitemani yeching.

Yechimi. $\begin{cases} \dot{x} = y \\ \dot{y} = -x \end{cases}$ bir jinsli sistemaning umumiy yechimini topib olamiz. Bu tenglamaning xarakteristik tenglamasini tuzamiz:

$$\begin{vmatrix} -\lambda & 1 \\ -1 & \lambda \end{vmatrix} = 0.$$

Uning ildizlari $\lambda_1 = i$ va $\lambda_2 = -i.$ Demak, bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi

$$x = C_1\cos t + C_2\sin t,$$

$$y = -C_1\sin t + C_2\cos t$$

ko`rinishda bo`lar ekan.

Bizning misolimizda $\alpha = 0,\ \beta = 1,\ \gamma = \alpha + i\beta = i$ xarakteristik tenglamaning bir karrali ildizi bo`lgani uchun, berilgan tenglamaning xususiy yechimini

$$x = (a_1 + a_2 t)\sin t + (a_3 + a_4 t)\cos t,$$

$$y = (b_1 + b_2 t)\sin t + (b_3 + b_4 t)\cos t$$

ko`rinishda qidiramiz. Buni tenglamalar sistemasiga qo`yib a_i va b_i larni topish uchun tenglamalarga ega bo`lamiz:

$$a_1 + a_4 = b_3,\ \ a_2 - a_3 = b_1 + 1,\ \ b_2 + a_4 = 0,\ \ a_2 - b_4 = 0,\ \ b_1 + b_4 + a_3 = 0.$$

Bu tenglamalardan

$$a_1 = a_3 = a_4 + b_2 = b_3 = 0, \;\; b_1 = -1/2, \;\; a_2 = b_4 = 1/2$$

ifodalarni olamiz, shunday qilib, xususiy yechim

$$x = t/2 \cdot \sin t,$$

$$y = -1/2 \cdot \sin t + t/2 \cdot \cos t$$

ko`rinishda, berilgan tenglamalar sistemasining umumiy yechimi esa

$$x = C_1 \cos t + C_2 \sin t + t/2 \cdot \sin t,$$

$$y = -C_1 \sin t + C_2 \cos t - 1/2 \cdot \sin t + t/2 \cdot \cos t$$

bo`lar ekan.

27- mavzu.Matritsa ko`rinishdagi chiziqli tenglamalar sistemasi. Koshi integral formulasi. Eksponentsial matritsa. Matritsali differentsial tenglamalarni integrallash. (2 soat)

1-ma`ruza (2 soat)

Reja:

1. Matritsa ko`rinishdagi chiziqli tenglamalar sistemasi.
2. Koshi integral formulasi.
3. Eksponentsial matritsa.
4. Matritsali differentsial tenglamalarni integrallash.

(3)-tenglamaning I intervalda aniqlangan n ta yechimi $\varphi^{(1)}(x),...,\varphi^{(n)}(x)$ berilgan bo`lsin. Bu vector-funksiyalardan ushbu

$$Z(x) = \begin{pmatrix} \varphi_1^{(1)}(x)...\varphi_1^{(k)}(x)...\varphi_1^{(n)}(x) \\ \varphi_2^{1}(x)...\varphi_2^{(k)}(x)...\varphi_2^{(n)}(x) \\ . \;\; . \;\; . \;\; . \;\; . \;\; . \;\; . \;\; . \;\; . \;\; . \;\; . \;\; . \\ \varphi_n^{1}(x)...\varphi_n^{(k)}(x)...\varphi_n^{(n)}(x) \end{pmatrix} \qquad \textbf{(7)}$$

matritsani topamiz. Unda birinchi ustunda $\varphi^{(1)}(x)$ vektorning koordinatalari, k-ustunda $\varphi^{(k)}(x)$, k=2,...,n vektorning koordinatalari joylashgan. Shu matritsaning determinanti (3)-sistema uchun *Vronskiy determinanti* deyiladi va W(x) yoki $W\left[\varphi^{(1)}, \; ... \; , \varphi^{(n)}\right]$ deb belgilanadi, ya`ni det Z(x)=W(x).

Ravshanki, agar $\varphi^{(1)}(x),...,\varphi^{(n)}(x)$ yechimlar chiziqlar erkli bo`lsa, u holda Vronskiy determinanti x ning I dan olingan bironta ham qiymatida nolga aylanmaydi. Haqiqattan, $\varphi^{(1)}(x),...,\varphi^{(n)}(x)$ vektor-funksiyalar chiziqli erkli bo`lgani uchun ushbu $\alpha_1\varphi^{(1)}(x) + \alpha_2\varphi^{(2)}(x) + ... + \alpha_n\varphi^{(n)}(x) \equiv 0, \;\; x \in I$ ayniyat faqat $\alpha_1 = \alpha_2 = ... = \alpha_n = 0,$ bo`lgandagina o`rinli. I intrvaldan olingan ixtiyoriy tayinlangan x uchun $\sum_{i=1}^{n} \alpha_i \varphi_j^i(x) = 0,$ j=1,...,n sistemani ($\alpha_1,...,\alpha_n$ larga nisbatan) ko`raylik. U bir jinsli bo`lib, faqat trivial $\alpha_1 = \alpha_2 = ... = \alpha_n = 0,$ yechimga ega. Demak, bu sistemaning determinanti uchun $W(x) \neq 0, \;\; x \in I$ munosabat o`rinli. Bu mulohazalardan yuqoridagi yechimlar chiziqli bo`lsa, $W(x) \equiv 0, \;\; x \in I$ ayniyat o`rinli bo`lishi kelib chiqadi. Yechimlar fundamental sistemani tashkil etsa, tegishli (7)-matritsa *integral matritsa* yoki *fundamental matritsa* deb yuritiladi.

Endi Z(x) matritsaning ustunlari (3)-tenglamaning yechimlari bo`lgani uchun shu Z(x) matritsa ushbu

$$\frac{dZ}{dx} = A(x)Z \qquad \textbf{(8)}$$

matritsali tenglamaning yechimi bo`ladi. Agar (8)-matritsali tenglamaning determinanti noldan farqli matritsali yechimini topsak, bu bilan (3)-vektor-matritsali tenglamaning fundamental sistemasini topgan bo`lamiz. Avval (8)-matritsali tenglamaning bitta xossasini keltiramiz:

1-lemma. Agar $Z^*(x)$ matritsa (8)-tenglamaning I intervalda aniqlangan biror matritsali yechimi bo`lsa, u holda tartibi n bo`lgan ixtiyoriy o`zgarmas C matritsa uchun $Z^*(x)$C matritsa ham yechim bo`ladi.

Isboti juda sodda. Haqiqatan, (8)-tenglamaning ikki tomonini o`ngdan C matritsaga ko`paytiramiz:

$$\frac{dZ^*(x)}{dx}C \equiv A(x)Z^*(x)C$$

yoki C=const bo`gani uchun

$$\frac{d(Z^*(x)C)}{dx} \equiv A(x)(Z^*(x)C).$$

E s l a t m a. (8)-matritsali tenglamaning ixtiyoriy matritsali yechimi ZC (C-ixtiyoriy $n \times n$ matritsa) fundamental matritsa bo`lavermaydi.

5-teorema. Agar Z(x) matritsa I intervalda aniqlangan uzluksiz va uzluksiz differensiallanadigan ixtiyoriy $\varphi^{(j)}(x)$, j=1,...,n vektor yechimlardan tuzilgan bo`lib, determinanti I da noldan farqli bo`lsa, u holda bu Z(x) matritsa (3)-chiziqli tenglamaning I intervalda aniqlangan fundamental sistemasi bo`ladi.

I s b o t. Avvalo det $Z(x) \neq 0$, x $\in$ I. Shuning uchun Z(x) matritsa fundamental bo`ladi. Z(x) matritsa yechim bo`lgani uchun ushbu

$$\frac{dZ(x)}{dx} \equiv A(x)Z(x), \ x \in \mathrm{I} \qquad \textbf{(9)}$$

ayniyatga egamiz. Bunda Z(x) matritsaning determinanti shart bo`yicha noldan farqli. Shuning uchun bu matritsaga teskari $Z^{-1}(x)$ matritsa mavjud, ya`ni ushbu $Z(x)Z^{-1}(x) = Z^{-1}(x)Z(z) = E$ (E-birlik matritsa) tenglikni qanoatlantiradigan $Z^{-1}(x)$ matritsa mavjud. Bunda $Z^{-1}(x)$ matritsa, masalan,

$$Z^{-1}(x) = \frac{1}{\det Z(x)} \cdot \begin{pmatrix} Z_{11}(x) \ ... \ Z_{n1}(x) \\ . \ . \ . \ . \ . \ . \ . \ . \ . \ . \ . \ . \ . \\ Z_{1n}(x) \ ... \ Z_{nn}(x) \end{pmatrix} \qquad \textbf{(10)}$$

formula bilan topilishi mumkin, bunda $Z_{ij}(x) - Z(x)$ matritsaning $\varphi_i^j(x)$, i,j=1,....,n elementning *algebraik to`ldiruvchisi*. Endi (9)-ayniyatning ikki tomonini o`ngdan $Z^{-1}(x)$ ga ko`paytiramiz:

$$\frac{dZ(x)}{dx} \cdot Z^{-1} \equiv A(x)$$

Bu ayniyatda A(x) matritsaning $a_{ij}(x)$ elementlari yagona usul bilan aniqlanadi. $\frac{dZ(x)}{dx}$ va $Z^{-1}(x)$ matritsalarning elementlari I intervalda uzluksiz bo`lgani uchun A(x) matritsaning elementlari ham shu intervalda uzluksiz. Teorema isbot etildi.

Ostrogradskiy-Liuvill` formulasi.

6-teorema. Agar (8)-matritsali tenglamada A(x) matritsa I intervalda uxluksiz bo`lib, Z(x) matritsa (8)-tenglamaning shu intervalda aniqlangan matritsali yechimi bo`lsa, u holda I intervaldan olingan ixtiyoriy x va x_0 lar ushbu

$$\det Z(x) = \det Z(x_0) e^{\int_x^{x_0} SpA(\tau)d\tau} \qquad \textbf{(11)}$$

formula o`rinli. Bunda $SpA(\tau)$ belgi $A(\tau)$ matritsaning bosh diagonal elementlari yig`indisidan iborat bo`lib, $A(\tau)$ *matritsaning izi* deyiladi.

(11)-formulani Ostogradskiy-Liuvill` formulasi deb yuritiladi. Uni Vronskiy determinanti orqali ham yozish mumkin:

$$W(x) = W(x_0) e^{\int_{x_0}^{x} SpA(\tau)d\tau} \qquad \textbf{(12)}$$

I s b o t. (12)-formulani isbotlash uchun W(x) determinantdan x bo`yicha hosila olamiz. Analizdan ma`lumki, W(x) ning hosilasi

$$\frac{dW(x)}{dx} = W_1(x) + ... + W_n(x) \qquad \textbf{(13)}$$

formula bilan hisoblanadi. Bu formulada $W_i - n -$ tartibli determinant bo`lib, W(x) determinantdan i-yo`li bilan farq qiladi. Bu i-yo`l esa W(x) ning i-yo`l elementlarini differensiallash bilan hosil qilinadi. Albatta, i-yo`l o`rniga i-ustun to`g`risida gapirsak ham mulohazalar o`rinli bo`laveradi. Endi $W_i(x)$ ni yozaylik:

$$W_i(x) = \begin{vmatrix} z_{11}(x) & z_{12}(x) & ... & z_{1n}(x) \\ z_{21}(x) & z_{22}(x) & ... & z_{2n}(x) \\ . & . & . & . \\ z_{i1}^{`}(x) & z_{i2}^{`}(x) & ... & z_{in}^{`}(x) \\ . & . & . & . \\ z_{n1}(x) & z_{n2}(x) & ... & z_{nn}(x) \end{vmatrix}$$

Bunda i-yo`ldagi hosilalar o`rniga (8)-matritsali tenglamaning koordinatalar orqali yozilishini nazarda tutib, tegishli ifodalarni qo`yamiz:

$$W_i(x) = \begin{vmatrix} z_{11}(x) & z_{12}(x) & ... & z_{1n}(x) \\ z_{21}(x) & z_{22}(x) & ... & z_{2n}(x) \\ . & . & . & . \\ \sum_{j=1}^{n} a_{ij} z_{j1}(x) & \sum_{j=1}^{n} a_{ij} z_{j2}(x) & ... & \sum_{j=1}^{n} a_{ij} z_{jn}(x) \\ . & . & . & . \\ z_{n1}(x) & z_{n2}(x) & ... & z_{nn}(x) \end{vmatrix}$$

Endi i-dan boshqa har bir k-yo`l, k=1,2…i-1,i+1,…,n elementlarini tegishli $a_{ik}$ ga ko`paytirib, i-yo`l elementlaridan ayirib tashlaymiz. Natijada quyidagiga ega bo`lamiz:

$$W_i(x) = \begin{vmatrix} z_{11}(x) & z_{12}(x) & ... & z_{1n}(x) \\ z_{21}(x) & z_{22}(x) & ... & z_{2n}(x) \\ . & . & . & . \\ a_{ii} z_{i1}(x) & a_{ii} z_{i2}(x) & ... & a_{ii} z_{in}(x) \\ . & . & . & . \\ z_{n1}(x) & z_{n2}(x) & ... & z_{nn}(x) \end{vmatrix} = a_{ii} W(x), \quad \text{i=1,2,...,n}$$

Shunday qilib, (13)-formulani bunday tozish mumkin:

$$\frac{dW(x)}{dx}=\left(\sum_{i=1}^{n}a_{ii}\right)W(x) \quad \text{yoki} \quad \frac{dW(x)}{dx}=(S_pA)W(x) \qquad \textbf{(14)}$$

Biz Vronskiy determinanti uchun birinchi tartibli bir jinsli differensial tenglamani hosil qildik. Bu o`zgaruvchilari ajraladigan tenglama. Shuning uchun (14)-tenglamaning $W(x_0)=W_0$ boshlang`ich shartni qanoatlantiradigan yagona yechimi (12)-formula bilan yoziladi. Demak, Ostogradskiy-Liuvill` formulasi isbot bo`ldi.

7-teorema. Biror $Z(x)$, $n\times n$ matritsa (8)-tenglamaning I intervalda aniqlangan yechimi bo`lsin. Bu Z(x) matritsa fundamental bo`lishi uchun

$$\det Z(x)=W(x)\neq 0,\quad x\in I$$

munosabatning o`rinli bo`lishi zarur va yetarli.

1-natija. Agar Z(x) matritsa (8)-tenglamaning I intervalda aniqlang fundamental matritsasi bo`lsa, u holda ixtiyoriy maxsusmas (ya`ni determinanti noldan farqli) C $n\times n$-matritsa uchun Z(x)C matritsa ham (8)-tenglamaning fundamental matritsasi bo`ladi.

I s b o t. $\det Z(x)C=\det Z(x)\ \det C\neq 0$, (1-lemmadan).

2-natija. Agar $C=\begin{pmatrix}C_1\\C_2\\ \vdots\\ \vdots\\ \vdots\\ C_n\end{pmatrix}$ ixtiyoriy ($n\times 1$)-vektor bo`lsa, fundamental matritsa orqali (9)-vektor-matritsali yenglamaning yechimi

$$y(x)=Z(x)C$$

ko`rinishda yoziladi.

Misollar. 1. Ushbu

$$y_1^`=-y_2,\ \ y_2^`=y_1$$

sistema uchun

$$y^{(1)}(x)=\begin{pmatrix}\cos x\\ \sin x\end{pmatrix} \quad \text{va} \quad y^{(2)}(x)=\begin{pmatrix}-\sin x\\ \cos x\end{pmatrix}$$

vektor-funksiyalar $-\infty<x<+\infty$ intervalda yechim bo`ladi. Buni bevosita tekshirib ko`rish mumkin, $y^{(1)}(x)$ va $y^{(2)}(x)$ yechimlar fundamental sistemani tashkil etadi. Haqiqattan, bu yechimlardan Vronskiy determinantini tuzamiz:

$$W(x)=\begin{vmatrix}\cos x & \text{-sinx}\\ \sin x & \text{cosx}\end{vmatrix}=\cos^2 x+\sin^2 x=1\neq 0$$

Demak, $W(x)\neq 0,\ -\infty<x<+\infty$. Shuning uchun $y^{(1)}(x)$ va $y^{(2)}(x)$ yechimlar fundamental sistemani tashkil etadi. Berilgan sistemada $A(x)=\begin{pmatrix}0 & \text{-1}\\ 1 & 0\end{pmatrix}$. Shunday qilib, $\begin{pmatrix}\cos x & \text{-sinx}\\ \sin x & \text{cosx}\end{pmatrix}$ matritsa

$$\frac{dZ}{dx}=\begin{pmatrix}0 & \text{-1}\\ 1 & 0\end{pmatrix}Z` \qquad \textbf{(15)}$$

matritsali tenglamaning fundamental matritsasi bo`ladi. Endi fundamental matritsasi $Z(x)=\begin{pmatrix}\cos x & \text{-sinx}\\ \sin x & \text{cosx}\end{pmatrix}$

bo`lgan chiziqli bir jinsli sisteemani tuzaylik. Ravshanki,

$$\frac{dZ(x)}{dx}=\begin{pmatrix}-\sin x & \text{-cosx}\\ \cos x & \text{-sinx}\end{pmatrix}$$

Endi $Z^{-1}(x)$ matritsani topamiz: avvalo $\det Z(x)=\begin{vmatrix}\cos x & \text{-sinx}\\ \sin x & \text{cosx}\end{vmatrix}=\cos^2 x+\sin^2 x=1$, algebraik to`ldiruvchilar $A_{11}=\cos x,\ A_{21}=\sin x,\ A_{12}=-\sin x,\ A_{22}=-\cos x.$ Shuning uchun $Z^{-1}(x)=\le\begin{pmatrix}A_{11} & A_{21}\\ A_{12} & A_{22}\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}\cos x & \text{sinx}\\ -\sin x & \text{cosx}\end{pmatrix}.$ Bundan

$$A(x)=\begin{pmatrix}a_{11} & a_{12}\\ a_{21} & a_{22}\end{pmatrix}=\frac{dZ(x)}{dx}Z^{-1}(x)=\begin{pmatrix}-\sin x & \text{-cosx}\\ \cos x & \text{-sinx}\end{pmatrix}\begin{pmatrix}\cos x & \text{sinx}\\ -\sin x & \text{cosx}\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}0 & \text{-1}\\ 1 & 0\end{pmatrix}$$

Shunday qilib, berilgan fundamental matritsaga yagona matritsali differensial tenglama mos keladi va u (14)-tenglama bilan ustma-ust tushadi. (14)-matritsali tenglamaning umumiy yechimi $Z(x)=\begin{pmatrix}\cos x & \text{-sinx}\\ \sin x & \text{cosx}\end{pmatrix}$C ko`rinishda, berilgan normal sistemaning umumiy yechimi esa

$$\begin{pmatrix}y_1(x)\\ y_2(x)\end{pmatrix}=y(x)=\begin{pmatrix}\cos x & \text{-sinx}\\ \sin x & \text{cosx}\end{pmatrix}C=\begin{pmatrix}\cos x & \text{-sinx}\\ \sin x & \text{cosx}\end{pmatrix}\begin{pmatrix}C_1\\ C_2\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}C_1\cos x & \text{-}C_2\text{sinx}\\ C_1\sin x & C_2\text{cosx}\end{pmatrix}$$

ko`rinishda yoziladi.

2. Quyidagi $y_1^{`}=y_2,\ y_2^{`}=-y_1+2y_2$ sistema uchun

$$y^{(1)}(x)=\begin{pmatrix}e^x\\ e^x\end{pmatrix},\quad \text{y}^{(2)}(x)=\begin{pmatrix}xe^x\\ (x+1)e^x\end{pmatrix}$$

vektor-funksiyalar $-\infty<x<+\infty$ intervalda yechim bo`ladi. Shu bilan birga bu vektor-funksiyalar fundamental sistemani teshkil etadi, chunki ularan tuzilgan vronskian noldan farqli: $W(x)=\begin{vmatrix}e^x & \text{x}e^x\\ e^x(x+1) & e^x\end{vmatrix}=e^{2x}\neq 0.$

Shuning uchun umumiy yechim

$$y(x)=C_1\begin{pmatrix}e^x\\ e^x\end{pmatrix}+C_2\begin{pmatrix}xe^x\\ (x+1)e^x\end{pmatrix}$$

ko`rinishda yoziladi. Berilgan sistema o`rniga matritsali tenglamani, ya`ni

$$\frac{dZ}{dx}=\begin{pmatrix}0 & \text{-1}\\ 1 & 0\end{pmatrix}Z` \qquad \textbf{(16)}$$

tenglamani ko`ramiz. Endi fundamental matritsasi $Z(x)=\begin{pmatrix}e^x & \text{x}e^x\\ e^x(x+1) & e^x\end{pmatrix}$ bo`lgan matritsali tenglama tuzamiz. Ravshanki, $\det Z(x)=e^{2x}$, $\text{A}_{11}(x)=(x+1)e^x$, $\text{A}_{12}(x)=-e^x$, $\text{A}_{21}(x)=-xe^x$, $\text{A}_{22}(x)=e^x.$ Shuning uchun

$$A(x)=\frac{dZ(x)}{dx}Z^{-1}(x)=\begin{pmatrix}e^x & (\text{x}+1)e^x\\ e^x & (\text{x}+2)e^x\end{pmatrix}\frac{1}{e^{2x}}\begin{pmatrix}(x+1)e^x & \text{-x}e^x\\ \text{-}e^x & e^x\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}1 & \text{x+1}\\ 1 & \text{x+2}\end{pmatrix}\begin{pmatrix}x+1 & \text{-x}\\ \text{-1} & 1\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}0 & 1\\ -1 & 2\end{pmatrix}.$$

Demak, $A(x)=\begin{pmatrix}0 & \text{-1}\\ 1 & 0\end{pmatrix}$. Shunday qilib, (16)-tenglama berilgan fundamental matritsani yagona differensial tenglamasidir.

Endi berilgan fundamental matritsa bo`yicha chiziqli sistemani tuzish yo`lini ko`ramiz.

Ushbu $y^{(1)}(x), y^{(2)}(x), ..., y^{(n)}(x)$ funksiyalar I intervalda chiziqli erkli funksiyalar bo`lib, shu intervalda differensiallanuvchi bo`lsin. Yana y(x) ham intervalda aniqlangan, uzluksiz differensiallanuvchi funksiya bo`lsin. Agar $y^{(k)}(x)$, k=1,2,...,n va y(x) funksiyalar biror chiziqli sistemaning yechimi bo`lsa, u holda quyidagi ayniyatlarni yozish mumkin:

$$\left.\begin{array}{lr}\dfrac{dy_1}{dx}=a_{11}(x)y_1+a_{12}(x)y_2+...+a_{1n}(x)y_n & (0_1)\\ \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots & \vdots\\ \dfrac{dy_n}{dx}=a_{n1}(x)y_1+a_{n2}(x)y_2+...+a_{nn}(x)y_n & (0_n)\end{array}\right\} \quad (0)$$

$$\left.\begin{array}{lr}\dfrac{dy_1^{(1)}}{dx}=a_{11}(x)y_1^{(1)}+a_{12}(x)y_2^{(1)}+...+a_{1n}(x)y_n^{(1)} & (1_1)\\ \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots & \vdots\\ \dfrac{dy_n^{(1)}}{dx}=a_{n1}(x)y_1^{(1)}+a_{n2}(x)y_2^{(1)}+...+a_{nn}(x)y_n^{(1)} & (1_n)\end{array}\right\} \quad (1)$$

$$\left.\begin{array}{lr}\dfrac{dy_1^{(n)}}{dx}=a_{11}(x)y_1^{(n)}+a_{12}(x)y_2^{(n)}+...+a_{1n}(x)y_n^{(n)} & (n_1)\\ \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots & \vdots\\ \dfrac{dy_n^{(n)}}{dx}=a_{n1}(x)y_1^{(n)}+a_{n2}(x)y_2^{(n)}+...+a_{nn}(x)y_n^{(n)} & (n_n)\end{array}\right\} \quad (n)$$

$(a_{ij}=a_{ij}(x))$. Yozilgan $(0),(1),...,(n)$ sistemalarning birnchi yenglamalarini olib sistema tuzamiz:

$$\left.\begin{array}{l}\dfrac{dy_1}{dx}=a_{11}y_1+a_{12}y_2+...+a_{1n}y_n,\\ \dfrac{dy_1^{(1)}}{dx}=a_{11}y_1^{(1)}+a_{12}y_2^{(1)}+...+a_{1n}y_n^{(1)},\\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\\ \dfrac{dy_1^{(n)}}{dx}=a_{11}y_1^{(n)}+a_{12}y_2^{(n)}+...+a_{1n}y_n^{(n)}.\end{array}\right\}$$

Bu sistemaning chap tomonini ham o`ng tomonga o`tkazib, tegishli hosilalar aldidagi koeffitsentlar (-1) gat eng bo`lgani uchun ularni $a_{10}(a_{10}=-1)$ deb belgilaymiz. Natijada $a_{10}, a_{11}, ..., a_{1n}$ larga nisbatan ushbu

$$\left.\begin{array}{l}a_{10}\dfrac{dy_1}{dx}=a_{11}y_1+a_{12}y_2+...+a_{1n}y_n,\\ a_{10}\dfrac{dy_1^{(1)}}{dx}=a_{11}y_1^{(1)}+a_{12}y_2^{(1)}+...+a_{1n}y_n^{(1)},\\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\ .\\ a_{10}\dfrac{dy_1^{(n)}}{dx}=a_{11}y_1^{(n)}+a_{12}y_2^{(n)}+...+a_{1n}y_n^{(n)}.\end{array}\right\}$$

sistemaga ega bo`lamiz. Bu systema trivialmas yechimga ega, chunki $a_{10}=-1\neq 0.$ Shuning uchun uning determinanti nolga teng bo`lishi kerak, ya`ni

$$\begin{vmatrix} \dfrac{dy_1}{dx} & y_1 \ y_n \ \cdots \ y_n \\ \dfrac{dy_1^{(1)}}{dx} & y_1^{(1)} y_2^{(1)} \cdots \ y_n^{(1)} \\ . \ . & . \ . \ . \ . \\ \dfrac{dy_1^{(n)}}{dx} & y_1^{(n)} y_n^{(n)} \cdots \ y_n^{(n)} \end{vmatrix} = 0, \ x \in I.$$

Shunga o`xshash, $(0),(1),...,(n)$ sistemalarning mos ravishda k-tenglamalarini olib, tegishli mulohaza yuritsak, quyidagi

$$\begin{vmatrix} \dfrac{dy_k}{dx} & y_1 \ y_n \ \cdots \ y_n \\ \dfrac{dy_k^{(1)}}{dx} & y_1^{(1)} y_2^{(1)} \cdots \ y_n^{(1)} \\ . \ . & . \ . \ . \ . \\ \dfrac{dy_k^{(n)}}{dx} & y_1^{(n)} y_n^{(n)} \cdots \ y_n^{(n)} \end{vmatrix} = 0, \ x \in I, \ k=1,2,...,n \qquad \textbf{(17)}$$

munosabatlarga kelamiz. Biz k ning har bir $1 \le k \le n$ qiymatida bitta birinchi tartibli chiziqli bir jinsli differensial tenglamaga egamiz. Demak, k=1,2,…,n bo`lganda (17)-munosabatlar hosilasi oldidagi koeffitsenti Vronskiy determinantidan iborat birinchi tartibli chiziqli bir jinsli tenglamalar sistemasidir.

Yuqorida ko`rilgan 1- va 2- misollar uchun berilgan fundamental sistemaga mos chiziqli sistemani shu usul bilan chiqarish mumkin.

28- mavzu.Yechimning davomiyligi. Yechimning boshlangich qiymatlarga va parametrlarga uzluksiz bog'liqligi haqida teorema. (4 soat)

1-ma`ruza (4 soat)

Reja:

1. Yechimning davomiyligi.
2. Yechimning boshlangich qiymatlarga va parametrlarga uzluksiz bog'liqligi haqida teorema.

29- mavzu.Avtonom sistemalar. Avtonom yechimining xossalari. Avtonom sistemaning muvozanat holati. Xolatlar fazosi va traektoriyasi. Chiziqli bir jinsli ikkinchi tartibli o`zgarmas koeffitsientli avtonom sistemaning holatlar teksligi. (2 soat)

1-ma`ruza (4 soat)

Reja:

1. Avtonom sistemalar.
2. Avtonom yechimining xossalari.
3. Avtonom sistemaning muvozanat holati.

4. Xolatlar fazosi va traektoriyasi. C
5. hiziqli bir jinsli ikkinchi tartibli o`zgarmas koeffitsientli avtonom sistemaning holatlar teksligi.

Ta'rif. Agar oddiy differensial tenglamalar sistemasiga erkli o'zgaruvchi oshkor kirmasa, bunday sistema avtonom sistema deyiladi va quyidagicha yoziladi:

$$F_i(y_1, y_1', ..., y_1^{(m_1)}; y_n, y_n', ..., y_n^{(m_n)}) = 0 \quad (1.1)$$

bunda

$$y_j^{(k)} = \frac{d^k y_j}{dx^k}, \; j = 1,2,...,n, k = 1,2,...,m_j$$

Avtonom sistemalarning fizika va texnika masalalaridan kelib chiqish ma'nosiga qarab erkli o'zgaruvchi sifatida t vaqt olingan. Bundan keyin biz shu belgilashni qabul qilamiz. Ta'rifdan ko'rinadiki, avtonom sistemalar bilan tasvirlanadigan noma'lum funksiyalarning o'zgarish qonuni vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi. Fizikaviy qonunlarda odatda shunday bo'ladi.

Normal avtonom sistema ushbu

$$\begin{cases} \dot{x}_1 = f_1(x_1, x_2, \; ... \; , x_n), \\ \dot{x}_2 = f_2(x_1, x_2, \; ... \; , x_n), \\ \quad \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots \\ \dot{x}_n = f_n(x_1, x_2, \; ... \; , x_n), \end{cases} \quad (1.2)$$

$$\dot{x}_i = \frac{dx_i}{dt}$$

ko'rinishda yoki

$$\dot{x}_i = f(x) \quad (1.3)$$

vektorli ko'rinishda yoziladi.

Agar bu (1.2) sistema erkli o'zgaruvchi t sifatida vaqtni tushinilsa, bu sistema dinamik sistema deb ataladi. Keyingi mulohazalarda biz asosan dinamik sistemalar bilan ish ko'ramiz.

Biz quyida bayon etadigan xossalar va tasdiqlar umuman (1.1) ko'rinishdagi avtonom sistemalar uchun o'rinli. Ammo biz ularni (1.2) ko'rinishdagi normal avtonom sistemalar uchun isbot etamiz.

Bundan keyingi mulohazalarimizda (1.3) vektor – tenglama $f(x)$ vektor – funksiya biror D_n sohada aniqlangan va birinchi tartibli xususiy hosilalari bilan uzluksiz deb faraz etamiz.

Teorema. Agar (1.3) normal avtonom vektor – tenglama berilgan bo'lib, $x = \varphi(t)$ vektor – funksiya uning biror yechimi bo'lsa, u holda ixtiyoriy o'zgarmas C lar uchun $x = \varphi(t) = \varphi(t + C)$ vektor – funksiya ham (1.3) tenglamaning yechimi bo'ladi.

Isbot. Murakkab funksiyani differensiallash qoidasi bo'yicha soda hisoblashlar
yordamida quyidagini topamiz:

$$\dot{\varphi}_*(t) = \frac{d}{dt}\varphi_*(t) = \frac{d}{dt}\varphi(t+C) = \frac{d}{d(t+C)}\varphi(t+C)\frac{d(t+C)}{dt} =$$
$$= \dot{\varphi}(t+C)\cdot 1 = \varphi(t+C)$$

Endi $\varphi_*(t)$ funksiya (1.3) tenglamaning yechimi ekanini isbotlaymiz. Teoremaning shartiga ko'ra $x = \varphi(t)$ funksiya (1.3) tenglamaning biror yechimi, demak, ushbu $\dot{\varphi}(t) = f(\varphi(t))$ ayniyat o'rinli. Bunda t ni $t + C$ ga almashtirsak, $\dot{\varphi}(t+C) = f(\varphi(t+C))$ ayniyatga ega bo'lamiz.

Topilgan munosabatdan

$$\dot{\varphi}_*(t) = \dot{\varphi}(t+C) = f(\varphi(t+C)) = f(\varphi_*(t)).$$



1-chizma.

Shu bilan teorema isbot bo'ldi.

Avtonom sistemalarning, jumladan, (1.2) sistemaning har bir $x = \varphi(t)$ vektor – yechimiga n – o'lchovli fazoda $(x_1,...,x_n) = x$ nuqtalarning harakatini mos keltiramiz. Harakat davomida x nuqta o'sha fazoda biror chiziq chizadi. Shu chiziqni x nuqtaning harakat traektoriyasi deb ataymiz. Avtonom sistemalarda nuqtaning harakati to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun nuqtaning faqat traektoriyasini berish yetarli emas, buning uchun traektoriyada, hech bo'lmasa, harakat yo'nalishini ham berish lozim (1 – chizma).

Teorema. Agar $x = \varphi(t)$ va $x = \psi(t)$ vektor – funksiyalar (1.3) tenglamaning ikki ixtiyoriy yechimi bo'lsa, u holda bu yechimlar yo birorta ham nuqtada kesishmaydi yoki butunlay kesishmaydi yoki butunlay ustma – ust tushadi. Boshqacha aytganda, agar $t_1 \neq t_2$ bo'lib, $\varphi(t_1) = \psi(t_2)$ bo'lsa, u holda $\psi(t) = \varphi(t+C), C = t_1 - t_2$ munosabat o'rinli bo'ladi (2 va 3 – chizmalar).



2-chizma.

Isbot. Teoremani isbot rtish uchun $\varphi(t)$ yechim bilan birga $\varphi_*(t) = \varphi(t + C),\ C = t_1 - t_2$ yechimni ham ko'ramiz. Bundan

$$\varphi_*(t_2) = \varphi(t_2 + C) = \varphi(t_2 + t_1 - t_2) = \varphi(t_1) = \psi(t_2)$$

ya'ni

$$\varphi_*(t_2) = \psi(t_2).$$



3-chizma.

shunday qilib, (1.3) tenglamaning ikkita $x = \varphi_*(t)$ va $x = \psi(t)$ yechimlari bir xil boshlang'ich qiymalarga ega. Demak, Koshi teoremasining shartlari bajariladi va yagonalik o'rinli, ya'ni $x = \varphi_*(t), x = \psi(t)$ yechimlari ustma – ust tushadi (aniqlanish intervallarining umumiy qismida). Bu esa teoremani isbot etadi. Agar $t_1 = t_2$ bo'lsa, teoremaning natijasi trivial bo'ladi.

1.2 - § Avtonom sistematraektoriyasining muhim xossalari.

Avtonom sistemasining alohida olingan bitta $x = \varphi(t)$ traektoriyasi o'z – o'zini kesa oladimi, ya'ni 4 – chizmada ko'rsatilgan hol yuz beradimi yoki yo'qmi, degan savolni qo'yaylik. Bu savolga javob avtonom sistemaning



4-chizma.

uchinchi muhim xossasini ochib beradi.

Teorema. $x=\varphi(t)$ funksiya (1.3) tenglamaning $r_1<t<r_2$ intervalda aniqlangan biror yechimi bo'lsin. Agar $\varphi(t_1)=\varphi(t_2),\ t_1\neq t_2$ va $r_1<t_1<r_2, r_1<t_2<r_2$ bo'lsa, u holda shu $x=\varphi(t)$ yechimni $-\infty<t<+\infty$ intervalda davom ettirish mumin.

Isbot. Yuqoridagi teoremaga ko'ra $\varphi(t_1)=\varphi(t_2)$ bo'lgani uchun $x=\varphi(t+C),\ C=t_1-t_2$ funksiya ham yechim bo'ladi va ushbu $x=\varphi(t+C), r_1<t<r_2$ ayniyat o'rinli. Bu ayniyatdan $\varphi(x)$ funksiya $r_1<t<r_2$ intervalda aniqlangani uchun $\varphi(t+C)$ funksiya $r_1-|C|_1<t<r_2+|C|$ intervalda aniqlangan bo'ladi. Haqiqatan, $r_1<t+C<r_2$ tengsizlikdan $C>0$ bo'lganda $r_1-C<t<r_2$ va demak, yechimni r_1 dan chapga C miqdorga davom ettirish mumkin; shunga o'xshash, $C<0$ bo'lganda $r_1<t<r_2-C$ ya'ni yechimni r_2 dan o'nga $-C=|C|$ miqdorga davom ettirish mumkin bo'ladi. Har ikki holni birlashtirib yechimni $r_1-|C|_1<t<r_2+|C|$ intervalga davon ettirish mumkinligini qayd qilamiz. Shu intervalda aniqlangan $\varphi^{(1)}(t)$ yechim uchun baribir $\varphi^{(1)}(t)=\varphi^{(1)}(t+C)$ ayniyat o'rinli. $\varphi^{(1)}(t+C)=\varphi_*^{(1)}(t)$ desak, $\varphi_*^{(1)}(t_1)=\varphi^{(1)}(t_1+C)=\varphi(t_1)=\varphi(t_2)$, ya'ni $\varphi_*^{(1)}(t_1)=\varphi(t_2)$, bundan avvalgidek $\varphi_*^{(1)}(t+C)=\varphi_*^{(1)}(t)$ ekani kelib chiqadi. $\varphi_*^{(1)}(t)$ funksiya $r_1-|C|_1<t<r_2+|C|$ intervalda aniqlangan bo'lgani uchun oxirgi ayniyatdan foydalanib mavjudlik intervalini yanada kengaytirish mumkin. Boshqacha aytganda, $r_1-2|C|_1<t<r_2+2|C|$ intervalda

Aniqlangan yechimni qo'rish mumkin. Tegishli yechimni $\varphi^{(2)}(t)$ deb belgilaymiz. Shunga o'xshash, mavjudlik intervali $r_1-k|C|<t<r_2+k|C|$ dan iborat bo'lgan $\varphi^{(k)}(t)$ yechimni ko'rish mumkin. Yuqoridagi tengsizlikda $k\to\infty$ da limintga o'tsak, $-\infty<t<+\infty$ interval hosil bo'ladi (r_1 va r_2 lar qanday bo'lishidan qat'i nazar). Shu intervalda aniqlangan yechimni $\varphi^0(t)$ deymiz.

Shunday qilib, teorema isbot bo'ladi. Ammo isbot davomida avtonom sistemaning har qanday traektoriyasi chekli vaqtda cheksizga ketib qolmasligidan foydalanildi. Aslida ko'rilayotgan holda shunday. Shu munosabat bilan quyidagi yetarli shartni beradigan lemma keltiramiz.

Lemma. Agar D_n sohada $f_1(x_1,...,x_n),..., f_n(x_1,...,x_n)$ funksiyalar barchaargumentlari bo'yicha cheklangan xususiy hosilalarga ega bo'lsa, u holda (1.3) avtonom sistemaning hech qanday traektoriyasi chekli vaqtda cheksizga ketib qolmaydi, ya'ni ushbu

$$\lim_{t\to\tau}|\varphi(x)| = \infty, \ |\varphi(x)| = \sqrt{\varphi_1^2(t) + ... + \varphi_n^2(t)}$$

munosabat o'rinli bo'la olmaydi.

Isbot. Lemmaning shartiga ko'ra $\left|\frac{\partial f_i}{\partial x_j}\right| \le M, i, j = 1,2,...,n, 0 < M -$ chekli son.

Endi $f_i(x)$ funksiya uchun $x = 0$ nuqta atrofida Lagranj formulasini yozamiz:

$$f_i(x) = f_i(\theta) + \frac{\partial f_i(\theta_i \cdot x)}{\partial x_1}x_1 + ... + \frac{\partial f_i(\theta_i \cdot x)}{\partial x_n}x_n, i = 1,2,...,n,$$

bunda $0 < \theta_i < 1, \theta_i x = y \in D_n. |f(0)| = C$ deymiz $\left|\frac{\partial f(\theta_i \cdot x)}{\partial x_i}\right|$ modulni baholaylik:

$$\left|\frac{\partial f(\theta_i \cdot x)}{\partial x_i}\right| = +\sqrt{\left(\frac{\partial f_1(\theta_i \cdot x)}{\partial x_i}\right)^2 + \left(\frac{\partial f_n(\theta_i \cdot x)}{\partial x_i}\right)^2} \le \sqrt{n}M.$$

Bundan fodalanib, $f(x)$ vektor – funksiyaning modulini baholash mumkin. Haqiqatan, ravshanki

$$|f_i(x)| \le C + \sqrt{n}M\sum_{i=1}^{n}|x_i| \le c\cdot\sqrt{n} + \sqrt{n}M\sum_{i=1}^{n}|x_i| =$$
$$= \sqrt{n}\left(C + M\sum_{i=1}^{n}|x_i|\right) \le N\sqrt{n}\left(1 + \sum_{i=1}^{n}|x_i|\right),$$

bunda $N = \max(C, M)$. Bu tengsizlikdan foydalanib topamiz:

$$|f(x)| = \sqrt{\sum_{i=1}^{n} f_j^2(x)} \le \sqrt{n^2 N^2 \left(1 + \sum_{i=1}^{n} |x_i|\right)^2} = nN\left(1 + \sum_{i=1}^{n} |x_i|\right).$$

Faraz etaylik, $r_1 < x < r_2 + \sum_{m=1}^{k} |C_m|$ intervalda aniqlangan va $t \to \tau = r_2 + \sum_{m=1}^{k} |C_m|$da cheksizlikka intiluvchi $x = \varphi(t)$yechim mavjud, ya'ni $t \to \tau$ da $|\varphi(t)| \to \infty$ ($\tau = r_1 - \sum_{m=1}^{k} |C_m|$ bo'lgada ham isbot shunga o'xshash bo'ladi). U holda shunday $\tau_* < \tau$ topiladiki, $\tau_* \le t < \tau$ intervalda $|\varphi(t)| > 1$bo'ladi. Shuning uchun $\tau_* \le t < \tau$ intervalda quyidagiga egamiz:

$$|\dot{\varphi}(t)| \le |\dot{\varphi}_1(t)| + |\dot{\varphi}(t)| + ... + |\dot{\varphi}(t)| \le$$
$$\le Nn\sqrt{n}\left(1 + \sum_{i=1}^{n} |\varphi_i(t)|\right) \le n(n+1)N\sqrt{n}|\varphi(t)|.$$

Bundan

$$\frac{\frac{d}{dt}|\varphi(t)|}{|\varphi(t)|} \le \frac{|\dot{\varphi}(t)|}{|\varphi(t)|} \le n(n+1)N\sqrt{n}, \tau_* < t < \tau.$$

Bu tengsizlikning ikki tomonini τ_* dan $t$gacha integrallab topamiz:

$$|\varphi(x)| \le |\varphi(\tau_*)| e^{n(n+1)N\sqrt{n}(t-\tau_*)}, \tau_* < t < \tau.$$

Ammo

$$t \to \tau \text{ da } |\varphi(\tau)| \le |\varphi(\tau_*)| e^{n(n+1)N\sqrt{n}(\tau-\tau_*)}$$

tengsizli o'rinli bo'lib, uning o'ng tomonidagi ifoda musbat chekli sondir. Bu esa farazimizga zid. Demak, chekli vaqtda $x = \varphi(t)$traektoriyacheksizlikga keta olmaydi. Lemma isbot etildi.

Keyengi mulohazalarda shu lemmaning shartlari yoki boshqa yetarli shart bajarilgan deb qarab, $x = \varphi(t)$ yechim $-\infty < t < +\infty$intervalda aniqlangan deb hisoblanadi. Xususan, yuqoridagi teoremada

$$\varphi(t_1) = \varphi(t_2), \ t_1 \ne t_2$$

bo'lgani uchun

$$\varphi(t) \equiv \varphi(t+C_1) \equiv ... \equiv \varphi(t+\sum_{i=1}^{k} C_i)$$

ayniyat bajariladi va $\varphi(t)$ funksiya $t \to \tau$ (τ -chekli son) da cheksizga intilmaydi. Aslida $\varphi(t)$ yechim chekli vaqtda cheksizga intilmasligi uchun $\varphi(t_1) = \varphi(t_2), t_1 \neq t_2$ munosabatning bajarilishi ham yetarli shartlardan biridir.

Navbatdagi teoremada ham avtonom sistemaning yechimi $\varphi(t_1) = \varphi(t_2), t_1 \neq t_2$ bo'lganda $-\infty < x < +\infty$ intervalda aniqlangan deb hisoblanadi.

Teorema(muvozanat holat va yopiq traektoriyalar haqida). Agar (1.3) tenglamaning biror $\varphi(t)$ yechimi uchun $\varphi(t_1) = \varphi(t_2),\ t_1 \neq t_2$ tenglik bajarilsa, quyidagi biri ikkinchisini inkor etadigan ikki hol yuz berishi mumkin:

1) barcha t lar uchun

$$\varphi(t) = a, a = const, a \in D_n;$$

2) shunday musbat son T mavjudki, ixtoyoriy t uchun

$$\varphi(\mathrm{T}+\mathrm{t}) = \varphi(\mathrm{t})$$

tenlik bajarilib, $0 < |\tau_1 - \tau_2| < T$ bo'lganda $\varphi(\tau_1) \neq \varphi(\tau_2)$ tengsizlik o'rinli.

1) xolda vaqt o'tishi bilan $\varphi(t)$ nuqta harakat qilmaydi, u doim D_n to'plamnin a nuqtasida bo'ladi. Shu $\varphi(t)$ yechim va a nuqta (1.3) tenglamaning, ya'ni normal abtonom sistemaning muvozanat holati yoki muvozanat nuqtasi deyiladi. Ba'zida uni tinchlanish nuqtasi deb ham ataladi;

2) holda $x = \varphi(t)$ yechim davriy yechim, uning grafigi yopiq traektoriya yoki sikl (davra) deb ataladi.

Teoremaning isboti. Ushbu

$$\varphi(t) \equiv \varphi(t+C) \quad (1.4)$$

ayniyat o'rinli bo'ladigan har bir $C \neq 0$ son $x = \varphi(t)$ yechimning davri deyiladi. Shu $x = \varphi(t)$ yechimning barcha davrlaridan tuzilgan to'plam F bo'lsin. Hozir bu son to'plamning ba'zi xossalarini tekshiramiz.

1. Agar $C \in F$ bo'lsa, $-$ $F \in C$ bo'ladi. Haqiqat (1.4) da $t-C$ ga almashtiramiz: $\varphi(t-C) \equiv \varphi(t)$. Bundan $-$ $C \in F$ kelib chiqadi.

2. Agar $\varphi(t) \equiv \varphi(t+C_i), i=1,2,...,k, C_i \in F$ bo'lsa, u holda $\varphi(t)=\varphi(t+\sum_{i=1}^{k} C_i)$, ya'ni $\sum_{i=1}^{k} C_i \in F$ bo'ladi. Haqiqatan,

$$\varphi(t) \equiv \varphi(t+C_1),$$

$$\varphi(t) \equiv \varphi(t+C_2) = \varphi(t+C_1+C_2),$$

…………………………..

$$\varphi(t) \equiv \varphi(t+C_{k-1}) \equiv \varphi(t+C_{k-2}+C_{k-1}) \equiv ... \equiv \varphi(1+\sum_{i=1}^{k-1} C_i),$$

$$\varphi(t) \equiv \varphi(t+C_k) \equiv ... \equiv \varphi(1+\sum_{i=1}^{k-1} C_i).$$

3. F to'plam yopiq. Haqiqatdan, ushbu $C_1, C_2, ..., C_k, ...$ ketma – ketlik F to'plam elementlaridan tuzilgan bo'lib, biror C_0 ga yaqinlashuvchi bo'lsin. $C_0 \in F$ ekaniniko'rsatamiz. Ravshanki, $\varphi(t)=\varphi(t+C_k)$.

Shuninguchun $\varphi(t)$ funksiyaninguzluksizligigako'raargumentdalimitgao'tish mumkin , ya'niquyidagiamallaro'rinli:

$$\varphi(t) = \lim_{k\to\infty} \varphi(t) = \lim_{k\to\infty} \varphi(t+C_k) = \varphi(t+\lim_{k\to\infty} C_k) = \varphi(t+C_0)$$

Demak, $C_0 \in F$ va $F -$ yopiq.

4. F to'plam noldan farqli sonlarni o'z ichiga oladi, chunki (1.4) da

$$C \neq 0, t_1 \neq t_2.$$

Endi teoremaning isbotiga o'taylik. F to'plam uchun quyidagi ikki hol bo'lishi mumkin:

1) F to'pam barcha haqiqiy sonlar to'plamidan iboratdir;

2) F to'plamda shunday kichik musbat T son mavjudki, u to'plam shu T songa butunkarrali sonlardan iborat.

Boshqa hollar bo'la olmaydi. Buni isbot etamiz.

F to’plamdamusbatsonlarbor, chunki, $0 \in F$ bo’lib, $C, -C$ laruningelementi.

F to’plamdaengkichikmusbatsonbo’lmasin, ya’niixtiyoriymusbat $\varepsilon > 0$ uchun C davrtopiladiki, $C < \varepsilon$ bo’ladi. (2)

xossagako’ra m – butunbo’lsa, mC hamdavrbo’ladi. $C < \varepsilon$ bo’lganiuchunixtiyoriyhaqiqiy C_0 uchunshundaybutun m topiladiki, $|C_0 - mC| < \varepsilon$ tengsizlikbajariladi.

Bundanixtiyoriy C_0 son F to’plamninglimitnuqtasiekanikelibchiqadi. Shubilanbirga F to’plamyopiqbo’lganiuchunubarchahaqiqiysonlarto’plamibila nustms – usttushadi.

Endi F to’plambarchahaqiqiysonlarto’plamibilanustma – usttushmasin, deylik. Yuqoridaisbotlanganigako’rabuholda F to’plamdaengkichikmusbat T mavjud. C – ixtiyoriydavrbo’lsin. Uholdashundaybutunson m nitanlashmumkimki, ushbu $|C - mT| < T$ tengsizlikbajariladi. Bunda $C - mT \neq 0$ deylik. Ammo C va mT lardavrbo’lganiuchun $C - mT$ hamdavrbo’ladi. Demak, $|C - mT|$ hamdavrbo’ladi.

Shuninguchun $|C - mT| > 0$ va $|C - mT| < T$ tengsizliklardan F to’plamning T dankic hikbo’lganmusbatdavrmavjud. Bubo’lishimumkinemas, chunki T son F to’plamdaengkichikmusbatdavredi. Ziddiyat $C = mT$ bo’lishikerakliginiisbotlaydi. Demak, $C = mT$. Shundayqilib, ko’rilayotganholda F to’plam T gakarralisonlardaniborat. Natijaqilibaytganda, youndaengkichikmusbatson $T > 0$ mavjudva F to’plamshu T gakarralisonlardanta shkiltopgan.

Birinchiholda $\varphi(t)$ yechimuchunixtiyoriyhaqiqiysondavrbo’ladi; bufaqat $\varphi(t)$ vektor – funksiyao’zgarmasvektordaniboratbo’lgandaginamumkin, ya’niagar $\varphi(t) = a, a \in D_n$ bo’lsa, uholda C – ixtiyoriyhaqiqiysonbo’lsaham $\varphi(t + C) = a$ tenglikbajarilavermaydi. Bizmuvozanatholatigaegamiz.

Ikkinchiholda F to'planingengkichikmusbat T soni $\varphi(t)$ yechimningdavri (engkichikmusbatdavri) bo'ladi. Bizdavriyyechimgaegamiz. Shundayqilib, teoremato'liqisbotbo'ldi.

1.3 - § Avtonom sistemaning holatlar fazosiga doir misollar.

1. Holatlar fazosi. Avtonom sistema (1.2) ning o'ng tomonidagi fnksiyalar n – o'lchovli fazoning biror ochiq Δ to'plamida aniqlangan. Shu to'plamning har bir $(x_1^0,...,x_n^0) = x^0$ nuqtasiga ushbu

$$f_1(x^0), f_2(x^0),..., f_n(x^0)$$

n ta sonlar ketma – ketlikligini mos keltirish mumkin. Ularni n o'lchovli fazoning x^0 nuqtasidan chiqarilgan $f(x^0)$ vektorning koordinatalari deb qarash mumkin. Bundan ko'ranadiki, avtonom sistemaga Δ to'plamsa aniqlangan vektor maydon mos keladi.

x^0 nuqta Δ to'plamning ixtiyoriy nuqtasi bo'lsin. Avtonom sistemaning geometrik ma'nosi nuqai nazaridan shu x^0 nuqtaga undan chiqadigan $f(x^0)$ vektor mos keltirilgan. Mavjudlik va yagonalik teoremasiga ko'ra (1.2) sistemaning $\varphi(t_0) = x^0$ shartni qanoatlantiradigan $x = \varphi(t)$ yechim mavjud. Bu yechimga $t = t_0$ da traektoriyasi x^0 nuqtadan o'tadigan nuqtaning harakati mos keladi. Harakat davomida $x = \varphi(t)$ yechni belgilaydigan nuqtaning t_0 momentdagi tezligi $f(x^0)$ vektor bilan ifodalanadi, ya'ni

$$\left.\left(\frac{d\varphi(t)}{dt}\right)\right|_{t=t_0} = f(x_0)$$

Endi holatlar fazosi tushinchasini kiritamiz.

Ta'rif. (1.2) avtonom sistemaning holatlar fazosi deb shunday n o'lchovli fazoga aytiladiki, unda shu sistemaning yechimlari traektoriyalar bialn, sistemaning o'zi esa vektor maydon bilan tavsiflanadi. Traektoriyalar holat traektoriyalari deb, vektorlar holat tezliklari deb ataladi.

Teorema. Ushbu $a=(a_1,...,a_n)\in D_n (D_n=\Delta)$ nuqta (1.2) sistemaning muvozanat holati bo'lishi uchun, ya'ni shu sistemaning $\varphi(t)=a, a=const$ ayniyat o'rinli bo'ladigan $x=\varphi(t)$ yechimi mavjud bo'lishi uchun D_n sohaning a nuqtasida holat tezligi nolga teng bo'lishi zarur va yetarli.

Isbot. Zarurligi. $a\in D_n$ nuqta muvozanat holati deylik. U holda (1.2) sistemaning $\varphi(t)=a$ ayniyat o'rinli bo'ladigan $x=\varphi(t)$ yechimi mavjud. Shuning uchun $f(a)=\frac{d}{dt}\varphi(t)\equiv\frac{d}{dt}a=0.$ Demak, $f(x)$ holat tezligi $x=a$ nuqtada nolga aylanadi.

Yetarliligi. $a\in D_n$ nuqtada $f(a)=0$. Bu holda $\varphi(t)=a$ funksiya (1.2) sistemaning yechimi bo'ladi. Haqiqatan, $\varphi(t)\equiv a\in C^1, a\in D_n, \dot{\varphi}(t)=\frac{da}{dt}\equiv 0$ va $f(a)=0$. Teorema isbot bo'ldi.

Natija. (1.2) avtonom sistemaning mufozanat holatlari (nuqtalari) ushbu

$$\begin{aligned} &f_1(a_1,...,a_n)=0 \\ &\dots\dots\dots\dots\dots\dots \\ &f_n(a_1,...,a_n)=0 \end{aligned} \qquad (1.5)$$

chekli tenglamalar sistemasining (unga hosilalar kirmaydi) yechimlaridan iborat. Xususan, $\frac{dx}{dt}=(x-1)^3$ tenglamaning muvozanat nuqtasi $x=1$ nuqtadan iborat, chunki $(x-1)^3=0$ tenglama shu yechimga ega, $\frac{dx}{dt}=(x-1)^3(x+2)$ tenglama ikkita $x=1, x=-2$ muvozanat nuqtasiga ega. Yana ushbu

$$\begin{aligned} \dot{x}_1&=\lambda_1 x_1, \\ \dot{x}_2&=\lambda_2 x_2 \end{aligned}$$

($\lambda_1\neq\lambda_2, \lambda_1,\lambda_2-$haqiqiy, $\lambda_1\neq 0, \lambda_2\neq 0$) sistemaning muvozanat holati koordinata boshidan iborat bo'lib, D_2 sohada butun tekislikdir. Shunga o'xshash

$\dot{x}_1=ax_1-bx_2, \dot{x}_2=bx_1+ax_2$ ($b\neq 0, a-$haqiqiy sonlar) sistemaning muvozanat holati ham koordinata boshidan iborat, chunki

$$\begin{cases} ax_1 - bx_2 = 0 \\ bx_1 + ax_2 = 0 \end{cases}$$

sistema faqat trivial yechimga ega (sistemaning determinant $a^2 + b^2 \neq 0$). Muzozanat nuqtalari sanoqli yoki sanoqsiz bo'lishi mumkin. Xususan, $\dot{x} = \sin x$ uchun $x = k\pi$ (k – butun son) nuqtalar muvozanat nuqtalari bo'lib, sanoqli to'plamni tashkil qiladi. $\begin{cases} \dot{x}_1 = 0, \\ \dot{x}_2 = x_1 \end{cases}$ sistemauchun $x_1 = 0$ chiziq (x_2 o'q) muvozanatholatiniberadi.

Bizsanoqsizto'plamgaegamiz.

Agar $\dot{x}_i = 0, \dot{x}_k = a_k \neq 0,\ i = 1,...,n,\ i \neq k\ 1 \leq k \leq n$ sistemaberilganbo'lsa, uningmuvozanatnuqtasimavjudemas, chunki $f \neq 0$

2. Skalyar avtonom tenglamaning holatlar to'g'ri chizig'i va muvozanat holati. Ushbu

$$\dot{x} = f(x) \quad (1.6)$$

skalyar avtonom tenglamani ko'ramiz. Bunda $f(x)$ – butun R^1 to'g'ri chiziqda uzluksiz va uzluksiz differensiallanuvchi funksiya. Yana qo'shimcha faraz etamizki, $f(x)$ funksiyaning nollari (ular berilgan avtonom tenglamaning muvozanat nuqtalaridir) limit nuqtaga ega bo'lmasin. Bu farazga ko'ra $f(x)$ ning nollari butun to'g'ri chiziqni chekli yoki sanoqli sondagi intervallarga bo'ladi. Eng chap intervalning (agar u mavjud bo'lsa) chap oxiri $-\infty$, eng o'ng intervalning (agar u mavjud bo'lsa) o'ng ohiri $+\infty$ bo'ladi. Shu intevallar sistemasini $\sum$ bilan begilaymiz. Agar $f(x)$ funksiya R^1 to'g'ri chiziqda bitta ham nolga ega bo'lmasa, $\sum$ sistema bitta $(-\infty, +\infty)$ intervaldan iborat bo'lib, $f(x)$ – bitta x_0 nolga ega bo'lgan $\sum$ sistema ikkita $(-\infty, x_0), (x_0, +\infty)$ intervaldan iborat bo'ladi.

Teorema. $\sum$ sistemaning biror intervalini (a, b) deylik, ya'ni

$(a,b) \in \sum$, yana $x_0 \in (a,b)$ bo'lsin. Agar $x = \varphi(t), r_1 < t < r_2$, berilgan tenglamaning (θ, x_0),

$r_1 < \theta < r_2$, boshlang'ich qiymatlarga ega bo'lgan davomsiz yechim bo'lsa, u holda $f(x_0) > 0$ bo'lganda ushbu

$$a < \varphi(t) < b, \quad r_1 < t < r_2; \quad (1.7)$$

$$\lim_{t \to r_1} \varphi(t) = a, \quad \lim_{t \to r_2} \varphi(t) = b \, (1.8)$$

Munosabatlar o'rinli shu bilan birga, agar a (yoki b) chekli bo'lsa, u holda r_1 (yoki r_2)cheksiz bo'ladi. Shunday qilib, har bir (a,b) interval bitta holat traektoriyasidan iborat.



5-chizma.

Isbot. $f(x_0) > 0$, $x_0 \in (a,b)$ bo'lgani uchun (teoremani $f(x_0) < 0$ bo'lganda ham tegishlicha bayon etib, isbotlash mumkin), (a,b) intervalda $f(x) > 0$ va $\dot{x} > 0$ bo'ladi. Bunda (a,b) da holat nuqtasi chap o'ngga harakat qilib, holat traektoriyasini chizishi kelib chiqadi (5 – chizma). Demak, t o'sishi bilan $\varphi(t)$ nuqta (a,b) intervaldan faqat o'ng oxiri orqali chiqib orqali chiqib ketishi mumkin (agar bu mumkin bo'lsa). Deylik, $t = t_1$ bo'lganda $\varphi(t_1) = b$ bo'lsin. Eslatib o'tamizki, $\varphi(b) = 0$ va b - muvozanat nuqtasi, bu b nuqta ham yuqoridagi teoremaga ko'ra mustaqil traektoriyadan iborat. Ammo yuqoridagi farazga ko'ra $x = b$ va $x = \varphi(t)$ traektoriyalari $t = t_1$ da kesishadi. $f(x)$ funksiya uzliksiz differensiallanuvchi bo'lgani uchun (1.6) tenglama ixtiyoriy tayinlangan boshlang'ich shartni qanoatlantiradigan yagona yechimga ega. Shuning uchun biz ziddiyatga keldik. Demak, t o'sishi bilan $\varphi(t)$ nuqta (a,b) intervaldan chiqib keta olmaydi. $\varphi(t)$ nuqtatkamayishibilan (a,b) intervaldanchapoxiriorqalichiqibketaolmasligih amxuddishundayko'rsatiladiki. Demak, usha $a < \varphi(t) < b$ tengsizliko'rinli. Shundayqilib, (1.7) mubosabatlarisbotlandi.

Endi (1.8) munosabatniisbotlaymiz. Buninguchun $\lim\limits_{t \to r_2} \varphi(t) = b$ niisbotlashyetarli.

Qolganmunosabatshungao'xshashisbotlanadi.

$$\lim_{t \to r_2} \varphi(t) \neq b, \text{ya'ni} \lim_{t \to r_2} \varphi(t) = c^* < b$$

debfarazetamiz. (a,b) intervalda $f(x) > 0$ bo'lganiuchun $f(c^*) > 0$ bo'ladi. (1.6) tenglamaning $(0, c^*)$ boshlang'ichqiymatlargaegabo'lganyechimini $\psi(x)$ deylik. Demak,

$\psi(0) = c^*, \dot{\psi}(t) \equiv f(\psi(t))$. Bundan $f(c^*) > 0$ bo'lganiuchunbiror $t = t_* < 0, t_* \in (r_1, r_2)$ bo'lganda $\psi(t_*) \equiv c$ kelibchiqadi. Ikkinchitomondan, $t \to r_2$ da $\varphi(t) \to c_*$ bo'lganiuchun $\varphi(t_*) < c^*, t_* < r_2$ bo'ladi. Butengsizliklargaasosan $\psi(t_*) = \varphi(t_*) = x_*, a < x_* < c^* < b$ debtanlashmumkin. Boshqachaaytganda, (1.6) tenglamaningikkita $\varphi(t)$ va $\psi(x)$ yechimlaribirxilboshlang'ichshartniqanoatlantirayapti. Buyechimningyagonaligigazid. Shundayqilib, (1.8) munosabatlarisbotlandidesabo'ladi.

Teoremaning oxirgi tasdig'ida isbotlash qoldi. Buning uchun b chekli bo'lsin deylik, ya'ni $b < +\infty; r_2 = +\infty$ ekanini isbotlaymiz. Faraz etaylik, $r_2 < +\infty$. Ushbu funksiyani kiritamiz:

$$\chi(t) = \begin{cases} \varphi(t), r_1 < t < r_2, \\ b, t \geq r_2. \end{cases}$$

Bu funksiya (1.6) tenglamaning yechimi, ammo buning bo'lishi mumkin emas. Aks holda ikki yechim $x = \chi(y)$ va $x = b$ lar $t = r_2$ bo'lganda bir xil qiymatlarga ega bo'ladi. Shunday qilib, $r_2 = \infty$. Xuddi shunga o'xshash $a > -\infty$ bo'lganda $r_1 = -\infty$ ekani isbotlanadi. Teorema to'liq isbot bo'ldi.

Keltirilgan teorema (1.6) tenglama yechimlarining muhim xossasini beradi.

Navbatdagi xossani bayon etishdan avval ba'zi tushunchalarni kiritamiz.

Berilgan (1.6) tenglamaning biror muvozanat nuqtasini b, undan chap va o'ng tomondagi eng yaqin muvozanat nuqtalarni a va c deylik. Agar (a,b) interval $\sum$ sistemaning eng chap, (b,c) esa uning eng o'ng intervali bo'lsa, u holda $a=-\infty, c=+\infty$ bo'ladi. Quyidagi mulohazalar shu hollarda ham o'rinli. Demak, $(a,b)\in\sum,(b,c)\in\sum$. Har bir (a,b) yoki (b,c) intervalda $f(x)\neq 0$. Shu $f(x)$ funksiyaning musbat yo manfiyligiga qarab (a,b) va (b,c) intervallarda holar nuqtasi t ortishi bilan yo b ga yaqinlashadi, yo undan uzoqlashadi.

Agar har ikki (a,b) va (b,c) intervallarda ha holat nuqtasi t ortishi bilan b ga aqinlashsa, u holda nuqta (muvozanat nuqtasi) turg'un deyiladi; agar t ortishi bilan har ikki intervalda ham holat nuqtasi b nuqtadan uzoqlashsa, u holda b nuqta noturg'un (turg'unmas) deyiladi; agar t ortishi bilan holat nuqta bir intervalda b ga yaqinlashib, ikkinchi intervalda undan uzoqlashsa, u holda b nuqta yarim turg'un deyiladi.

$\dot{x}=x$ tenglamaning bitta $x=0$ muvozanat nuqtasi bor. Demak, $b=0$ va $\sum$ sistema ikkita $(-\infty,0)$ hamda $(0,+\infty)$ intervallardan tashkil topgan. Ravshanki, $(-\infty,0)$ intervalda holat nuqtasi b dan uzoqlashadi, ya'ni $x<0$ bo'lgani uchun harakat o'ngdan chapga bo'ladi. $(0,+\infty)$ intervaldaesaharakatchapdano'nggabo'ladi, ya'niholatnuqtasivaqto'tishibilan b nuqtadanyanauzoqlashadi. Shundayqilib, $\dot{x}=x$ tenglamauchun $b=0$ nuqtanoturg'unmuvozanatnuqtadir. Shungao'xshash, agar $\dot{x}=-x$ tenglamako'rilsa, $x=0$ nuqtaturg'unmuvozanatnuqtaekaniniko'rsatishmumkin.

Mulohazalarni integral chiziqlar yordamida ham olib borish mumkn edi. Xususan $\dot{x}=x$ tenglama uchun $x=0$ muvozanat nuqtasiga (t,x) tekislikdagi trivial yechim, ya'ni t o'qi mos keladi. Bu gorizontal o'qning yuqori va pastki qismidagi integral chiziqlar t ortishi bilan borgan sari shu o'qdan uzoqlashib ketadi (6– rasm). $\dot{x}=-x$ tenglama esa buning aksi bo'ladi.

Shunday qilib, (1.6) tenglama uchun b muvozanat nuqtaning atrofida, aniqrog'i (a,b) va (b,c) intervallarda holat nuqtasining harakati to'g'risida quyidagi teorema o'rinli.



6-chizma.

Teorema. (1.6) tenglamaning muvozanat nuqtasi b turg'un bo'lishi uchun (a,b) intervalda $f(x)>0$ va (b,c) intervalda $f(x)<0$ bo'lishi zarur va yetarli; muvozanat nuqta b noturg'un bo'lishi uchun (a,b) da $f(x)<0$, (b,c) da $f(x)>0$ bo'lishi zarur va yetarli; nihoyat, b nuqta yarim turg'un bo'lishi uchun $f(x)$ funksiyaning ishorasi (a,b) va (b,c) intervallarda bir xil bo'lishi zarur va yetarli.

Bu teoremaning isboti yuqoridagi mulohazalar va ta'riflarga asosan ravshan.

Shuni eslatamizki, bu teoremada foydalanish uchun funksiyaning ishorasini u yoki bu intervallardan tekshirish lozim. Agar $f(x)$ funksiyaning hosilalaridan foydalansak, tekshirish osonlashadi. Shu munosabat bilan quyidagi teoremani keltiramiz.

Teorema. (1.6) tenglama uchun b muvozanat nuqta bo'lib $f(x)$ funksiya shu nuqtada $2s+1$ ($s-$ natural son) – tartibgacha uzluksiz hpsilalarga ega bo’lsin. Agar ushbu

$$f'(b)=...=f^{(2s-1)}(b)=0,\ f^{(2s)}(b)\neq 0 \quad (1.9)$$

munosabatlar bajarilsa, b nuqta yarim turg’un muvozanat nuqta bo’ladi; shunga o’xshash, agar ushbu

$$f'(b)=...=f^{(2s)}(b)=0,\ f^{(2s-1)}(b)\neq 0 \quad (1.10)$$

munosabatlar bajarilib

a) $f^{(2s+1)}(b)<0$ bo’lsa, $b-$ turg’un, (1.10')

b) $f^{(2s+1)}(b)>0$ bo’lsa, $b-$ noturg’un. (1.10'')

muvozanat nuqta bo’ladi.

Isbot. (1.6) tenglamada $f(x)$ funksiya biror $k-$tartibgacha uzluksiz hosilalarga ega bo’lsin. U holda $f(x)$ funksiya uchun $x=b$ nuqtaning atrofida Lagranj formulasini yozamiz:

$$f(x)=f(b)+\frac{f'(b)}{1!}(x-b)+\frac{f''(b)}{2!}(x-b)^2+...+$$
$$+\frac{f^{(k)}(b)}{k!}(x-b)^k+0((x-b)^k),$$

bunda $\lim\limits_{y\to 0}\frac{0(y)}{y}=0$. Endi $k=2s$ bo’lsin. U holda (1.9) munosabatlardan foydalansak,

$$f(x)=\frac{f^{(2s)}(b)}{(2s)!}(x-b)^{2s}+0((x-b)^{2s})$$

formulaga ega bo’lamiz. $x\in(a,b)$ deylik. Bu holda $x-b<0;$ shuningdek, $x\in(b,c)$ bo’lsa, $x-b>0$. Ammo $(x-b)^{2s}>0$ bo’ladi. Shuning uchun formulaning o’ng tomonidagi $0((x-b)^{2s})$ ifoda $\frac{f^{2s}(b)}{(2s)!}(x-b)^{2s}$ hadning ishorasiga ta’sir eta olmaganidan

$$signf(x)=sign\frac{f^{(2s)}(b)}{(2s)!},\ x\in(a,b),x\in(b,c)$$

munosabat o’rinli. Lekin $f^{(2s)}(b)\neq 0$. Shuning uchun $f(x)$ funksiya (a,b) va

(b,c) intervallarda bir xil ishoraga ega. Demak, (1.9) munosabatlar bajarilganda b nuqta yarim turg'u bo'ladi.

Endi (1.10) munosabat o'rinli bo'lsin deylik. U holda Lagranj formulasida $k = 2s+1, s = 0,1,...$ deb topamiz:

$$f(x) = \frac{f^{(2s+1)}(b)}{(2s+1)!}(x-b)^{2s+1} + 0((x-b)^{2s+1}).$$

Bu formulada o'ng tomonning ishorasi birinchi had bilan aniqlanadi, ishoraga $0((x-b)^{2s+1})$ had ta'sir eta olmaydi. Avval (a,b) intervalni ko'raylik. Unda $x-b<0$, demak, $(x-b)^{(2s+1)}<0$ Bundan (a,b) va $f(x)$ ning ishorasi $f^{(2s+1)}(b)$ ning ishorasiga teskari bo'lib chiqadi, ya'ni (a,b) intervalda

$$signf(x) = -sign\frac{f^{(2s+1)}(b)}{(2s+1)!}, x \in (a,b). \quad (1.11)$$

(b,c) interval uchun $x-b>0$, $(x-b)^{2s+1}>0$ va (b,c) da

$$signf(x) = sign\frac{f^{(2s+1)}(b)}{(2s+1)!}, x \in (b,c). \quad (1.12)$$

Topilgan (1.11) va (1.12) munosabatlardan $(x-b)^{(2s+1)}<0$ bo'lsa, $f(x)>0,\ x\in(a,b),\ f(x)<0, x\in(b,c)$ tengsizliklar kelib chiqadi. Bu holda ta'rif bo'yicha b nuqta turg'un bo'ladi. Agar $(x-b)^{(2s+1)}>0$ bo'lsa, ushbu $f(x)<0,\ x\in(a,b);\ f(x)>0,\ x\in(b,c)$ tengsizliklarga egamiz. Bu holda esa b nuqta noturg'un bo'ladi. Teorema isbot bo'ldi.

Hozir isbotlangan teoremada keltirilgan (1.9) va (1.10), (1.10'), (1.10'') shartlar muvozanat nuqtasining yarim turg'un, yurg'un va noturg'un bo'lishi uchun yetarli shart vazifasini bajaryapti. Aslida bu shartlar zarur va yetarlidir. Zarurligining isboti ham yuqoridagi kabi bo'ladi.

Misollar. 1. Avval $\dot{x} = x$ tenglamani olaylik. Unda $f(x) = x$ bo'lib, $f'(0) = 1 > 0$. Demak, yuqoridagi teoremaga ko'ra $x = 0$ nuqta notug'un. Agar $\dot{x} = -x$ tenglamani olsak, unda $f(x) = -x$ va $f'(0) = -1 < 0$. Bu holda $x = 0$ nuqta turg'un bo'ladi. Endi $\dot{x} = p(x-1)(x+1)(x+2), 0 \neq p = const$ tenglamani ko'raylik. Unda $f(x) = p(x-1)(x+1)(x+2)$ bo'lib, $x_1 = 1, x_2 = -1, x_3 = -2$ nuqtalar muvozanat nuqtalaridan iborat. Hosilalarni isbotlaymiz:

$$f'(x) = p[(x+1)(x+2) + (x-1)(x+2) + (x-1)(x+1)].$$



7-chizma.

Ko'rinib turibdiki, $f'(1) = 6p, f'(-1) = -2p, f'(-2) = 3p$ va $p \neq 0$ bo'lgani uchun bu hosilalar noldan farqli. Biz $2s+1=1$ bo'lgan holga egamiz. $p > 0$ bo'lsa, $6p > 0$ va $x_1 = 1$ nuqta noturg'un; $-2p > 0$ va $x_2 = -1$ nuqta turg'un; $3p < 0$ va $x_3 = -2$ nuqta noturg'un bo'ladi (7-chizma).

2. Ushbu $\dot{x} = \sin x$ tenglama uchun muvozanat nuqtalari $\sin x = 0$ tenglamaning ildizlaridan iborat. Ildizlar $x = n\pi$ ($n-$ butun son) ko'rinishda yoziladi. Bu holda $f'(x) = (\sin x)' = \cos x$ bo'lib:

$$\cos x \begin{cases} > 0, & \text{agar} \quad x = 2k\pi, \quad k - \text{butun son}, \\ < 0, & \text{agar} \quad x = (2k+1)\pi, k - \text{butun son} \end{cases}$$

Yuqoridagi teoremaga ko'ra, $x = 2k\pi$ ko'rinishdagi nuqtalar noturg'un, $x = (2k+1)\pi$ ko'rinishdagi nuqtalar esa turg'un bo'ladi. Qayd qilib o'tamizki, berilgan tenglamaning muvozanat nuqtalari sanoqli bo'lib, limit nuqtaga ega emas.

3. Avtonommas sistemaning holatlar fazosiga misol.

Ushbu

$$\begin{cases} \dot{x}_1 = a \\ \dot{x} = 3bt^2 \end{cases}, a > 0, b > 0 \quad (1.13)$$

Avtonommas sistemani olaylik. Uning umumiy yechimi

$$\begin{cases} x_1 = at + c_1 \\ x_2 = bt^3 + c_2 \end{cases} \quad (1.14)$$

ko'rinishda yoziladi. Berilgan sistemada $n = 2$ bo'lib,

$f_1 = a,\ f_2 = 3bt^2$ funksiyalar t, x_1 va x_2 lar bo'yicha uzluksiz differensiallanuvchi. Koshi teoremasiga ko'ra, (t, x_1, x_2) o'zgaruvchilarning fazosida ixtiyoriy tayinlangan (t_0, x_1^0, x_2^0) nuqtadan berilgan sistemaning yagona integral chizig'i o'tadi. Bu bir tomondan. Endi sistemaning yechimini holatlar fazosida tasvirlashni ko'raylik. Uning uchun (1.14) da t parametrni chiqarib tashlaymiz:

$$x_2 = \frac{b}{a^3}(x - c_1)^3 + c_2 \quad (1.15)$$

Bu kubik parabolalardan iborat bo'lib, (c_1, c_2) nuqtadan o'tadi va $x_2 = c_2$ chiziqdan pastda qavariqligi yuqoriga, shu chiziqdan yuqorida esa qavariqligi pastga qaragan bo'ladi. Shu bilan birga y chiziq $x = c_1$ chiziqqa urinadi ham. Agar yo $c_1' = c_1'', c_2' \neq c_2''$, yoki $c_1' \neq c_1'', c_2' = c_2''$ bo'lsa, tegishli kubik parabolalar o'zaro kesishmaydi. (8-rasm). Bu analitik usulda isbotlash qiyin emas. Parabolalar kesishadi deylik. U holda

$$y = \frac{b}{a^3}(x - c_1') + c_2', \quad y = \frac{b}{a^3}(x - c_1'') + c_2''$$

lardan

$$A(c_1'' - c_1') = c_2'' - c_2', \quad A = \frac{b}{a^3} > 0 \quad (1.16)$$

tenglikga egamiz. Agar $c_1' = c_1'', c_2' \neq c_2''$, yoki $c_1' \neq c_1'', c_2' = c_2''$ munosabatlarni ko'rsak, yuqorida ziddiyatga kelamiz. Demak, kubik parabolalar kesisha



8-chizma.

olmaydi.

Endi $c_1' = c_1'', c_2' \neq c_2'',$ bo'lsin. U holda tegishli kubik parabolalar (1.16) tenglik o'rinli bo'lganda o'zaro kesishadi. Demak, (x_1, x_2) tekislikning har bir nuqtasidan yagona kubik parabola o'tmaydi (chizma). Ammo (t, x_1, x_2) fazoda yagonalik o'rinli edi. Shunday qilib, bu misoldan ko'rinadiki, avtonommas sistemalarni ularning holatlar fazosida tekshirish maqsadga muvofiq emas.

II bob. Bir jinsli sistemaning holatlar tekisligi.

2.1-§. Sistemaning kanonik ko'rinishi.

Bizga ushbu

$$\begin{cases} \dot{x}_1 = a_{11}x_1 + a_{12}x_2, \\ \dot{x}_2 = a_{21}x_1 + a_{22}x_2 \end{cases}$$

chiziqli o'zgarmas koeffitsientli bir jinsli sistema berilgan bo'lsin. Bu sistemaning determinant:

$$D = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix}$$

bo'lib, (1.17) sistema uchun koordinata boshi $(0,0)$ muvozanat nuqta bo'ladi. Ammo undan boshqa muvozanat holatlar ham bo'lishi mumkin. Agar $D \neq 0$ bo'lsa, ravshanki, $A = (a_{ij}), i, j = 1,2$ matrisaning har ikki xos sonlari noldan farqli bo'ladi.

Hozir biz A matrisa xos sonlariga qarab, (1.17) sistemaning ko'rinishini soddalashtirish bilan shug'ullanamiz.

A) A matrisaning xos sonlari haqiqiy, har xil va noldan farqli. Ularni λ_1 va λ_2 deylik. Bu holda (1.17) sistemani maxsusmas almashtirish yordamida

$$\begin{cases} \dot{y}_1 = \lambda_1 y_1, \\ \dot{y}_2 = \lambda_2 y_2 \end{cases} \quad (2.1)$$

ko'rinishga keltirish mumkin.

Shu munosabat bilan quyidagi almashtirishni bajaraylik:

$$\begin{cases} y_1 = \alpha x_1 + \beta x_2, \\ y_2 = \gamma x_1 + \delta x_2, \end{cases} \quad (2.2)$$
$$\alpha\delta - \beta\gamma \neq 0.$$

Hosilalarni hisoblab, (2.17) dan foydalanamiz:

$$\dot{y}_1 = \alpha\dot{x}_1 + \beta\dot{x}_2 = (a_{11}\alpha + a_{21}\beta)x_1 + (a_{12}\alpha + a_{22}\beta)x_2,$$
$$\dot{y}_1 = \gamma\dot{x}_1 + \delta\dot{x}_2 = (a_{11}\gamma + a_{21}\delta)x_1 + (a_{12}\gamma + a_{22}\delta)x_2.$$

Bu ifodalarni mos ravishda $\lambda_1 y_1$ va $\lambda_2 y_2$ larga tebglashtiramiz:

$$\begin{cases} (a_{11}\alpha + a_{21}\beta)x_1 + (a_{12}\alpha + a_{22}\beta)x_2 = \lambda_1(\alpha x_1 + \beta x_2), \\ (a_{11}\gamma + a_{21}\delta)x_1 + (a_{12}\gamma + a_{22}\delta)x_2 = \lambda_2(\gamma x_1 + \delta x_2). \end{cases}$$

Endi x_1 va x_2 lar oldidagi koeffisientlarni tenglashtirsak, ushbu

$$\begin{cases} (a_{11} - \lambda_1)\alpha + a_{21}\beta = 0, \\ a_{12}\alpha + (a_{22} - \lambda_1)\beta = 0; \end{cases} \quad (2.3)$$

$$\begin{cases} (a_{11}-\lambda_2)\gamma + a_{21}\delta = 0, \\ a_{12}\gamma + (a_{22}-\lambda_1)\delta = 0 \end{cases} \quad (2.4)$$

sistemalarni hosil qilamiz. Ravshanki λ_1 va λ_2 uchun

$$D(\lambda_i) = \begin{vmatrix} a_{11}-\lambda_i & a_{12} \\ a_{21} & a_{22}-\lambda_i \end{vmatrix} = 0, \quad i = 1,2 \text{ bunda } D(\lambda) = \begin{vmatrix} a_{11}-\lambda & a_{12} \\ a_{21} & a_{22}-\lambda \end{vmatrix}.$$

Shuning uchun

$$D^*(\lambda_i) = \begin{vmatrix} a_{11}-\lambda_i & a_{12} \\ a_{21} & a_{22}-\lambda_i \end{vmatrix} = 0, \quad i = 1,2$$

bo'ladi. bu tenglikka asosan (2.3) va (2.4) sistemalar α, β va γ, δ larga nisbatan trivial bo'lmagan yechimlarga ham ega. Xususan,

$$\alpha = a_{21},\ \beta = -(a_{11}-\lambda_1);\ \gamma = a_{21},\ \delta = -(a_{11}-\lambda_2) \qquad (2.5)$$

deb tanlasa bo'ladi. Agar (2.5) tengliklardan foydalansak, (2.2) almashtirish maxsusmas bo'la oladimi? Shuni tekshiraylik. Quyidagiga egamiz:

$$\alpha\delta - \beta\gamma = -a_{21}(a_{11}-\lambda_2) + (a_{11}-\lambda_1)a_{21} = a_{21}(\lambda_2-\lambda_1).$$

Bundan $a_{21} \neq 0$ bo'lganda $\alpha\delta - \beta\gamma \neq 0$ ekani kelib chiqadi. Agar $a_{21} = 0$ bo'lsa $a_{12} = 0$ bo'lganda (1.17) sistema

$$\begin{cases} \dot{x}_1 = a_{21}x_1, \\ \dot{x}_2 = a_{22}x_2 \end{cases}$$

ko'rinishda, ya'ni (2.1) ko'rinishida yozilgan bo'ladi. Endi agar $a_{21} = 0$ bo'lib, $a_{12} \neq 0$ bo'lsa, u holda (1.17) sistema ushbu

$$\begin{cases} \dot{x}_1 = a_{11}x_1 + a_{12}x_2, \\ \dot{x}_2 = a_{22}x_2 \end{cases}$$

ko'rinishni oladi. Bunda x_1 va x_2 lar rolini almashtirsak,

$$\begin{cases} \dot{x}_1 = a_{22}x_1, \\ \dot{x}_2 = a_{12}x_1 + a_{11}x_2 \end{cases}$$

sistemaga ega bo'lamiz. Endi bu sistemada a_{21} o'rnida a_{12} turibdi. Shuning uchun $a_{21} \neq 0$ bo'lgandagi mulohazalar $a_{12} \neq 0$ bo'lganda ham o'tadi. Shunday qilib, (2.17) sistemani uning matrisasi haqiqiy, har xil va noldan farqli xos sonlarga ega bo'lganda (2.1) ko'rinishda yozish mumkin. Bu (2.1) sistema ko'rilayotgan holda (1.17) sistemaning kanonik ko'rinishi deyiladi.

b) A matrisaning xos sonlari qo'shma kompleks. Ularni $\lambda_1 = \mu + i\nu, \lambda_2 = \mu - i\nu, \nu \neq 0$ deylik. Avvalo (2.5) qiymatlardan foydalansak, (2.2) almashtirishni bunday yozish mumkin:

$$\begin{cases} y_1 = a_{21}x_1 - (a_{11} - \lambda_1)x_2, \\ y_2 = a_{21}x_1 - (a_{11} - \lambda_2)x_2. \end{cases}$$

Shu almashtirish formulalari λ_1, λ_2 lar kompleks bo'lganda ham o'rinli. λ_1 va λ_2 lar o'rniga o'z ifodalarini qo'yamiz:

$$\begin{cases} y_1 = a_{21}x_1 - (a_{11} - \mu - i\nu)x_2, \\ y_2 = a_{21}x_1 - (a_{11} - \mu + i\nu)x_2. \end{cases} \quad (2.6)$$

Bundan, agar

$$\begin{cases} y_1 = \mu_1 + iu_2, \\ y_2 = \mu_1 - iu_2 \end{cases}$$

deb belgilasak,

$$\begin{aligned} u_1 &= a_{21}x_1 - (a_{11} - \mu)x_2, \\ u_2 &= \nu x_2 \end{aligned} \quad (2.7)$$

kelib chiqadi. Sodda hisoblashlar yordamida (2.1), (2.6) va (2.7) larga ko'ra quyidagiga egamiz:

$$\frac{dy_1}{dt} = \frac{du_1}{dt} + i\frac{du_2}{dt} = (\mu + i\nu)y_1,$$

$$\begin{aligned} \frac{du_1}{dt} + i\frac{du_2}{dt} &= (\mu + i\nu)[a_{21}x_1 - (a_{11} - \mu - i\nu)x_2] = \\ &= (\mu u_1 - \nu u_2) + i(\nu u_1 + \mu u_2). \end{aligned}$$

Shunday qilib, ushbu

$$\frac{du_1}{dt}+i\frac{du_2}{dt}=(\mu u_1+\nu u_2)+i(\nu u_1+\mu u_2)$$

tenglikdan

$$\begin{cases} \dfrac{du_1}{dt}=\mu u_1-\nu u_2, \\ \dfrac{du_2}{dt}=\nu u_1+\mu u_2 \end{cases} \qquad (2.8)$$

munosabatlarni hosil qilamiz. Shu (2.8) sistema berilgan sistemaning xos sonlar kompleks bo'lgan holda kanonik ko'rinishidan iborat.

Albatta, (2.8) sistemani integrallab, (2.7) formulalar orqali $x_1(t)$ va $x_2(t)$ yechim topiladi.

v) A matrisaning xos sonlari o'zaro teng va noldan farqli. Ko'rilayotgan holda $\lambda_1=\lambda_2\neq 0.$ $D(\lambda)=0$ tenglamadan $\lambda_{1,2}=\dfrac{a_{11}+a_{22}}{2}$ ekani kelib chiqadi. Bu holda ham a) holdagi kabi mulohazalar yuritib, berilgan sistemani uning koeffisientlariga qarab xususan ushbu

$$\begin{cases} \dot{y}_1=\lambda_1 y_1, \\ \dot{y}_2=\lambda_1(y_1+\lambda_2) \end{cases} \text{yoki} \begin{cases} \dot{y}_1=\lambda_1 y_1, \\ \dot{y}_2=\lambda_1 y_2 \end{cases} \qquad (2.9)$$

kanonik ko'rinishga keltirish mumkin.

g) A matrisaning xos sonlari teng va noldan iborat, ya'ni $\lambda_1=\lambda_2=0.$ Bu holda $D(\lambda_{1,2})=0$ munosabatdan $a_{11}=a_{22}=0,\ a_{12}a_{21}=0,\ a_{11}=a_{21}=-a_{12}=-a_{22}=0$ ekani kelib chiqadi. Bu holda kanonik ko'rinish quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{cases} \dot{x}_1=a(x_1-x_2), \\ \dot{x}_2=a(x_1-x_2) \end{cases} \text{yoki} \begin{pmatrix} \dot{y}_1=0, \\ \dot{y}_2=0, \\ y_1=y_2=x_1-x_2 \end{pmatrix},$$

$$\begin{cases} \dot{x}_1=a_{12}x_2, \\ \dot{x}_2=0, \\ a_{21}=0, a_{12}\neq 0, \end{cases} \begin{cases} \dot{x}_1=0, \\ \dot{x}_2=a_{21}x_1, \\ a_{12}=0, a_{21}\neq 0, \end{cases} \begin{cases} \dot{x}_1=0, \\ \dot{x}_2=0, \\ a_{21}=a_{12}=0. \end{cases} \qquad (2.10)$$

Yuqorida biz chiziqli o'zgarmas koeffisientli bir jinsli sistemaning ko'rinishini uning xos sonlarigan qarab soddalashtirish bilan shug'ullandik.

Endi kanonik ko'rinishda yozilgan ikkinchi tartibli chiziqli sistemaning traektoriyalarini holatlar tekisligida o'rganamiz.

2.2-§. Bir jinsli sistemaning holatlar tekisligi.

Xos sonlar haqiqiy va kompleks bo'lgan hollarni alohida tekshiramiz.

A. A matrisaning xos sonlari haqiqiy, har xil va noldan farqli. Xos sonlari λ_1 va λ_2 desak, ularga mos kelgan chiziqli erkli xos vektorlarni topish mumkin. Shuning uchun (1.17) sistemaning umumiy yechimi

$$x = C_1 h^{(1)} e^{\lambda_1 t} + C_2 h^{(2)} e^{\lambda_2 t} \quad (2.11)$$

ko'rinishda yoziladi. Uni yana

$$x = \xi_1 h^{(1)} + \xi_2 h^{(2)} \quad (2.12)$$

$$(\text{ bunda } \xi_1 = C_1 e^{\lambda_1 t}, \xi_2 = C_2 e^{\lambda_2 t}) \quad (2.13)$$

ko'rinishda $h^{(1)}$ va $h^{(2)}$ vektorlar bo'yicha yoyib yozish mumkin. ξ_1 va ξ_2 sonlar holat tekisligida to'g'ri burchakli Dekart koordinatalaridan iborat bo'lishi shart emas, bu $h^{(1)}$ va $h^{(2)}$ vektorlar bo'yicha yo'nalgan o'qlarga bog'liq. Holatlar tekisligini P deylik. Uni ξ_1 va ξ_2 o'qlar $h^{(1)}$ va $h^{(2)}$ vektorlar bo'yicha yo'nalgan bo'ladi (9-chizma). Affin almashtirish yordamida P holat tekisligini shunday P^* tekislikka akslantirish mumkinki, unda $h^{(1)}$ va $h^{(2)}$ vektorlar o'zaro perpendikulyar e_1 va e_2 birlik vektorlarga o'tamiz, P tekislikning (ξ_1, ξ_2) nuqtasi P^* tekislikning to'g'ri burchakli dekart koordinatalariga o'tadi, ya'ni P da $x = \xi_1 h^{(1)} + \xi_2 h^{(2)}$ bo'lsa, P^* da $x = \xi_1 e_1 + \xi_2 e_2$, e_1 e_2 bo'ladi. Ko'rilayotgan holda (1.17) sistemani kanonik



a)



b)

9-chizma.

ko'rinishda yozish mumkin ((2.1) ga qarang). (2.1) sistemaning traektoriyalari P^* tekislikda chiziladi, chunki uning xos vektorlari $(1,0)$ va $(0,1)$ dan iborat.

Endi (2.1) sistemaning traektoriyalarini tasvirlashga o'tamiz. Avval $|\lambda_1| < |\lambda_2|$ va $\lambda_2 < \lambda_1 < 0$ yoki $\lambda_2 > \lambda_1 > 0$ tengsizliklar o'rinli bo'lsin. (2.13) dan ko'rinib turibdiki, birinchi chorakda chizilgan traektoriyalar yordamida olgan chorakdagi traektoriyalarni ham yozish mumkin. Undan tashqari, $\lambda_2 < \lambda_1 < 0$ bo'lgan holda $C_1 \neq 0, C_2 = 0$ bo'lsa, $\xi_1 = C_1 e^{\lambda_1 t}$, $\xi_2 = 0$, ya'ni ξ_1 o'qga egamiz. Unda $C_1 > 0$ bo'lganda harakat o'ngdan chapga, $C_2 < 0$ bo'lganda esa chapdan o'ngga bo'ladi. Boshqacha aytganda, $t \to +\infty$da C ning ishoasidan qat'i nazar,

$\lim\limits_{t\to+\infty}\xi_1 = \lim\limits_{t\to+\infty}C_1e^{\lambda_1 t} = 0$ va koordinata boshidan ikki tomonda harakat shu nuqtaga yo'nalgan bo'ladi. Xuddi shu xususiyat ξ_2 o'qga ham tegishli (10-chizma). Endi $C_1 > 0,\ C_2 > 0$ bo'lganda, ya'ni I chorakda traektoriyalarning qavariqligini tekshiraylik. Ravshanki,

$$\frac{d\xi_2}{d\xi_1} = \frac{C_1}{C_2}(\lambda_2 - \lambda_1)e^{(\lambda_2-\lambda_1)t},$$

$$\frac{d^2\xi_2}{d\xi_1^2} = \frac{C_1}{C_2}(\lambda_2 - \lambda_1)^2 e^{(\lambda_2-\lambda_1)t} > 0.$$

Bundan I chorakda traektoriyalarning qavariqligi pastga qaraganligi kelib chiqadi. Ushbu

$$\lim_{t\to+\infty}\frac{d\xi_2}{d\xi_1} = \lim_{t\to+\infty}\frac{C_1}{C_2}(\lambda_2 - \lambda_1)e^{(\lambda_2-\lambda_1)t} = 0$$

munosabatdan $t\to+\infty$ da traektoriyalar abscissa o'qiga urinishi chiqadi. I

chorakda $\frac{d\xi_1}{dt} = C_1\lambda_1e^{\lambda_1 t} < 0, \frac{d\xi_2}{dt} = C_2\lambda_2e^{\lambda_2 t} < 0$

bo'lgani uchun ξ_1 va ξ_2 lar *t*ortishi bilan kamayadi va demak, harakat yuqoridan pastga hamda o'ngdan chapga yo'nalgan bo'ladi (10-chizma). traektoriyalar chekli vaqtda koordinata boshiga kela olmaydi. Koordinata boshi berilgan sistema uchun yagona muvozanat nuqtasidan iborat bo'lib, u mustaqil yechimdir. Qolgan choraklardagi traektoriyalarni shu chizilgan traektoriyalardan ularni ξ_1 va ξ_2 o'qlarga nisbatan simmetrik aylantirish yordamida hosil qilamiz. Shunday qilib, butun tekislikda traektoriyalar chizildi deyish mumkin (10-chizma). $\lambda_2 > \lambda_1 > 0$ bo'lganda ham huddi shu usul bilan traektoriyalar chiziladi. Traektoriyalar avvalgisidan farq qilmasada, ularda yo'nalish teskari bo'ladi (11-chizma). Xos sonlarning $\lambda_2 < \lambda_1 < 0$ qiymatiga mos manzara (10-chizma) turg'un tugun, $\lambda_2 > \lambda_1 > 0$ qiymatlariga mos manzara esa (11-chizma) noturg'un tugun deyiladi. Eslatib o'tamizki, traektoriyalar $\lambda_2 < \lambda_1 < 0$ bo'lganda esa $t\to+\infty$ da, $\lambda_2 > \lambda_1 > 0$ bo'lganda esa $t\to-\infty$ da P^* tekislikda ξ_1 o'qiga urinadi; P tekislikda bu λ_1 ga mos kelgan xos vektorning yo'nalishi bilan bog'liq bo'ladi. Aytilgan xossa misollar ko'rishda qulaylik tug'diradi.

Xos sonlar uchun $\lambda_1 < 0 < \lambda_2$ $(\lambda_2 < 0 < \lambda_1)$ tensizlik o'rinli bo'lsin deylik. Bu holda xos sonlar turli ishoralarga ega. $\lambda_1 < 0 < \lambda_2$ bo'lganda ξ_1 o'qi bo'yicha harakat koordinata boshiga yo'nalgan bo'lib, ξ_2 o'qi bo'yicha harakat koordinata boshidan uzoqlashadi. Traektoriyalarni qurish uchun ularni I chorakda qurish yetarli. Avval qavariqlikni tekshiraylik. $\lambda_1 - \lambda_2 > 0$ bo'lgani uchun $\frac{d^2\xi_2}{d\xi_1^2} > 0$ bo'ladi, demak, I chorakda qavariqlik pastga qaragan. Shunga o'xshash ushbu

$$\lim_{t\to+\infty}\frac{d\xi_2}{d\xi_1} = \lim_{t\to+\infty}\frac{C_2}{C_1}(\lambda_2 - \lambda_1)e^{(\lambda_2-\lambda_1)t} = +\infty,$$



10-chizma.



11-chizma.

$$\lim_{t\to-\infty}\frac{d\xi_2}{d\xi_1}=\lim_{t\to-\infty}\frac{C_2}{C_1}(\lambda_2-\lambda_1)e^{(\lambda_2-\lambda_1)t}=o,\quad \lim_{t\to+\infty}\xi_1(t)=0,$$

$$\lim_{t\to+\infty}\xi_2(t)=+\infty$$

Munosabatlarga egamiz. Bundan I chorakdagi traektoriyalar parabolalarga o'xshashligi va ularda harakat o'ngdan chapga va pastdan yuqoriga yo'nalganligi kelib chiqadi (12-chizma). Akslantirish yordamida traektoriyalarni boshqa choraklarda ham chizamiz. Agar xos sonlar $\lambda_2<0<\lambda_1$ tengsizlikni qanoatlantirsa, yuqoridagi usul bilan yana traektoriyalarni qurish mumkin (13-chizma). Har ikki holda ham hosil bo'lgan manzara egar deyiladi.

Misollar. 1. Ushbu

$$\begin{cases}\dot{x}_1=-3x_1+x_2\\ \dot{x}_2=4x_1-3x_2\end{cases}$$

sistemaning traektoriyalari chizilsin va muvozanat nuqtasi atrofidagi manzara aniqlansin. A matrisani yozamiz: $A=\begin{pmatrix}-3 & 1\\ 4 & -3\end{pmatrix}$. Bu matrisaning xos sonlarini topamiz: $\begin{vmatrix}-3-\lambda & 1\\ 4 & -3-\lambda\end{vmatrix}=0$ yoki $(3+\lambda)^2-4=0.$ Bundan $3+\lambda=\pm2$ yoki $\lambda_1=-1,\ \lambda_2=-5.$ Ravshanki, $\lambda_2<\lambda_1, |\lambda_2|>|\lambda_1|.$ Xos sonlar har xil va manfiy bo'lgani uchun biz turg'un tugunga egamiz. Endi shu manzarani chizaylik. Uning uchun xos vektorlarni topish kerak. $\lambda_1=-1$ ga mos xos vektor $h^{(1)}=\begin{pmatrix}h_1^{(1)}\\ h_2^{(1)}\end{pmatrix}$ ushbu $Ah^{(1)}=(-1)h^{(1)}$ yoki $\begin{pmatrix}-3h_1^{(1)}+x_2\\ 4h_1^{(1)}-3h_2^{(1)}\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}-h_1^{(1)}\\ -h_2^{(1)}\end{pmatrix}$ sistemadan topiladi. Ravshanki, biz $-2h_1^{(1)}+h_2^{(1)}=0$ tenglamaga egamiz va undan $h_1^{(1)}=1, h_2^{(1)}=2$ deb olish mumkin. Agar $h_1^{(1)}=-1,\ h_2^{(1)}=-2$ desak ham o'sha yo'nalish chiqariladi. Shunga o'xshash $\lambda_2=-5$ xos songa mos xos vektor topiladi:

$$h^{(2)} = \begin{pmatrix} h_1^{(2)} \\ h_2^{(2)} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \\ -2 \end{pmatrix}.$$



12-chizma.



13-chizma.

Endi tekislikda koordinata boshidan shu vektorlar yo’nalishida to’g’ri chiziqlar o’tkazamiz. Absolyut qiymati bo’yicha kichik xos son $\lambda_1 = -1$ bo’lgani uchun traektoriyalar shu xos songa mos $h^{(1)}$ vektor yo’nalishiga $t \to +\infty$ da urinadi (14-chizma).



14-chizma.



15-chizma.

2. Ushbu

$$\begin{cases} \dot{x}_1 = 3x_1 + x_2 \\ \dot{x}_2 = 4x_1 + 3x_2 \end{cases}$$

sistema uchun $A = \begin{pmatrix} 3 & 1 \\ 4 & 3 \end{pmatrix}$ va xos sonlari $\begin{vmatrix} 3-\lambda & 1 \\ 4 & 3-\lambda \end{vmatrix} = 0$ tenglamadan topiladi:

$\lambda_1 = 1, \lambda_2 = 5$. $\lambda_1 = 1$ ga mos xos vektor $h^{(1)} = \begin{pmatrix} 1 \\ -2 \end{pmatrix}$ va $\lambda_2 = 5$ ga mos xos vektor esa $h^{(2)} = \begin{pmatrix} 1 \\ 2 \end{pmatrix}$ dan iborat. Xos sonlar turli va musbat bo'lgani uchun biz noturg'un tugunga egamiz. Traektoriyalar $t \to -\infty$ da $h^{(1)} = \begin{pmatrix} 1 \\ -2 \end{pmatrix}$ vektor yo'nalishiga koordinata boshida urinadi (15-chizma).

B) A matrisaning xos sonlari kompleks. Bu holda xos sonlar qo'shma kompleks bo'lib, ularni $\lambda = \mu + iv,\ \lambda = \mu - iv,\ v \neq 0$ deb belgilaymiz. v ni doim $v > 0$ deb qarash mumkin. Shu xos sonlarga mos xos vektorlar ham qo'shma kompleks bo'ladi. Agar $h^{(1)}$ va $h^{(2)}$ lar haqiqiy vektor bo'lsa, mos xos vektorlarni h va $\bar{h}$ deb belgilanadi va bunday aniqlanadi:

$$h = \frac{1}{2}\left(h^{(1)} - ih^{(2)}\right),$$

bunda $h^{(1)}$ va $h^{(2)}$ lar chiziqli erkli, aks holda h va $\bar{h}$ lar chiziqli bog'liq bo'lar edi. Shuning uchun $h^{(1)}$ va $h^{(2)}$ haqiqiy vektorlarni P tekislikda xos yo'nalishlar deb qarash mumkin.

Endi P^* tekislikda traektoriyalarni quramiz. Kurilayotgan holda berilgan sistemaning kanonik shakli ma'lum. Uni yozaylik ((2.8) ga qarang):

$$\begin{cases} \dot{\xi}_1 = \mu\xi_1 - v\xi_2, \\ \dot{\xi} \ = v\xi_1 + \mu\xi_2. \end{cases} \quad (2.8)$$

Bu sistemaning umumiy yechimi

$$\begin{cases} \xi_1(t) = Ce^{\mu t}\cos(vt + \gamma), \\ \xi_2(t) = Ce^{\mu t}\sin(vt + \gamma) \end{cases}$$

ko'rinishda yoziladi (C va γ – ixtiyoriy o'zgarmaslar). Unda *t*ni parametr deb qarasak, biz traektoriyalarning parametrik tenglamasiga egamiz. Ularni qurish uchun qutb koordinatalariga o'tish qulaylik tug'diradi. Shu maqsadda $\xi_1 = \rho\cos\varphi,\ \xi_2 = \rho\sin\varphi$ (ρ, φ – qutb kordinatalari) deyiladi. Shuning uchun yuqorida yozilgan umumiy yechim

$$\rho = Ce^{\mu t}(C>0),\ \varphi = \nu t + \gamma,\ (\nu > 0)\ (2.14)$$

ko'rinishni oladi. Bu munossabatga ko'ra to'sishi bilan φ burchak ham o'sadib (chunki $\nu > 0$deb qarayapmiz). Boshqacha aytganda, koordinata boshidan chiqarilgan nur $(\xi_1(t), \xi_2(t))$ nuqtadan o'tib sekundiga γ darian tezlik bilan soat strelkasiga qarshi yonalishda buriladi. (2.14) dan $t$ni chiqaramiz:

$$\rho = Ke^{\frac{\mu}{\nu}\varphi},\quad (2.15)$$

bunda $K = Ce^{-\frac{\mu}{\nu}\gamma} = const.$ Traektoriyalarning ko'rinishi $\mu > 0,\ \mu < 0,\ \mu = 0$ qiymatlarga qarab har xil bo'ladi. $\mu < 0$ bo'lsin. $\nu > 0$ bo'lgani uchun $\lim\limits_{t\to+\infty}\rho = 0,$ chunki $\frac{\mu}{\nu} < 0$ va $\lim\limits_{t\to+\infty}\varphi = +\infty.$ Demak, $t \to +\infty$ da holay nuqtasi koordinata boshiga yaqinlashadi. Hosil bo'lgan manzara turg'un fokus deyiladi. Agar $\mu > 0$ bo'lsa, yuqoridagi kabi mulohazala yordamida noturg'un fokus manzarasini qurish mumkin.

Agar $\mu = 0$ bo'lsa, (2.15) formuladan $\rho = K\ (K = const)$ kelib chiqadi. Bu esa, markazi koordinata boshida bo'lgan konsentrik aylanalardan iborat. Hosil bo'lgan manzara markaz deb ataladi.

Misollar. 1. Ushbu

$$\begin{cases} \dot{x}_1 = 3x_1 - x_2, \\ \dot{x}_2 = 4x_1 + 3x_2 \end{cases}$$

sistema uchun $A = \begin{pmatrix} 3 & -1 \\ 4 & 3 \end{pmatrix}$ va $\begin{vmatrix} 3-\lambda & -1 \\ 4 & 3-\lambda \end{vmatrix} = 0$ tenglamadan $\lambda = 3 \pm 2i.$

Demak, $\mu = 3, \nu = 2, \lambda = 3 \pm 2i$ xos son uchun xos vektorni izlaymiz.

$$\begin{pmatrix} 3 & -1 \\ 4 & 3 \end{pmatrix}\begin{pmatrix} h_1 \\ h_2 \end{pmatrix} = (3+2i)\begin{pmatrix} h_1 \\ h_2 \end{pmatrix} \text{ yoki } \begin{pmatrix} 3h_1 - h_2 \\ 4h_1 + 3h_2 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} (3+2i)h_1 \\ (3+2i)h_2 \end{pmatrix}$$

Bundan

$$\begin{cases} 3h_1 - h_2 = 3h_1 + 2ih_2, \\ 4h_1 + 3h_2 = 3h_2 + 2ih_2 \end{cases} \quad \text{yoki} \quad \begin{cases} -h_2 = 2ih_1, \\ 4h_1 = 2ih_2. \end{cases}$$

Ohirgi ikki tenglikning biri ikkinchisidan hosil qilinishi mumkin. Shuning uchun $h_1 = 1, h_2 = -2i$ deb tanlasa bo'ladi. Endi $h = \begin{pmatrix} h_1 \\ h_2 \end{pmatrix}$ vektorni bunday tasvirlaymiz:

$$h = \begin{pmatrix} h_1 \\ h_2 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \\ -2i \end{pmatrix} = \frac{1}{2}\left[\begin{pmatrix} 2 \\ 0 \end{pmatrix} - i\begin{pmatrix} 0 \\ 4 \end{pmatrix}\right].$$

Ko'rinadiki, $h^{(1)} = \begin{pmatrix} 0 \\ 2 \end{pmatrix}, h^2\begin{pmatrix} 0 \\ 4 \end{pmatrix}$ vektorlar izlangan bo'lib, ular abscissa va ordinate o'qlari bo'yicha yo'nalgandir. Ko'rilayotgan misolda $\mu = 3 > 0$ bo'lgani uchun biz noturg'un fokus manzarasiga egamiz.

2. Ushbu

$$\begin{cases} \dot{x}_1 = -2x_1 + 10x_2, \\ \dot{x}_2 = -x_1 \end{cases}$$

sistema uchun

$$A = \begin{pmatrix} -2 & 10 \\ -1 & 0 \end{pmatrix} \text{ va } \lambda_{1,2} = -1 \pm 3i,\ \mu = -1 < 0, v = 3.$$

Avvalo biz $\mu < 0$ bo'lganidan turg'un fokus manzarasiga egamiz. Endi xos vektorlarni topaylil. Sodda hisoblashlar ko'rsatadiki,

$$\begin{pmatrix} -2 & 10 \\ -1 & 0 \end{pmatrix}\begin{pmatrix} h_1 \\ h_2 \end{pmatrix} = (-1 \pm 3i)\begin{pmatrix} h_1 \\ h_2 \end{pmatrix},$$

yoki

$$\begin{cases} -2h_1 + 10h_2 = -h_1 + 3ih_1, \\ -h_1 = -h_2 + 3ih_2 \end{cases}$$

yoki

$$\begin{cases} (-1 - 3i)h_1 + 10h_2 = 0, \\ h_1(-1 + 3i)h_2 = 0. \end{cases}$$

Ohirgi ikki tenglik o'zaro ekvivalent. Shuning uchun $h_1 = 10,\ h_2 = 1 + 3i$ deb tanlanishi mumkin. Endi $h = \begin{pmatrix} h_1 \\ h_2 \end{pmatrix}$ vektor uchun quyidagiga egamiz:

$$h = \begin{pmatrix} h_1 \\ h_2 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 10 \\ 1+3i \end{pmatrix} = \frac{1}{2}\left[\begin{pmatrix} 20 \\ 2 \end{pmatrix} + i\begin{pmatrix} 0 \\ 6 \end{pmatrix}\right].$$

Bundan haqiqiy son vektor sifatida

$$h^{(1)} = \begin{pmatrix} 20 \\ 2 \end{pmatrix},\ h^{(2)} = \begin{pmatrix} 0 \\ 6 \end{pmatrix}$$

vektorlarni, yoki bari bir

$$h^{(1)} = \begin{pmatrix} 10 \\ 1 \end{pmatrix}, h^{(2)} = \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix}$$

vektorni olish mumkin.

V) A matrisaning xos sonlari teng va noldan farqli. A matrisaning xos sonini λ deylik. Unga mos xos vektorlar uchun ikki hol yuz berishi mumkin:

1-hol. P tekislikda shunday ikkita chiziqli erkli $h^{(1)}$ va $h^{(2)}$ vektorlar mavjudki, ular uchun ushbu

$$Ah^{(1)} = \lambda h^{(1)},\ \ Ah^{(2)} = \lambda h^{(2)} \quad (2.16)$$

tenglik o'rinli.

2-hol. P tekislikda shunday ikkita chiziqli erkli $h^{(1)}$ va $h^{(2)}$ vektorlar mavjudki, ular uchun ushbu

$$Ah^{(1)} = \lambda h^{(1)},\ Ah^{(2)} = \lambda h^{(2)} + h^{(1)} \quad (2.17)$$

tengliklar o'rinli.

Shu (2.16) yoki (2.17) tengliklarni qanoatlantiradigan $h^{(1)}$ va $h^{(2)}$ chiziqli erkli vektorlarning (bazisning) mavjudligini ko'rsatamiz.

$h^{(1)} - A$ matrisaning xos vektori bo'lib, $h^{(2)} -$ unga kollinear bo'lmagan ixtiyoriy vektor bo'lsin. U holda

$$Ah^{(1)} = \lambda h^{(1)} \text{ va } Ah^{(2)} = \alpha h^{(1)} + \beta h^{(2)}$$

tengliklarga egamiz. Ulardan $h^{(1)}$ va $h^{(2)}$ larni topish uchun sistema sifatida foydalanish mumkin. Bu sistemaning matrisasi

$$\begin{pmatrix} \lambda & 0 \\ \alpha & \beta \end{pmatrix}$$

bo'lib, xos sonlari λ va β dan iborat. Shuning uchun $\lambda = \beta.$ Agar $\alpha = 0$ bo'lsa, (2.16) tenglikga egamiz. $\alpha \neq 0$ bo'lganda esa (2.17) tengliklarda $h^{(1)}$ vektorni unga kollinear $\alpha h^{(1)}$ bilan almashtiramiz. Shu bilan (2.16) yoki (2.17) larni qanoatlantiradigan basis vektorlarning mavjudligi isbot etildi.

1-holda umumiy yechim

$$x = C_1 h^{(1)} e^{\lambda t} + C_2 h^{(2)} e^{\lambda t} = x^0 e^{\lambda t} \quad (2.18)$$



a) b)

16-chizma.

ko'rinishda yoziladi.

Bu yechim uchun $x(0) = x^0.$ Biz $\lambda \neq 0$ holni ko'rayotganimiz uchun (2.18) yechim koordinata boshidan chiqadigan yarim to'g'ri chiziqlarni ifodalaydi. Ularda harakat $\lambda < 0$ bo'lganda koordinata boshiga yo'nalgan bo'lib, $\lambda > 0$ bo'lganda esa yo'nalish buning aksi bo'ladi (16-chizma).

Yuqorida ko'rilgan hollarda $\lambda < 0$ bo'lganda turg'un tug'ilma tugun, $\lambda > 0$ bo'lganda esa noturg'un tug'ilma tugun manzaralariga egamiz.

2-holda umumiy yechim

$$x = C_1 h^{(1)} e^{\lambda t} + C_2 \left(h^{(1)} t + h^{(2)}\right) e^{\lambda t}$$

ko'rinishda yoziladi. Buni yana bazislar bo'yicha yoyib yozish ham mumkin:

$$x=(C_1+C_2t)h^{(1)}e^{\lambda t}+C_2h^{(2)}e^{\lambda t}.$$

Bundan P tekislikda traektoriyalar tenglamasini topamiz:

$$\xi_1=(C_1+C_2t)e^{\lambda t},\ \xi_2=C_2e^{\lambda t}. \quad (2.19)$$

Bu traektoriyalarni P^* tekislikni ko'ramiz.

Avval $\lambda<0$ bo'lsin. (2.19) formulalardan C_1 ni $-C_1$ ga, C_2 ni $-C_2$ ga almashtirsak, koordinata boshigaga nisbatan simmetriya hosil bo'ladi. Shuning uchun traektoriyalarni yuqori yarim tekislikda chizamiz. So'ngra undan pastki yarim tekislikdagi traektoriyalarni hosil qilish mumkin.

Dastlab $C_2=0, C_1\neq 0$ deylik. U holda (2.19) dan $\xi_1=C_1e^{\lambda t}, \xi_2=0.$ Bundan $\lambda<0$ bo'lgani uchun $C_1<0$ bo'lganda chap yarim abscissa o'qiga, $C_1>0$ bo'lganda esa o'ng yarim abscissa o'qiga traektoriya sifatiga egamiz. Chap yarim o'qda harakat chapdan o'ngga, o'ng yarim o'qda esa o'ngdan chapga yo'nalgan bo'ladi.

Endi $C_1=0, C_2<0$ bo'lsin. (2.19) dan ushbuga

$$\xi_1=C_2te^{\lambda t},\quad \xi_2=C_2e^{\lambda t},\ C_2>0 \quad (2.20)$$

egamiz. Agar $t=0$ bo'lsa, bundan $(0,C_2)$ nuqtani topamiz. Endi t o'zgaruvchi $t>0$ qiymatlarni qabul qila boshlasa, (ξ_1,ξ_2) nuqtaning harakatini va demak, traektoriyasini aniqlaymiz. Albatta, (2.20) dan ko'rinib turibdiki, t ning nolga yetarli yaqin qiymatlarida $\xi_1>0, \xi>0$ va (ξ_1,ξ_2) nuqta $(0,C_2)$ nuqtadan o'ngga harakat qilib, I chorakka kiradi. Quyidagi

$$\frac{d\xi_2}{d\xi_1}=\frac{\lambda}{1+\lambda t}$$

ifoda t ning nolga yetarli yaqin qiymatlarida manfiy (chunki $\lambda<0$). Shuning uchun $\xi_2(t)$ funksiya avval o'zini kamayuvchi funksiya kabi tutadi. Bu xossa $t=0$ dan $t_*=-\dfrac{1}{\lambda}$ gacha davom etadi. Ammo $\left(0,-\dfrac{1}{\lambda}\right)$ intervalda

$$\frac{d^2\xi_2}{d\xi_1^2}=\frac{d}{d\xi_1}\left(\frac{d\xi_2}{d\xi_1}\right)=\frac{d}{dt}\left(\frac{d\xi_2}{d\xi_1}\right)\cdot\frac{1}{\frac{d\xi_1}{dt}}=-\frac{\lambda^2}{(1+\lambda t)^2}\cdot\frac{1}{C_2e^{\lambda t}(1+\lambda t)}=$$

$$=-\frac{\lambda^2}{C_2(1+\lambda t)^3e^{\lambda t}}<0$$

bo'lgani uchun shu intervalda qavariqlik yuqoriga qaragan bo'ladi. Rashanki, $t_*=-\frac{1}{\lambda}$ momentga mos nuqtada traektoriyaga o'tkazilgan urinma vertikal. Shunday qilib, $(0,C_2)$ nuqtadan $t=0$ da harakat boshlanib I chorakda chapdan o'nga va yuqoridan pastga yo'nalgan bo'ladi, bu harakat $\left(\xi_1(t^*),\xi_2(t^*)\right)==\left(-\frac{C_2}{\lambda}e^{-1},C_2e^{-1}\right)$ nuqtagacha davom etadi.

Nihoyat, $t>-\frac{1}{\lambda}$ bo'lganda nuqtaning harakatini o'rganamiz. (2.20) ga ko'ra $\lambda<0$ bo'lgani uchun ξ_2 funksiya kamayuvchi. Bu xossa t ning barcha $t>0$ qiymatlarida to'g'ri. Endi ξ_1 ning t bo'yicha hosilasini hisoblaymiz:

$$\frac{d\xi_1}{dt}=C_2e^{\lambda t}(1+lt).$$

Bundan

$$\frac{d\xi_1}{dt}\begin{cases}>0, & agar\ 0\le t<-\frac{1}{\lambda},\\ <0, & agar\ t>-\frac{1}{\lambda}.\end{cases}$$



17-chizma.

Demak, $t_*=-\frac{1}{\lambda}$ momentdan boshlab, (ξ_1,ξ_2) nuqta o'ngdan chapga va yuqoridan pastga harakat qiladi. Quyidagi limitlarni hisoblaymiz (Lopital qoidasini qo'llab):

$$\lim_{t\to+\infty}\xi_1(t)=\lim_{t\to+\infty}C_2te^{\lambda t}=\lim_{t\to+\infty}\frac{C_2t}{e^{-\lambda t}}=\lim_{t\to+\infty}\frac{C_2}{-\lambda e^{-\lambda t}}=0;$$

$$\lim_{t\to+\infty}\xi_2(t)=\lim_{t\to+\infty}C_2e^{\lambda t}=0.$$

Bundan ko'rinadiki, (ξ_1,ξ_2) nuqta vaqt $t_*=-\frac{1}{\lambda}$ dan ortib borgan sari koordinata boshiga yaqinlab boradi va $t\to+\infty$ da ξ_1 o'qiga nuqtaning traektoriyasi urinadi (17-chizma). Traektoriyaning $\left(-\frac{1}{\lambda},+\infty\right)$ intervalga mos kelgan bo'lagining qavariqligi pastga qaragan. Buning to'g'riligi $\left(-\frac{1}{\lambda},+\infty\right)$ intervalda $\frac{d^2\xi_2}{d\xi_1^2}>0$ ekanidan kelib chiqadi.

Endi $t<0$ bo'lganda traektoriyani tekshiraylik. Ravshanki, bu holda t o'zgaruvchi 0 dan $-\infty$ gacha kamayib borsa, nuqta ham orqaga, ya'ni o'ngdan chapga va pastdan yuqoriga II chorakda harakat qiladi. (2.20) ga ko'ra o'ngdan chapga pastdan yuqoriga qaraganda tezroq harakat qiladi (17-chizma). Endi agar C_2ga barcha musbat qiymatlar bersak, tegishli traektoriyalar yuqori yarim tekislikni to'la qoplaydi(17-chizma).

Agar (2.19) formulalarda C_2 ixtiyoriy bo'lsa ham xuddi shu mulohazalar o'rinli bo'ladi, ya'ni $(C_1+C_2t)e^{\lambda t}$ va $C_2te^{\lambda t}$ funksiyalarning differensial xossalari bir xil. Xususan, bu holda harakat (C_1,C_2) nuqtadan boshlanadi. $\left(-\infty,\frac{C_2+\lambda C_1}{\lambda C_2}\right)$ intervalda qavariq yuqoriga, $\left(-\frac{C_2+\lambda C_1}{\lambda C_2},+\infty\right)$ intervalda esa pastga qaragan bo'ladi. C_1 va $C_2>0$ larga ixtiyoriy qiymatlar bersak, mos ravishda qurilgan traektoriyalar yuqori yarim tekislikni to'ldiradi.

Agar $C_2>0$ va C_1- ixtiyoriy o'zgarmaslar uchun yuqoridagidek mulohazalar yuritsak, pastki yarim tekislikda traektoriyalar quriladi. Shunday qilib, P^* tekislikni to'la qoplaydigan traektoriyalar chiziladi. Bu holda biz turg'un tug'ilma tugun manzarasiga egamiz. Agar $\lambda>0$ bo'lsa ham mulohazalar o'xshash. Bunda noturg'un tug'ilma tugun manzarasi quriladi.

Misol. Ushbu

$$\begin{cases} \dot{x}_1 = -x_1, \\ \dot{x}_2 = x_1 - x_2 \end{cases}$$

sistema uchun $A = \begin{pmatrix} -1 & 0 \\ 1 & -1 \end{pmatrix}$ va $\lambda_1 = \lambda_2 = -1.$

Sodda hisoblashlar yordamida topamiz:

$$\begin{pmatrix} -1 & 0 \\ 1 & -1 \end{pmatrix}\begin{pmatrix} h_1^{(1)} \\ h_2^{(1)} \end{pmatrix} = (-1)\begin{pmatrix} h_1^{(1)} \\ h_2^{(1)} \end{pmatrix}$$

yoki

$$\begin{pmatrix} -h_1^{(1)} \\ h_1^{(1)} - h_2^{(1)} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} -h_1^{(1)} \\ -h_2^{(1)} \end{pmatrix}.$$

Bundan $h_1^{(1)} = 0,\ h_2^{(1)} = 1$ ($h_2^{(1)} -$ ixtiyoriyligidan). Demak,

$$h^{(1)} = \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix}, h^{(2)} = \begin{pmatrix} h_1^{(2)} \\ h_2^{(2)} \end{pmatrix}$$

vektori ushbu

$$\begin{pmatrix} -1 & 0 \\ 1 & -1 \end{pmatrix}\begin{pmatrix} h_1^{(2)} \\ h_2^{(2)} \end{pmatrix} = (-1)\begin{pmatrix} h_1^{(2)} \\ h_2^{(2)} \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} h_1^{(1)} \\ h_2^{(1)} \end{pmatrix}$$

tenglikdan topiladi. Uni soddalashtirsak,

$$\begin{pmatrix} -h_2^{(2)} \\ h_1^{(2)} - h_2^{(2)} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} -h_1^{(2)} \\ -h_2^{(2)} + 1 \end{pmatrix}$$

tenglikka keladi. Bundan $h_1^{(2)} = 1,\ h_2^{(2)} = 1$ ($h_2^{(2)} -$ ixtiyoriyligidan). Demak, $h^{(2)} = \begin{pmatrix} 1 \\ 1 \end{pmatrix}$. Shunday qilib, basis sifatida $\begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix}$ va $\begin{pmatrix} 1 \\ 1 \end{pmatrix}$ vektorlarga egamiz. $\lambda_1 = -1$ bo'lgani uchun bu bazislar asosida turg'un tug'ilma tugun manzarasini chizamiz.

G) A matrisaning xos sonlaridan kamida bittasi nolga teng. Bunda ikki holni alohida ko'ramiz.



18-chizma.

1-hol. Faqat bitta xos son nolga teng, xususan, $\lambda_1 \neq 0,\ \lambda_2 = 0$ bo'lsin. Bu holda yechimni

$$x = \xi_1 h^{(1)} + \xi_2 h^{(2)}$$

ko'rinishda yoziladi va $\xi_1 = C_1 e^{\lambda_1 t};\ \xi = C_2 = const.$ Agar $\lambda_1 < 0$ bo'lsa, harakat $\xi_2 = C_2$ gorizontal chizig'i bo'ylab har ikki tomondan ξ_2 o'qiga tomon yo'nalgan bo'ladi. ξ_2 o'qining, ya'ni $\xi_1 = 0$ to'g'ri chizig'ining hamma nuqtalari muvozanat holatidan iborat (18, a – chizma).

Agar $\lambda_1 > 0$ bo'lsa, harakat yuqoridagiga qaraganda teskari yo'nalgan bo'ladi



19-chizma.

(18, b – chizma). Bu holda ham $\xi_1 = 0$ to'g'ri chizig'I muvozanat holatida bo'ladi. Har ikki holda ham $\xi_1 = 0$ bo'lganda $x = C_2 h^{(2)} = const$ fikrimizning dalili ko'rinib turibdi.

2-hol. Ikki xos son ham nolga teng. Bu holda yechim 1) $x = C_1 h^{(1)} + C_2 h^{(2)} = const$ kabi yoziladi. Biz P tekislikning barcha nuqtalari muvozanat nuqtasi bo'lgan holga egamiz. Bu A matrisaning barcha elementlari nolga teng bo'lgandagina sodir bo'ladi. 2) $x = (C_1 + C_2)h^{(1)} + C_2 h^{(2)} = C_1 + C_2 t,\ \xi_2 = C_2$ kabi yoziladi. Agar $C_2 = 0$ bo'lsa ξ_1 o'qi muvozanat nuqtalaridan iborat bo'ladi. ξ_1 o'qdan yuqorida $C_2 > 0$ va harakat chapdan o’ngga, pastda esa $C_2 < 0$ va harakat o’ngdan chapga yo’nalgan bo’ladi (19-chizma).Yuqorida o’rganilgan nazariy ma’lumotlardan foydalanib amaliy misollar ko’rid chiqish mumkin .

30- mavzu. Differentsial tenglamalar yechimining turg‘unligi. (2 soat)

Reja:

1. Lyapunov ma`nosida yechimning turg‘unligi, asimptotikturg‘unligi.
2. Yechimning turg‘unligi, turg‘unmasligi, asimptotikturg‘unligi haqida teoremalar.
3. Turg‘unlik nazariyasining amaliy masalalari.

6.1. Birinchi yaqinlashish bo`yicha turg`unlik

1. Quydagi differentsial tenglamalar sistemasi berilgan bo`lsin:

$$\frac{dx_i}{dt} = f_i\left(t, x_1, x_2, \ldots, x_n\right), \quad i = 1, \ldots, n \qquad (1$$

yoki vektor formada

$$\frac{dx}{dt} = f\left(t, x\right), \quad x = \left(x_1, x_2, \ldots, x_n\right). \qquad (2$$

Faraz qilaylik, f_i va $\frac{\partial f_i}{\partial x_k}$ funksiyalar barcha *i* va *k* larda $t_0 \le t < +\infty$ da uzuluksiz bo`lsin.

Agar $x = \varphi(t)$ (2) tenglamaning yechimi berilgan bo`lib, ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun $\delta > 0$ ko`rsatish mumkin bo`lsaki, barcha

$$\left| x(t_0) - \varphi(t_0) \right| < \delta, \qquad (3$$

boshlang‘ich shartni qanoatlantiruvchi (2) tenglamaning $x(t)$ yechimlari uchun ixtiyoriy $t_0 \le t$ da

$$\left| x(t) - \varphi(t) \right| < \varepsilon \qquad (4$$

shart bajarilsa, berilgan $x = \varphi(t)$ yechim Lyapunov ma`nosida ***turg‘un*** deyiladi.

